

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

BOSHLANG`ICH TA'LIM USLUBIYATI KAFEDRASI

XALQ PEDAGOGIKASI

fanidan o'quv-metodik qo'llanma

Guliston - 2015

Ushbu «Xalq pedagogikasi» fanidan tayyorlangan o`quv-metodik qo`llanma «5111700 – Boshlang`ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish» bakalavr ta'lim yo`nalishi uchun mo`ljallangan. O`quv-metodik qo`llanmada AKT va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish bo`yicha muallif tomonidan olib borilgan izlanishlar, malaka oshirish kursidan olgan tajribalari, uzoq yillik pedagogik kuzatishlar, universitetning umumta'lim maktabi boshlang`ich sinflari bilan ilmiy-metodik hamkorligi natijalari o`z ifodasini topgan.

O`quv-metodik qo`llanma Guliston davlat universiteti o`quv-metodik Kengashining 2015 yil 25 martdagi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar: «Boshlang`ich ta`lim uslubiyati» kafedrası mudiri,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent *R. Ergashev*,
o`qituvchi M. Eshonqulova.

Taqrizchilar: «Pedagogika va psixologiya» kafedrası pedagogika
fanlari nomzodi, dotsent *H. Abdukarimov*

«Pedagogika va psixologiya» kafedrası
katta o`qituvchisi *O. Suvonov*

«Xalq pedagogikasi» fanining
2014-2015 o'quv yili uchun mo'ljallangan
SILLABUSI

Fanning qisqacha tavsifi						
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Guliston davlat universiteti			Guliston sh. 4-mavze		
Kafedra:	Boshlang'ich ta'lim uslubiyati			Pedagogika fakulteti tarkibida		
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:	140000 – Pedagogika ta'lim sohasi		5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi			
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	p.f.n., dotsent Ergashev Rustam Najimovich o'qituvchi Ismatova To'lg'anoy Keldibaevna		e-mail:		ergashev - 57@ mail.ru. ismatova -75 @ mail.ru.	
Dars vaqti va joyi:	P-201, P-202, P-203 auditoriyalar		Kursning davomiyligi:		20.02.2015 - 16.06.2015	
Individual grafik asosida ishlash vaqti:	seshanba, payshanba va juma kunlari 09.00 dan 15.20 gacha					
Fanga ajratilgan soatlar	Auditoriya soatlari				mustaqil ta'lim:	42
	Ma'ruza:	26	Amaliy	24		
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):	Xalq pedagogikasi fani Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti, Pedagogik mahorat, Pedagogik texnologiya, Psixologiya, O'qituvchi nutq madaniyati, Tarix, San'at, Sotsiologiya, Adabiyot, Falsafa, Etika, Estetika, Gigiena, Innovatsiya, Integratsiya fanlari bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganiladi.					
Fanning mazmuni						
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	Fanni o'qitishdan maqsad – xalq pedagogikasi inson kamolotida muhim ekanligi, xalqimiz qoldirgan milliy-madaniy merosni, an'ana va umuminsoniy qadriyatlarni talabalarga yetkazish, ularni o'tmish avlodlarimizning ko'p asrlar davomida ta'lim va tarbiya sohasida o'ttirgan boy, ijobiy tajribasini o'zlashtirish asosida yosh avlodni mamlakatimizning mustaqilligini mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan umumiy ishda faol ishtirok etadigan qilib kamol topdirishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarni o'zbek milliy ta'lim-tarbiyasi an'analari tarixi, halq pedagogikasi namunalari, O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, g'oyalari bilan tanishtirish, ta'lim-tarbiya sohasida xalqimiz tomonidan to'plangan boy tajribani bugungi kun yosh avlodni tarbiyalashda qo'llay olish ko'nikmalari bilan qurollantirish.					
Talabalar uchun talablar	- universitet o'quv binosi va auditoriyalarida talabaga xos kiyinish madaniyatiga rioya qilish (engil-elpi kiyinish, ortiqcha taqinchoqlar taqish qat'iyon man etiladi); - o'qituvchiga, uning faniga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish; - universitet ichki tartib-intizom qoidalariga rioya qilish; - uyali telefonni o'quv binosi va dars davomida o'chirish; - berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish; - ko'chirmachilikka (plagiatlikka) yo'l qo'ymaslik; - darslarga to'liq (majburiy) qatnashish, qoldirilgan darslarni (Nizom talablariga ko'ra) o'z vaqtida qayta o'zlashtirish; - darslarga oldindan tayyorlanib kelish va unda faol ishtirok etish; - darsga kechikib kelmaslik, o'qituvchidan so'ng dars xonasiga kirish mumkin emas; - ma'ruza, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari uchun alohida daftar tutish va ularda mustaqil ish mavzulari materiallarining mavjudligi va ularning baholangan bo'lishi; - reyting jadvalida belgilangan (ON, JN) topshiriqlarni o'z vaqtida bajarib borish; - reyting ballaridan norozi bo'lgan taqdirda, ball e'lon qilingan vaqtdan boshlab 1 kun mobaynida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish.					
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	Professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi. Elektron pochta ochish vaqti soat 15.00 dan 20.00 gacha					

Fanda o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

T/r	Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni	Soatlar			
		Jami	Ma'ruza	Amaliy	Mustaqil ta'limni
1	Xalq pedagogikasi fanining maqsadi va vazifalari	2	2	-	2
2	Xalq pedagogikasi - inson kamolatining asosi.	8	2	2	4
3	Xalq pedagogikasi va unga xos bo'lgan xususiyatlar	6	2	2	2
4	O'tmishda bola tarbiyasida qo'llanilgan usullar	8	2	2	4
5	Ta'limda xalq pedagogikasidan foydalanish imkoniyatlari	8	2	2	4
6	Xalq pedagogikasida mehnat va axloqiy tarbiya	8	2	2	4
7	O'tmish mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya haqida fikrlari	8	2	2	4
8	Forobiyning pedagogik qarashlari	6	2	2	2
9	Xalq pedagogikasining og'zaki ijodda aks ettirilishi.	8	2	2	4
10	O'zbek xalq dostonlarining tarbiyaviy ahamiyati	8	2	2	4
11	O'zbek xalq ertaklari va maqollari	8	2	2	4
12	Xalq qo'shiqlari – tarbiya vositasi.	6	2	2	2
13	Qur'oni Karim suralari va Hadislarning tarbiyaviy ahamiyati	4	2	2	2
	Жами:	92	26	24	42

Talabalar bilimni baholash tizimi:

«Xalq pedagogikasi» kursi bo'yicha reyting jadvali

2-bosqich uchun

Umumiy soat - 92 soat: ma'ruza - 26 soat, amaliy -24 soat, mustaqil talim - 42 soat

BAHORGII SEMESTR

№			Fevral		Mart			Aprel				May				Iyun					
			16 - 21	23-28	2 - 7	9 - 14	16 - 21	23- 28	31 30- 4	32 6- 11	33 13 - 18	34 20 - 25	35 27- 2	36 4- 9	37 11 - 16	38 18- 23	39 25 - 30	40 1- 6	41 8 - 13	42 15-20	
1	JN 40%	Amaliy			5				4				5		4		4				22
		Mustaqil ta'lim				5				4			4		5						18
2	ON 30%	Yozma ish								8								8			16
		Mustaqil ta'lim					5				4						5				14
3	VaN – 30%																				30
	Jami		15					29					26					30	100		
	Jami bo'yicha		15					44					70					30	100		

**Talabaning fanni o'zlashtirish darajasi quyidagi
mezon asosida aniqlanadi**

1. O'quv materiallarini to'liq o'zlashtirgan, uning mazmun-mohiyatini mantiqan to'g'ri, ravon va xatosiz bayon eta olgan, unga misollar keltirib, amalda qo'llay olgan talabaga eng yuqori (ajratilgan ballning **86-100%**) ball qo'yiladi.
2. O'quv materiallarini to'liq o'zlashtirgan, uning mazmun-mohiyatini mantiqan to'g'ri va ravon ochib bergan, lekin uni amalda qo'llashda kichik xatolarga yo'l qo'ygan talabaga yaxshi (ajratilgan ballning **71-85%**) ball qo'yiladi.
3. O'quv materiallarini qisman o'zlashtirgan, uning mazmun-mohiyatini ochib berish, uni amaliyotga joriy etishda o'qituvchi yoki boshqalarning yordamiga suyangan talabaga o'rtacha (ajratilgan ballning **55-70%**) ball qo'yiladi.
4. O'quv materiallarini o'zlashtirmagan, ularning mazmun-mohiyatini tushinib yetmagan, ularni amaliyotda qiyinchilik bilan qo'llay olgan, biroq fan konspektini to'liq rasmiylashtirgan, imtizomli, darslarga to'liq qatnashgan talabaga (ajratilgan ballning **39-54%**) ball qo'yiladi
5. O'quv materiallarini umuman o'zlashtirmagan, ularni amaliyotda qo'llay olmagan, biroq o'quv fani konspektini qisman rasmiylashtirgan, ko'p dars qoldirib, ularni qayta o'zlashtirgan talabaga quyi (ajratilgan ballning **0-38%**) ball qo'yiladi.

Asosiy adabiyotlar:	Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma`naviyat”, 1992. K. Hoshimov, S.Matjon, O'zbek pedagogikasi antalogiyasi. 1-jild.–T.: “O'qituvchi”, 1995. K. Hoshimov, S.Matjon, O'zbek pedagogikasi antalogiyasi. 2-jild.–T.: “O'qituvchi”, 1996.
Qo'shimcha adabiyotlar:	O. Hasanboyev. Pedagogika tarixidan xrestomatiya.-T.: “O'qituvchi”, 1996. Z. Mirtursunov. O'zbek xalq pedagogikasi. –T.: “O'qituvchi”, 1996. O. Musurmonova, Z. Baybekova, O'zbek xalq pedagogikasi. – T.: “O'qituvchi”, 2000 Ajdodlar o`giti, xikmatlar, hikoyatlar, tamoyillar. – T.: 1991 Usmonov R. Saodatnoma. –T.: «O`qituvchi», 1995.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Zivonet.uz
4. www.edu.uz
5. tdpu.INTRANET.uz

**1- MAVZU: XALQ PEDAGOGIKASI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI
mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi**

T'r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1-bosqich	Dars maqsadi: Xalq pedagogikasi inson kamolotida muhim ekanligi, xalqimiz qoldirgan milliy-madaniy merosni, an'ana va umuminsoniy qadriyatlarni talabalarga yetkazish. Identiv maqsadlar: 1.1 Halq pedagogikasining inson kamolotida tutgan o'rniga aniqlik kiritadilar. 1.2 Halq pedagogikasiga hissa qo'shgan olimlar va mutafakkirlar haqida so'zlab beradilar.	O'qituvchi
2-bosqich	Asosiy tushunchalar: Xalq, xalq pedagogikasi, an'analar, ma'daniy meros, urd-odat, yodgorlik, inson kamoloti, mutafakkirlar, va x.k. Dars shakli: guruhda ishlash. Vositalar: proektr, kompyutr. Metod va usullar: amaliy mashg'ulot, ko'rsatish, tushuntirish.	O'qituvchi
3-bosqich	Guruhda ishlash. -Xalq pedagogikasining inson kamolotida tutgan o'rnini haqida gapirilsin. - Xalq pedagogikasiga Sharq mutafakkirlarining qo'shgan hissalarini tushuntiriladi - Talabalar bilan savol javob olib borish.	Talaba
4-bosqich	Mustahkamlash va boholash uchun savollar: 1.1. XX asrda Sharq mutafakkirlardan halq pedagogikasiga o'z hissalarini qo'shgan olimlarni aniqlang. A) A. Avloniy, Fitrat, Munavvar Qori. B) Furqat, Fitrat, Behbudiy V) A. Avloniy, Gulxaniy, Cho'lpon G) G'.G'ulom, Koshifiy, Oybek 1.2. Halq pedagogikasiga qaysi janrlar kiradi. A) Asar, doston, rivoyat B) Maqol , ertak, topishmoq, doston V) Masal, xikoya, lapar G) Latifa, roman, doston	O'qituvchi-talaba
5-bosqich	Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsadga erishildi. Vazifalar bajarildi. Mustaqil ish topshiriqlari qilib ,talabalarga adabiyotlarni taxlil qilib kelish topshirildi.	O'qituvchi

Asosiy savollar

1. Xalq pedagogikasining inson kamolotida tutgan urni.
2. Xalq pedagogikasiga Sharq mutafakkirlarining kushgan xissalari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar. Xalq, xalq pedagogikasi, an'analar, ma'daniy meros, urd-odat, yodgorlik, inson kamoloti, mutafakkirlar, va x.k.

Asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi: Xalq pedagogikasi inson kamolotida muhim ekanligi, xalqimiz qoldirgan milliy-madaniy merosni, an'ana va umuminsoniy qadriyatlarni talabalarga yetkazish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Halq pedagogikasining inson kamolotida tutgan o'rniga aniqlik kiritadilar.
- 1.2. Halq pedagogikasiga xissa qo'shgan olimlar va mutafakkirlar haqida so'zlab beradilar.

1-asosiy savolning bayoni.

Hozirgi kunda o'tmish avlodlarning ko'p asrlar davomida ta'lim va tarbiya sohasida o'rttirgan boy, ijobiy tajribasini o'zlashtirish asosida yosh avlodni jumhuriyatimizning mustaqilligiga erishuvi yo'lida olib borilayotgan umumiy ishda faol ishtirok etadigan qilib kamol topdirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu tufayli ham jumhuriyat xalq ta'limi vazirligi halq pedagogikasini tashkil etishni, o'quvchilarni milliy-madaniy an'analar va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashni o'z oldiga asosiy vazifa qilib qo'ydi. Bu esa halqimiz qoldirgan milliy-madaniy merosni ta'lim muassasalarida va oilada tarbiya sohasida qo'llanayotgan tajribalarni jiddiy o'rganib, ularga amaliy yordam ko'rsatishni taqazo etadi.

Ma'lumki, o'zbek halq pedagogikasi yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vositalar, tadbir va shakllari, milliy urf-odat va an'analar, tarbiya haqidagi g'oyalar mujassamdir. Halq pedagogikasida ifodlangan g'oyalar, tajribalar halq yaratgan afsonalarda, og'zaki ijod namunalarida, og'zaki, yozma yodgorliklarda o'z ifodasini topgan; ulug' mutafakkir olimlarning ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan asarlarida bayon etilgan. Buni biz yaratgan maqol, topishmoq, ertak, latifa, dostonlarda, Ahmad Yassaviy, Sa'diy Sheroziy, Ahmad Yugnakiy, Rabg'uziy, Yusuf Xos Hojib, Munis, Horazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Qozizoda Rumiy, Hisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Fahriddin Roziy, Zamahshariy, Gulxaniy, Furqat kabi mutafakkir shoirlar, O'rta Osiyoda yetishgan va musulmon olamida mashhur bo'lgan Imom Ismoil al-Buxoriy, Muhammad ibn Iso Termiziy asarlarida ko'ramiz. Bu ulug' allomalar o'zlaridan oldin o'tgan avlodlar donishmandligini kelgusi avlodlar uchun ko'zgu deb bildilar va o'zlaridan keyingi avlodlarga taqdim etdilar.

XX asrning tiniqli yozuvchisi va shoirlari ta'lim-tarbiyaga doir asarlar yaratdilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Said Ahmad, Primqul Qodirov, O'tkir Hoshimov hikoya va romanlar, Hamza Hakimzoda, Elbek, G'ofur G'ulom, Hamid Olimjon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Shuhrat kabi shoirlar she'r va hikoyalar ijod etdilar.

M. Hayrullaev, N. M.Mallaev, Z. Mirtursunov, I. Husanxo'jaev kabi olimlar o'tmish mutafakkirlarning tarbiya haqidagi fikrlarini tahlil etib, ilmiy pedagogik

tadqiqotlar yaratdilar. X.Zarif, M. Alaviya, T. Mirzaev, G'. Jahongirov, M. Obidova va boshqa folklorshunoslar halq og'zaki ijodi na'munalarini tadqiq etdirl.

«Halq pedagogikasi – inson kamolotining asosi» deb nomlangan ushbu qo'llanma ham o'zbek halq pedagogikasini o'rganish va tiklash sohasida dastlabki tajriba sifatida yaratildi. O'ylaymizki u muallim, murabbiy va ota-onalarga bola tarbiyasi sohasida olib borayotgan ishlarida yordam beradi.

Kitobdan o'rin olgan «O'zbek halq pedagogikasini qayta tiklash yo'riqnomasi konsepsiyasi», «Halq pedagogikasi va unga xos xususiyatlar», «Halq pedagogikasining mutafakkirlar ijodida aks ettirilishi», «Halq pedagogikasida bola tarbiyasi», «O'tmishda bola tarbiyasida qo'llangan usullar», «Ta'limda halq pedagogikadan foydalanish», «Halq pedagogikasida mehnat tarbiyasi», A. Zununov, «O'tmish mutafakkirlar ta'lim-tarbiya haqida», M.Hayrullaev, «Halq pedagogikasining og'zaki ijodda aks ettirilishi», N.T. Xatamov, «Etnopedagogik aloqalarning halq qo'shiqlarida ifodalanishi», O. Safarov, va D. O'rayeva, «Halq pedagogikasida axloqiy tarbiya» M. Isayeva tomonidan yozildi.

Qo'llanma haqida o'zlarining samimiy fikr-mulohazalarini bildirib, kelgusi ishlarimizga ko'maklashgan o'rtoqlarga o'z tashakkurimizni izhor etamiz.

Nazorat topshiriqlari

1.1. XX asrda Sharq mutafakkirlardan halq pedagogikasiga o'z hissalarini qo'shgan olimlarni aniqlang.

- A) A. Avloniy, Fitrat, Munavvar Qori
- B) Furqat, Fitrat, Behbudiy
- V) A. Avloniy, Gulxaniy, Cho'lpon
- G) G'.G'ulom, Koshifiy, Oybek

1.2.Halq pedagogikasiga qaysi janrlar kiradi.

- A) Asar, doston, rivoyat
- B) Maqol , ertak, topishmoq, doston
- V) Masal, xikoya, lapar
- G) Latifa, roman, doston

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR:

1. Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. T. 1-5 kitoblar 1992 y.
2. Imom Ismoil al-Buxoriy Al adab al- mufrad (Adab durdonalari)/ - T.: « Uzbekiston», 1990
3. Umar Xayyom. Navruznama . T «Mexnat» 1990y.
4. Uzbek pedagogikasi antalogiyasi . - T., 1-jild. 1995y, 2-jild 1999 y.

2-MAVZU: XALQ PEDAGOGIKASI - INSON KAMOLATINING ASOSI
mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotning texnologik xaritasi

T\r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1-bosqich	Dars maqsadi: Talabalarda o'zbek milliy ta'lim-tarbiyasi an'analari tarixi xaqida tasavvur hosil etish, ularni halq pedagogikasi namunalari, O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, g'oyalari bilan tanishtirish. Identiv maqsadlar: 1.1. O'zbek halq pedagogikasini qayta tiklash konsepsiyasining yaratilishi, uning qisqacha mazmuni haqida gapiradilar. 1.2. Turli ijtimoiy tuzum taraqqiyoti davomida o'zbek halq pedagogikasining rivojlanishini va uning bugungi kundagi ahamiyati to'g'risida izohlaydilar	<i>O'qituvchi</i>
2-bosqich	Asosiy tushunchalar: Ijtimoiy hayot, iqtisodiy hayot, jamiyat hayoti, Konsepsiya, pedagogik an'analalar, mehnat taqsimoti, milliy madaniyat, milliy qadriyat, barkamollik, Hadis, mutafakkir. Dars shakli: guruxda ishlash. Vositalar: proektr, kompyutr. Metod va usullar: amaliy mashg'ulot, ko'rsatish, tushuntirish.	<i>O'qituvchi</i>
3-bosqich	Guruhda ishlash. 1. O'zbek halq pedagogikasining O'rta Osiyo ijtimoiy hayotiga bog'liq holda shakllanishi va rivojlanishi tushuntiriladi. 2. Qadimgi davrda Halq pedagogikasining rivojlanish bosqichlari. 3. O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, g'oyalari bilan tanishtirish.	<i>Talaba</i>
4-bosqich	Mustahkamlash va boholash uchun savollar: 1.1. XX asrda Sharq mutafakkirlardan halq pedagogikasiga o'z hissalarini qo'shgan olimlarni aniqlang. A) A. Avloniy, Fitrat, Munavvar Qori. B) Furqat, Fitrat, Behbudiy V) A. Avloniy, Gulxaniy, Cho'lpon G) G'.G'ulom, Koshifiy, Oybek 1.2. Halq pedagogikasiga qaysi janrlar kiradi. A) Asar, doston, rivoyat B) Maqol , ertak, topishmoq, doston	<i>O'qituvchi-talaba</i>
5-bosqich	Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsadga erishildi. Vazifalar bajarildi. Mustaqil ish topshiriqlari qilib ,talabalarga adabiyotlarni taxlil qilib kelish topshirildi.	<i>O'qituvchi</i>

Asosiy savollar

1. O'zbek halq pedagogikasining O'rta Osiyo ijtimoiy hayotiga bog'liq holda shakllanishi va rivojlanishi.
2. Qadimgi davrda Halq pedagogikasining rivojlanish bosqichlari.

Mavzuga oid tayanch, tushuncha va iboralar: Ijtimoiy hayot, iqtisodiy hayot, jamiyat hayoti, Konsepsiya, pedagogik an'analari, mehnat taqsimoti, milliy madaniyat, milliy qadriyat, barkamollik, Hadis, mutafakkir.

1-asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi: Talabalarda o'zbek milliy ta'lim-tarbiyasi an'analari tarixi xaqida tasavvur hosil etish, ularni halq pedagogikasi namunalari, O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, g'oyalari bilan tanishtirish.

Identiv o'quv maqsadi.

- 1.1. O'zbek halq pedagogikasini qayta tiklash konsepsiyasining yaratilishi, uning qisqacha mazmuni haqida gapiradilar.
- 1.2. Turli ijtimoiy tuzum taraqqiyoti davomida o'zbek halq pedagogikasining rivojlanishini va uning bugungi kundagi ahamiyati to'g'risida izohlaydilar.

1-asosiy savolning bayoni:

O'zbekiston jumhuriyatining mustaqil deb e'lon qilinishi, halq ho'jaligini boshqarishning bozor iqtisodiyoti qonunlari asosiga o'tishi, ta'lim-tarbiyaning siyosatdan holi qilinishi, umumiy o'rta maktab ta'limi mazmunini milliy qadriyatlar asosida. O'quvchilarni o'zbek halqining tarixi, madaniy merosi va pedagogik an'analari asosida tarbiyalashni taqazo etadi. Ana shu zaruriyatdan kelib chiqib, milliy madaniyat va qadriyatlarni tiklashga kirishilganligi quvonchli holdir.

Ma'lumki, o'zbek halq pedagogikasi O'rta Osiyo ijtimoiy hayotiga bog'liq holda shakllandi, rivojlandi.

O'rta Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda ibtidoiy jamoa tuzimi davrida ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etib borishi bilan jamoa a'zolari zarur vositalarni oddiy qurollar yasashga kirishdilar. Ularning bu harakati jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etdi, natijada jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yangi shakli yuzaga keldi, turmush kechirish uchun jamoa bo'lib yashash zaruriyati payd bo'lishi bilan ishlab chiqarish aloqalarigina emas, balki mustahkam qarindosh-urug'chilik asosidagi ibtidoiy jamoa shakllandi. Jamoada etnografik asosdagi muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ishlarni ayollar bajardilar, bola tarbiyasi ularning ixtiyoriga topshirildi. Shu asosda jamoada ayollarning mavqei ortdi.

Keyinchalik, jamiyatda ishlab chiqarish qurollarining mukamallashib borishi bilan jamoada mehnat taqsimoti o'zgardi, erkaklar asosan, chorvachilik va ov bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bajardilar, iqtisodiy hayotda ular yetakchilik mavqeini egalladilar.

Jamiyat hayotida ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida turli xilda xo'jaliklar shakllana boshlandi. Odamlarda turmushga munosabat o'zgardi. Toshkent, Buxoro, Surxandaryoda yashovchi jamoa a'zolari, tasviriy san'at, o'ymakorlik san'ati, kulolchilik, naqqoshlik bilan shug'ullandilar. Sug'oriladigan yerlarda dehqonchilik, chorvachilikning taraqqiy etib borishi, ayrim jamoa, urug', oila xo'jaligida qo'shimcha ishchi kuchiga muhtojlik sezilishi oqibatida yuzaga kelgan qulchilik jamiyatida quldorlik hususiyatini ifodalovchi jamiyat, turli din va aqidalar paydo bo'ldi.

O'zbekiston hududida er.av. 7-6 asrlarda sug'orish ishlari rivojlanib, ho'jalik a'zolari bog'dorchilik, polizchilik bilan shug'ullandilar. Bu davrda Ariya, Xorazm,

Sugʻd va boshqa viloyatlarning iqtisodiy-joʻgʻrofiy xaritasi, qazilmalaridan olingan mis, temirdan turli qurol va roʻzgʻor buyumlari ishlana boshlandi.

Er. av. 4 asr boshlarida Aleksandr Makedonskiy hukmronlik qilgan yillarda ijtimoiy hayotda ziddiyatlar boʻlishiga qaramay, Oʻrta Osiyo ilm-fan, madaniyat sohasida rivojlanish yuz berdi. Tabiiy fanlarni rivojlantirishga eʼtibor berildi, antik tipdagi binolar qurildi.

Er. av. 2 ming yillikda paydo boʻlgan, 16 asrga qadar Uzoq Sharq, yaʼni Xitoy, Yaponiyani Old Osiy bilan bogʻlagan «Ipak yoʻli» faqat savdo, siyosiy va ijtimoiy madaniy aloqa yoʻli xam boʻldi, mamlakat, shaxarlar halqlarining jumladan, Oʻrta Osiyo va Eron, Turkiya halqlari Musiqa madaniyatining rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. «Ipak yoʻli» halqlarining urf-odati, anʼanlari, madaniyatini bir-biriga uygʻunlashuvida muhim rol oʻynadi. «Ipak yoʻli» - halqlari tarixining oʻziga xos bir yodgorligi boʻlib, halqlarning ham savdo madaniy sohada oʻzaro hamkorlikda yashashi, doʻstlashi uchun xizmat qildi.

Er. keyingi 6-7 asrlarda Turk xoqonligi hukm surgan davrda Oʻrta Osiyoda ishlab chiqaruvchi kuchlarning ortishi bilan dehqonchilik yana yuksaldi, dalalarni sunniy oʻgʻitlash usuli joriy qilindi, sugʻorish ishlari, toʻqimachilik rivojlandi, ipak-gazlama korxonalari bunyod etildi, oltin, temir, qoʻrgʻoshin, kumushlardan turmush uchun kerakli buyumlar yasaldi. Ijtimoiy hayotda yuz bergan bu oʻzgarishlar natijasida Oʻrta Osiyo, jumladan Oʻzbekiston halqlari bilan Vizantiya, Xitoy va Xindiston, umuman Sharq halqlari oʻrtasida madaniy aloqalar taraqqiy etdi. Turk va fors tilida soʻzlashuvchi halqlar oʻrtasida aloqa rivojlandi. Bu aloqa ular yaratgan ogʻzaki ijodlarida ham oʻz ifodasini topdi.

Hind halqining «Pancha Tantra», (Besh kitob) asari Ibn Muqaffaning arab tilida qilgan tarjimasini oʻzbek tilida «Kalila va Dimna» nomida nashr etildi.

8 asrning ikkinchi yarmidan boshlab Oʻrta Osiyoda hukmronlik qilgan arablar bu oʻlkada islomni targʻib etdilar, arab tili davlat, Fan va adabiyot tili boʻladi. Bu davrda madniy barkamollikka erishgan oʻzbek halqi islom mohiyatini tezroq tushundi va uni qabul qildi. «Quroni Karim» ni insonni ulugʻlashga, qadrlashga, uni mehr-shavqatga, muhabbatga, tinch-totuv yashashga, iqtisodiy va maʼnaviy barkamollikka undovchi islom maʼrifati mujassami deb ataladi.

Qurʼon insonlarni ilmda, madaniyatda, odob-axloqda barkamol boʻlishga, dindan, irqdan qatʼiy nazar, ittifoq boʻlib, tinch-totuv yashashga daʼvat etadi. U Sharq va umumbashariyat madaniyatining bebaho hazinasi sifatida jamiyat taraqqiyoti va halq farovonligi yuksalishining asosiy negizi boʻlib, uni barkamollik sari yoʻlladi, bundan keyin ham yoʻllaydi.

Imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-adab, al-Mufral», «Adab durdonalari» asaridaagi 110 ta xadisda mushkul ahvolga tushgan kishiga yordam berish haqida shunday deyiladi. «Bir qancha qoʻshnilar qiyomat kuni oʻz qoʻshnilarinin etagidan ushlab, «Yo rabbi, manna bu qoʻshnim boshiga ish tushgan vaqtida yordam qilish oʻrniga eshigini qulflab olgan edi, deb daʼvo qildi». 3- hadisda deyiladiki, «Kim oʻzining qorni toʻq boʻlib, qoʻshnisi och holda oʻtirgan boʻlsa, u kishi «chin» moʻmin emasdir». Demak, har biri kishi ogʻir ahvolda qolgan qoʻshnisiga oʻz ovqatidan boʻlib berishi lozim.

Yuqorida keltirilgan hadis butun insoniyat uchun barkamollik, insoniylik ramzi boʻladi. Ushbu moʻʼtabar kitob, kishilarni, hususan yosh avlodni maʼnaviy barkamollik

ruhida tarbiyalashdek muhim ishda beqiyos ahamiyat kasb etdi. Bunda ifodalangan aqidalar halqning e'tiqodiga aylandi. Oilaning mustahkamlanishiga, bolalarga ixlos, imon, diyonat hislatlarini tarbiyalashga hizmat qilmoqda.

O'rta Osiyoda yashab ijod etgan ulug' mutafakkir shoir, olimlar hadisidagi ko'pgina aqida, pand-nasihatlarini o'z asarlarida ifodaladilar. Buni biz Ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Nizomiy Ganjaviy, Alisher Navoiy, Yusuf Xos Xojib, Al-Xorazmiy kabi allomalar ijodida ravshan ko'ramiz.

Nazorat topshiriqlari.

1.1. Temuriylar davrida yaratilgan, ulmas obida, yodgorliklar tugri berilgan katonni kursating.

- A) «Guri Amir», «Minorai kalon»,
- B) «Bogi maydon», «Zangi ota»,
- V) «Moyi muborak», «Shoxi zinda»,
- G) «Bibixonim», «Guri Amir», «Bogi maydon».

1.2. 11-12 asrlarda Movaraunnaxrda adabiy til kaysi til xisobilangan?

- A) Fors- tojik tili,
- B) Arab tili,
- V) Turk tili ,
- G) Ingiliz tili,

2-asosiy masala buyicha ukituvchining maqsadi: Talabalarga qadimgi davrda Xalq pedagogikasining rivojlanish boskichlarini urgatish, bilim, tushuncha va malakalarini shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

2.1 Turli ijtimoiy tuzum tarakkiyoti davomida uzbek Xalq pedagogikasining, pedagogikasi rivojlanishinig bugungi kundagi axamiyatini tushintiradilar.

2.2 Qadimgi davrda Xalq pedagogikasining rivojlanish boskichlarini kursatib beradilar.

2-asosiy savol bayoni:

XI-XII asrlarda O'zbekistonda feodal ishlab chiqarish munosabatlarining tarqqiy etishi, ichki va tashqi savdoning o'sishi, deqhqonchilik, hunarmandchilik, binokorlik o'ymakorlik san'atining rivojiga jiddiy ta'sir etdi, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Marv, O'zgan shaharlarida saroy, masjid, madrasa, sardoba kabi binolar qurildi. Bular o'zbek halqining abadiy yodgorligi sifatida hamon dune halqlari e'tiborini o'ziga jalb etib turibdi.

XI-XII asrlarda o'zbeklar Movarounnahrda asosiy aholi sifatida tarkib topdi, o'sha davrda «Turk tili» deb nom olgan o'zbek tili adabiy til hususiyatiga ega bo'ldi. Bu davrda Musiqa san'ati ham yuksalib, Abu Hafiz Sug'diy nayga monand Shohrud nomida asbob yasadi, halq kuylari asosida «Rosd», «Xusravoniy», «Boda», «Ushshoq», «Zarafganda», «Sipaxon», «Navo», «Basda», «Taron» va boshqa kuylar ijod qilindi. Bu kuylarning ko'pchiligi o'zbek, tojik halqlari hozirgi kunda ham kuylab, kata va kichiklarning hissiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqdalar. Bu davrda ilm-fanning o'sgani Al-Xorazmiy, Forobiy, Farg'oniy, Ibn Sino, Beruniy va boshqa olimlarning misolida yaqqol ko'rinadi.

XIII asr boshlarida Chingizxon is'telosi va qilgan yovuzliklari natijasida O'rta Osiyoning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida talofat yuz berdi. Shaharlar, sug'orish inshootlari vayron bo'ldi, olimlar quvg'in qilindi. Halq Chingizxon zulmiga qarshi qo'zg'aldi. Unga bo'lgan nafrati ifodalangan «Guldursin» kabi afsonalar yaratdi. Badiiy adabiyotda Rabg'uziyning «Qissai Rabg'uziy» singari Islom dini targ'ib qilingan asarlar yaratdi.

Amir Temur va uning avlodi hukmronlik qilgan 14-15 asrlarda mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy hayotida qayta tiklanish va rivojlanish boshlanishi bilan ilm-fan, me'morchilik, tasviriy san'at, naqqoshlik, Musiqa sohasida, badiiy adabiyotda juda katta yutuqlarga erishildi. Halq og'zaki ijodi rivojlandi.

Bu davrda tibbiy, tarix, tabiiy va adabiyot fanlari sohasida M. Ulug'bek, Q. Rumiy, /. Jamshid, Ali Qushchi, S.Ho'jandiy, Yusuf Tabib, Xofiz Abro', A. Samarqandiy, Xondamir, A. Navoiy, Jomiy, Davlatshoh Samarqandiy, Bobur, tilshunoslikda F. Abu Lays kabi buyuk olim, adiblar kamol topdi.

Temuriylar davrida bunyod etilgan «Bibixonim» masjidi, «Go'ri Amir» maqbarasi», «Shohizinda» binolari, «Bog'i maydon» bog'i, Buxoro, Samarqand, Hiva, /ijduvonda qurilgan madrasalar Temuriylar davrida yaratilgan o'lmas obida, yodgorliklardir.

Temuriylar davrida Abdurahmon Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Ali Handon, Mir Ali, Qilqalam, Halivoiy, Rafiqiy kabi xattotlar, Mirak Naqqosh, Behzod, Muzaffar kabi musavvirlar yetishdi.

Istedodli Behzod, Mirak Naqqosh, Qosim Ali, Mahmud Muzaxxab, Ho'ja Muhammad Naqqosh, Shox Muzaffar chizgan rasmlar, tasviriy san'at durdonasi, o'lmas madaniy merosimizdir.

Temuriylar davrida yetishgan Abduqodir Noyi, Qulmuhammad Shayxiy, Xusayin Udiy, Shoxquli G'ijjakiy, Darvesh Axmad Qonuniy, Usta Shodiy va boshqa Musiqachi, bastakor va hofizlar «Rost», «Isfahon», «Iroq», «Navo», «Rahoviy» maqomlarini ijod etib, o'zlaridan oldin ijod etilgan maqom va kuylarini boyitdilar.

Qutb, Xorazmiy, Amiriy, Xaydar Xorazmiy, Durbek, A. Navoiy, Atoiy, Sakkokiy, Bobur, Lutfiy, Muhammad Solih, Majlisiy va boshqa shoirlar yaratgan asarlar o'zbek adabiyotining bebaho namunasi, o'zbek halqining g'ururi, o'lmas merosi bo'lib, Dune halqlariga ezgulik bahsh etmoqda.

Temuriylar hukmronligi davrida O'rta Osiyo halqlari jumladan, O'zbek halqi bilan Eron, Arabiston, Turkiya, Xindiston, Xitoy halqlari o'rtasida madaniy, adabiy aloqalar rivoj topganini, Rudakiy, Firdavsiy, F. Attor, J. Rumiy, Haqqoniy, A. Jomiy, Nizomiy, X. Dehlaviy, Sheroziy, Fuzuliy, Xo'jandiy va boshqa sharqning buyuk allomalarining ijodiy aloqalari misolida ravshan ko'rish mumkin. Navoiy bilan Jomiy o'rtasidagi do'stlik va ijodiy hamkorlik ham bunga yorqin dalildir.

O'zbek halqi Bilan O'rta Osiyoda yashagan boshqa halqlar o'rtasida do'stona aloqa bo'lganini ular yaratgan og'zaki ijod namunalarida ko'rish mumkin. Masalan, ular yaratgan dostonlar, qahramonlar nomining o'xshashligi o'zbek, uyg'ur, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman halqlariga «Kun», «Oy» so'zlari bilan bir qatorda ishlatilgan nomlar ham buning yorqin dalilidir. O'zbek xalq dostonlaridan «Oysuluv» dagi Oysuluv va uning o'g'li Kunbotir, «Kuntug'mish» dagi Kuntug'mish, «Yusuf va Ahmad» dostonidagi Kunxon va Oyxon qahramonlari nomiga qo'shib aytiladigan «Oy»

qo'shimchasi, «Alpomish» dagi Barchinoy, Qirg'iz halq dostoni «/arib Oshiqdagi»dagi Oysanam, «Qirqqiz» dagi Oysuluv obrazlarida ham mavjud.

XVII-XVIII asrlarda Pyotr 1 hukmronlik qilgan davrda (1682-1725) rus davlati mustamlakachilik siyosatini kuchaytirdi. Mahalliy feodallar o'rtasidagi ziddiyatdan foydalanib, O'rta Osiyo yer osti boyliklarini egallash yo'llarini izlay boshladi. Ammo ijtimoiy hayotda yuz bergan o'zgarishlar qanchalik og'ir bo'lmasin, mehnat va san'at ahli o'z urf-odatlariga ko'ra ijodiy ishni davom ettirdi. Bezash san'ati kulolchilik, me'morchilik san'ati sohasida 10-15 asrlarda boshlangan ishlarni davom ettirdi. Bezagi, hashamati bilan o'z davri ruhi, me'morchilik madaniyatining yorqin namunasi bo'lgan «Masjidi Kalon», «Qo'sh madrasa», «Toki telfak furushon», (Buxoroda), «Sherdor», «Tillakor», (Samarqandda) madrasa kabi muhtasham binolari qurildi.

XVII-XIX asrlarda badiiy adabiyotning Saido Nasafiy, Turdi, Mashrab Gulxaniy, Maxmur, Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin, Zavqiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar, kabi talantli nomoyondalar yetishdi, 1962 yilda Muhammad Bodiy as-Samarqandiy Buxoro poeziyasining antalogiyasini tuzdi. Muhammad Balxiy «Suhonqulixonoma» dostonini, Mirmuhammad Amin Buxoriy «Tarixiy Subxonqulixon» kitobini yaratdi.

Bu davrda madaniy an'anaga ko'ra, maktab va madrasalarda o'qitish arab tilida olib borildi, madrasalarda ilohiyot haqidagi fanlar bilan birga tabbiy fanlar o'qitildi.

Umuman XX asrga qadar o'tgan davrda – Iskandar, Arab halifaligi, Mo'g'ullar va Rossiya imperiyasi, 1917 yil davlat to'ntarishidan keyin shukmronlik qilgan sobiq sovet yillarida ijtimoiy madaniyat, hayotda katta o'zgarishlar sodir bo'lganligingi ko'ramiz. Tarix fanlari nomzodi Azamat Ziyo aytganidek, ayniqsa, Amir Temir asos solgan saltanat davrida ijtimoiy-iqtisodiy hayot yuksaldi, ilm-fan va madaniyat yuksalib gurkirab rivojlandi. Zaminimiz, umuman sharq o'lkalari dunyoga xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Termizxiy, Buxoriy, Ahmad Yassaviy, Farg'oniy, Rudakiy, Firdavsiy, Umar Xayyom, Rumiy, Ulug'bek kabi buyuk daholarni taqdim etdi.

Osiyo, Ovropa mamlakatlari Mo'g'ul bosqinchilari asoratidan xalos etilgach, ijtimoiy va siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotda, katta tiklanish boshlandi, er.av. va keyin yaratilgan halq og'zaki ijodi o'zbek adabiyotining, ilmiy pedagogikaning shakllanishi va taraqqiyotiga bebaho bitmas-tuganmas manba bo'lib xizmat qildi.

Nazorat topshiriqlar

1. O'zbekistonda ibtidoiy jamoa tuzimi davrida ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiy etib borishi natijasida nimalar yuzaga keldi?

- A) Yangi iqtisodiy ijtimoiy munosabatlar.
- B) Jamoa bo'lib yashash.
- V) Mustahkam qarindosh urug'chilik.
- D) Barcha javoblar to'g'ri.

2. O'rta Osiyoda ishlab chiqarish kuchlarining ortishi bilan qaysi tarmoqlar yuksaldi?

- A) To'qimachilik, ipak gazlama
- B) O'ymakorlik, kulolchiik.
- V) Naqqoshlik, dalalarni sunniy o'g'itlash,
- D) Tasviriy san'at, dehqonchilik.

3. 14-15-asrlarda tabiiy tibbiy va tarix adabiyot fanlari sohasida kimlar kamol topganlar?

- A) Abdurahmon Jomiy, Ali Qushchi, Z.M. Bobur.
- B) Mirzo Ulugʻbek, Xorazmiy, Shoh Muzafar.
- V) Kamoliddin Behzod, Mirok Naqqosh.
- D) Ahmad Yugnakiy, Ogohiy, Ali Xandon.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbek pedagogikasi antologiyasi. T. "Oʻqituvchi" 1-jild 1995 y, 2-jild 1999 y.
2. "Xikmatlar" (Devoni xikmat) T. 1990y.
3. Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. 1-5 kitoblar. T. 1992 y.
4. Qobusnoma. T. "Oʻqituvchi" 1994 y.
5. Oʻzbekiston xalqlari tarixi. 1-jild. "Fan"

3 –MAVZU: XALQ PEDAGOGIKASI VA UNGA XOS BOʻLGAN XUSUSIYATLAR mavzusidagi maʼruza mashgʻulotining texnologik xaritasi

Tʼr bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi maʼsul
1-bosqich	Dars maqsadi: Talabalarda oʻzbek milliy taʼlim-tarbiyasi: oʻzbek Xalq pedagogikasi xususiyatlarining milliy madaniyat, ilm-fan, sanʼatdan va adabiyot sohasidagi yutuklarini talabalarga yetkazish va ushbu masalaga nisbatan ularda munosabatni shakllantirish. Identiv maqsadlar: 1 Xalq pedagogikasining xususiyatlarini ularning adabiyot sohasidagi yutuklarini aytib beradilar. Ilm-fan va adabiyot sohasida erishgan yutuklarini bir-biridan farklaydilar..	Oʻqituvchi
2-bosqich	Asosiy tushunchalar: Milliy xususiyatlar, Xalq pedagogikasi, yosh avlod, eng qadimgi, marosim, marosim kushiklari, afsona, avesto, Xalq ogzaki ijodi va x. Dars shakli: guruxda ishlash. Vositalar: proektr, kompyutr. Metod va usullar: amaliy mashgʻulot, koʻrsatish, tushuntirish.	Oʻqituvchi
3-bosqich	Guruhda ishlash. 1.Oʻzbek halq pedagogikasining Oʻrta Osiyo ijtimoiy hayotiga bogʻliq holda shakllanishi va rivojlanishi tushuntiriladi. 2.Qadimgi davrda Halq pedagogikasining rivojlanish bosqichlari. 3.Oʻrta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, gʻoyalari bilan tanishtirish.	Talaba
4-bosqich	Mustahkamlash va boholash uchun savollar: Nazorat topshiriklari 1.1.Xalq redagogikasi kachondan boshlab shakillana boshladi? A) Eng qadimgi yozuv prydo bulishidan oldin B) Eng qadimgi yozuv paydo bulganidan sung	Oʻqituvchi-talaba

	V) XVI asrning birinchi yarmi G) XII asrning oxiri 1.2. Xalq pedagogikasiga qaysi janrlar kiradi. A) Asar, doston, rivoyat B) Maqol, ertak, topishmoq, doston V) Masal, xikoya, lapar G) Latifa, roman, doston	
5-bosqich	Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsadga erishildi. Vazifalar bajarildi. Mustaqil ish topshiriqlari qilib, talabalarga adabiyotlarni taxlil	O'qituvchi

Asosiy savollar.

1. Xalq pedagogikasi xususiyatlarining ilm-fan va adabiyot sohasida erishgan yutuklari.
2. Qadimgi oilaviy turmush va bola tarbiyasida qo'llanilgan usullar.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Milliy xususiyatlar, Xalq pedagogikasi, yosh avlod, eng qadimgi, marosim, marosim kushiklari, afsona, avesto, Xalq ogzaki ijodi va x.k.

1-asosiy masala buyicha ukituvchining maqsadi: Uzbek Xalq pedagogikasi xususiyatlarining milliy madaniyat, ilm-fan, san'atdan va adabiyot sohasidagi yutuklarini talabalarga yetkazish va ushbu masalaga nisbatan ularda munosabatni shakllantirish.

Identiv o'quv maqsadi:

- 1.1. Xalq pedagogikasining xususiyatlarini ularning adabiyot sohasidagi yutuklarini aytib beradilar.
- 1.2. Ilm-fan va adabiyot sohasida erishgan yutuklarini bir-biridan farklaydilar.

1-asosiy savolning bayoni:

O'zbek xalqiga xos milliy hususiyatlar, uning milliy madaniyati, ilm-fan, san'at va adabiyot sohasida erishgan yutuqlarida, oilaviy turmush tarzida bola tarbiyasida qullangan usul va tadbirlarda nomoyondir.

Yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qullangan usul va vosita tadbir shakllari, urf-odat va an'analar, tarbiya xaqidagi g'oyalar-xayotiy tajribalar o'zbek halk pedagogikasida mujassamdir.

Hali maktab bo'lmagan pedagogika fan sifatida shakllanmagan davrdayoq qabila a'zolarining bolalar tarbiyasi sohasida ortirgan, tajribalari xayotiy mevasi sifatida bizning davrimizga qadar yetib kelgan va Xalq pedagogikasi shaklida tarkib topdi. Xar birjamiyatda yashagan Xalq ruxi, do'stlik, birodarlik, mardlik, vatan va Xalqqa sodiqlik g'oyalari, ota-onalarning o'zaro axiligi, ular bilan farzandning o'zaro mexr-muxabbati, qadr-qimmat, insoniy eng yaxshi fazilatlar u ijod etgan maqol, topishmoq, ertak, latifa, lapar, askiya, dostonlarda tarannum etgan. Bu yodgorliklar o'z muxtasarligi, qiziqarliligi, rovonligi, oxangdorligi, pandnomaligi (didaktikligi) g'oyaviyligi bilan, g'oyatda muxim tarbiyaviy axamiyatga egadir.

Xalq pedagogikasining eng qadimgi yozuv paydo bo'lishidan oldin shakllandi. Shunga ko'ra, u ilmiy pedagogikaning boshlanishi xisoblandi. Xalq pedagogikasi inson, xalq bunyod bo'lgan davrdan boshlab mavjuddir. Jamoatchilik xususiyati, xayotiylik, xayotiy ifodalilik-xalq pedagogikasining asosiy xususiyatidir.

Xalq pedagogikasida xar bir Xalqqa xos donishmandlik uning tili, atama va shevalarida yorqin ko'rinadi. Shu sababli xam xalq pedagogikasi, keng mexnat axliga tushinarlidir. Ayrim atamalar iste'moldan chiqqanligiga qaramay, yozma adabiyotda, xalq ijodida yashamoqda, g'oyaviy estetik, fazifani bajarmoqda. Xalq pedagogikasiga xos obrazlilik, yorqinlik, ta'sirchanlik, kuchi faqat, sifatlash, mubolag'a, majoz, ritorlik suroq va undoshlarda emas, balki til boyliklari, fonetika, morfologiya, sintaksisda xam nomoyondir.

Nazorat topshiriqlari

1.1. Xalq pedagogikasi kachondan boshlab shakllana boshladi?

- A) Eng qadimgi yozuv paydo bulishidan oldin
- B) Eng qadimgi yozuv paydo bulganidan sung
- V) XVI asrning birinchi yarmi
- G) XII asrning oxiri

2-asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi: Qadimgi oilaviy turmush tarzi bola tarbiyasida kullanilgan usullar va tadbirlarda nomoyon bulishi xaqida ta'labalarga bilim va kunikma berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

2.1 Qadimgi oilaviy turmush tarzi xaqida suzlab beradilar.

2.2 Bola tarbiyasida kullanilgan usul va tadbirlarni bir-biridan farklaydilar.

2-asosiy savolning bayoni:

Har bir xalq pedagogikasi boshqa xalqlar ma'naviy-madaniyati bilan o'zaro aloqada boyib boradi. Halqlar hayotida urf-odat va an'analardagi o'xshashlik ular yaratgan yodgorliklar mavjuddir. Ammo, bundan qat'iy nazar, har bir yodgorlik uni yaratgan, ijod etgan xalqqa mansubdir, uning milliy yodgorligidir. Shu sababli ham xalq ijodiy asarlarida milliylik xususiyati namoyondir. Asarlar nomi, ularda tilga olingan, hudud, buyum, o'simlik, qushlar, xayvonlar, turmushda qo'llangan asboblar nomi ham buning yorqin dalilidir. Masalan, ipak qurti, atlas deyilsa, avvalo shubxasiz ipakchilik o'zbek xalqiga xos milliy an'ana bo'lganligi tasavvur qilinadi. "Rustamxon", "Kuntug'mish" desak uning o'zbek xalqiga, "Manas" desak u qirg'iz xalqiga, "Oysuluv" desak u qozoq xalqiga xosligini anglaymiz.

Xalq pedagogikasida xalq ijod etgan qo'shiqlar, o'yinlar bola tarbiyasida, uni hayotga tayyorlashda, bolalar o'rtasida axillikni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Halqimiz yaratgan qo'shiqlar va o'yinlar 11 asrning buyuk tilshunosi tarixchisi, etnografik Maxmud Qoshg'ariyning «Devonu Lug'ati - turk» kitobi orqali bizgacha yetib kelgan Maxmud Qoshg'ariy o'z asarida halqning turli mavzularda yaratgan qo'shiqlaridan namunalar bergan.

Mehnat qo'shiqlarida ovchilik, chorvachilik, bog'dorchilik va dexqonchilik hayoti, mehnat jarayoni, ijobiy jamoa an'analari, qabila a'zolarining hamjixat mexnati aks ettirildi.

Ov haqidagi qo'shiqlarda qabila a'zolarining ovchilik san'ati, ovchilikka qiziqishi tasvirlandi.

Qaxramonlik haqidagi qo'shiqlarda, qabilalar o'rtasida yuz bergan jang lavhalari, jasorat ko'rsatgan baxodirlar, qahramonligi ifodalandi.

Marosim qo'shiqlarida jang maydonida bahodirlarcha kurashib, halok bo'lgan kishilarning mardlik, fidoiylilik fazilati tasvirlandi.

Halq kashf etgan «Bekinmachoq», «Quvlashmachoq», «Zag'izg'on», «Aylanma darra», «O'rta qo'limni top», «Kim chaqqon», «Ayyor tulki», «Tortishmachoq» va boshka tur uyinlar bolalarda xarakat faolligini mustakil fikrlash, chakonlik, do'stni ximoya qilish o'xshatish chamalash, so'zlarni tugri va bir vaktida aytish, bir joyda turib turli xarakatlarni bajarish kabi kobiliyatlarini ustirishga yordam berdi.

Ibtidoiy jamiyatda mexnat jarayonining rivojlanib borishi bilan kishilar tajribasi va ongida, dunyokarashida ham o'zgarish yuz berishi bilan jamoa a'zolarida badiiy did, tushincha shakllanib bordi, natijada og'zaki badiiy so'z sanati, miflar, afsonalar, qozoq, eposi qo'shiq maqol topishmoq va latifalar yuzaga keldi va bu yodgorliklar yozma adabiyotning vujudga kelishi uchun zamin bo'ldi.

Ibtidoiy jamoa kishilari tabiatda yashin, dovul, zilzila, chaqmoq, kabi xodisalarining yuz berishi sabablarini bilmaganlari uchun yer va osmonni jonli narsalar deb tasavvur etganlar, ayrim hayvonlarni muqaddas deb his qilganlar. Ular tabiatda o'zlariga «do'st» va «dushman» kuchlar bor deb o'ylaganlar.

Ota-bobolarimiz o'rtasida quyoshga, olovga etiqod qo'yib, unga talpinish juda qadimdan davom etgan. Mitra-quyosh va yorug'lik hudosi.Noxit-obodonchilik va farovonlik hudosi, Anaxita va Xubbi suv hudosi, Mirrix-urush va g'alaba xudosi, yaxshilik va ezgulik esa Kakmars Yima (Jemshid) Girsheps kabi afsonaviy obrazlarda ifodalangan Yomonlik kuchlari ajdar, dev, jin kabi salbiy obrazlar orqali aks ettirilgan.

Ibtidoiy kishilarning dunyoni shu tarzda tasavvur qilishlari zaminida xodislar, xayvon va qushlar haqida miflar payo bo'ldi. Bu miflarda kishilarni hayotni sevishtga, hayotda sabr toqatli bo'lishga, yovuz kuchlarga qarshi kurashga davat qilinadi, ularda insonning kuch-qudrati ulug'lanadi. Bu mifologik-afsoaviy tushunchalar «Avesto» da keng o'rin oldi. Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash Mitra Yima,(jemshid), Elikbek kabi afsonalar obrazlarda mujassamlashtirilgan.

«Avesto»da talqin qiliishicha O'rta Osiyo va Eronda quyosh va yorug'lik ma'budasi-Mitra :fayz va baraka ma'budasi - Humo : yer suv xudosi –Anaxite qirg'in urushlar va muzaffarlik mabudi-Mirrix, yaxshilik va ezgulik mabudalari Gaya Meretan vayima kabilar muqaddas sanalgan, e'ezlangan, hamda ularga singilgan. Qadimgi davrlarda zardo'shtiylik sig'ingan Urta Osiyoliklar orasida Cho'ponota –podachi va cho'ponlar piri Er Xubbi –Amudaryo suvinig piri va xomiysi Kambar – otboqar va yilqichilar piri va xomiysi sifatida mashxur bo'lgan, muqaddas sanalgan va ular haqida turli davrlarda har hil saviyadagi halq og'zaki ijodi asarlari yaratilgan.

«Avesto»da shuhrat topgan qaxramonlarning yovuzlik timsoliga qarshi qo'yilgan qismlar bor. Ularda tasvirlanishicha, yovuzlikka qarshi chiqqan paxlovon jang oldidan g'alaba qozonishni so'rab, muqaddas xomiyga sig'inadi, iltijo qiladi: O, marxamatli, zabardast Ardvisura Amaxitamenga madad ber, uch og'iz va uch boshli, olti ko'z va ming hil kuchlar chultoni, baxaybat Aji Daxok ustidan g'olib chiqay.

Akademik Ya. Gulomov o'zining «Xorazmiyning sug'orilish tarixi» (Toshkent, Fan» nashriyoti ,1959y, 32 bet) nomidagi asarida Xubbi kul'ti haqidagi afsona qadimgi Xorazm voxasida yashagan, kasb-kori Amudaryoda kemachilik bo'lgan kishilarning afsonaviy tasavvurlari asosida yuzaga kelganini aytdi .

Afsonada hikoya qilinishicha Fariddun va Jamshid podsholik qilmasdan ko'p vaqtlar ilgari Amudaryoda bir yigit yashagan va u yigit daryoning hokimi bo'lgan. Uning ismi Xubbi bo'lgan. Xuddi baliq bilan ovqatlanagan, u bir qo'li bilan baliqni tutib olar ekanda, uni quyoshga uzatar ekan, baliq shu ondayoq qovurilar ekan. U yetti yuz yil davomida Amudaryoda yashagan va bu vaqt ichida hech qanday yovuz jin daryoga yaqinlasha olmagan xatto bu davrda chivinlar ham bo'lmagan. Jashid taxtga o'tirgan vaqtdan boshlab, Xubbi dom daraksiz g'olib bo'lgan. Uni osmon dengizi malikasi-go'zal bir qiz o'g'irlab ketgan deb o'ylaydilar. U g'olib bo'lganidan keyin Amudaryoda Xubbinin onasi paydo bo'lgan. U uzoq vaqt davomida yig'lab-yig'lab, o'z o'g'lini qidiradi. Ana shu Xubbinin onasi birinchi qayiqni qurgan va halqni daryoda urishishga o'rgatgan. So'ngra Xubbinin onasi butunlay ketib qolgan. Chollar: Ilgari vaqtlarda kemanday burnida shu xotinning haykali o'rnatilgan edi», - deydilar. So'ngra musulmonlar yealganidan keyin ular bu odatga e'tibor berib, uni yo'q qilishni buyurganlar. Shu vaqtdan boshlab bu haykalning boshini kesib tashlaganlar, faqat uning ikki ssch o'rimi qolgan .

Ming yil davomida, Xubbinin onasi aza tutgan va u bilan birga daryo, saxro, tog' va qoyalar yig'lagan, odamlar, qushlar, xayvonlar yig'lagan. Xubbi itirk, u qiyomatgacha yashaydi. Xubbi najot berur, Nux madad berur. Mana qanday kuch bu muqaddas daryoga homiylik qiladi.

Mitra quyosh va yorug'lik ma'budasi. U kishilarga baxt saodat baxsh etadi. Biz qo'shinni jangga tayyorlaydigan, jangchini yig'adigan Mitraga, qo'shinni jangga moslab saf torttiradigan, yov safini titratib, lashkar boshida turib jangga kiradigan, hammadan kuchli, qudratli yo'lboshchiga sajda qilamiz...

Mitra aravada turib, suyakdan moxirlik bilan ishlagan, buqa tasmasidan tarang qilib tortilgan yoyidan minglarcha o'q uzadi. Uning o'qlari fikrday uchadi, fikrday tezlik bilan devlar boshiga yog'iladi.

Mitra o'zining yaltiroq gurzisini ko'tarib yuradi gurzi va nishli, yuz baldoqli bo'lib tez kelib uriladi, dushmanlarni parchalaydi. U hammadan kuchli qurol bo'lib, yaltiroq temirdan yasalgan va ustiga oltin qoplangan. Bujuda baquvvat qurolni, har qanday yovni yakson qiladigan bu qurolni u dast ko'taradi...»

Mitraning yordamchilari ham uning o'zi kabi qudratli paxlavonlardir. Ulardan biri Axura Mazda...Vertragnader: Biz Mitraga sajda qilamizuning oldida Vertragna yugurib boradi. U kelishgan gavdali, o'tkir tishli, har qanday jonivorni bir tashlashda gumdon qiladigan ozuqa tishli to'ngiz, juda haybatli, baquvvat g'oyat sho'x, xujumdan toymaydigan, chopog'on, temir oyoqli, temir dumli, temir jangli to'ng'izdir. Udadillik bilan yuguradi, dushmanlarni tilka pora qiladi, ularni yengib yo'q qiladi.

Gershaps-o'limni yenguvchi bahodir. Bir ajdar kishilarga ko'p baxtsizliklar keltiradi, qabilaning hayoti havf ostida qoladi. Kahramon Gershaps ajdarga qarshi jangga o'tlanadi, ajdarning maskaniga qarab yo'l oladi. Gershaps tush choqiga qadar ajdarni kidiradi biroq uni topolmaydi. U ut kalab ovkat pishirmokchi buladi. Ajdar shunchalik katta ekanki, Gershaps ancha vakt uxlab ajdarning ustida aylanib yursa xam, uni paykamagan ekan va uz uchogini uni ustiga kurgan ekan. Ut ajdarning badanini kizitibdi, vazmin kimiray boshlabdi. Shundan keyingina Gershaps ajdar ustida kezib yurganini paykab olibdi. Lekin Gershaps vaximaga va sarosimalikka tushmabdi. U bu ulkan va daxshatli maxlukka karshi jang boshlab, kurollarni moxirlik bilan ishlatib ajdarni yengib, kishilarni xalokatdan kutkaribdi.

«Chistoni Elikbek» yodgorlik matnida Xalq baxodiri Elikbek obrazi tasvirida kuydagilar xikoya kilinadi. «Jinlar Elikbekning kabiladoshlaridan kup kishini kirib tashlaydi. Rakshosh nomli daxshatli dushman yukumli kasallik tarkatadi. Fidokor Elikbek el-yurtini xalokatdan kutkarib kolmok uchun dushmanlarga karshi janga otlanadi. U bir chorraxada son-sonoksiz jinglarga duch keladi, ular kishilarni burdalab, konini surib, ichak-chovoklarini badanlariga urab olgan ekanlar. Elikbekni kurgan jinlar vaximali shovkin suron kutarib, unga yopirilib kela boshlaydilar. Birok Elikbek kurkmaydi, yulbasdek janga otlanib, jinlarga karata bunday deydi. «Oy yaklar, tarkin manga suzlanglar. Manim Bolik-kmtoki budunug bu kunug naguluk ulurulsizlar? Shu maning yeti kilichimni kuringlar Atus ungarini bichib ung-ung kamshayin.» (ey jinlar menga bot so‘zlangiz mening shaxrimdagi elni o‘ldirasiz? Mening bu o‘tkir kilichimni ko‘ring. Tanalaringizni parchalab boshka bo‘shka tomonga tashlayin). Jinlar yana vaxima solib kurol ishlatib Elikbekni maxv kilmokchi bo‘ladilar. Birok Elikbeka bas kela olmaydilar. Elikbek kuch kuvvati va shijoati bilan jinlarga daxshat soladi. Jinlar endi yolvorishga shavkat so‘rashga majbur bo‘ladilar. Jinlarni yengan Elikbek ulardan shaxarning janub yonida bir azim tolning kavagida yashovchi uch ko‘zli olov tusli Rakshoshning el yurtga yukumli kasal tarkatayotganini ili olib unga karshi jo‘naydi...»

O‘rta Osiyoda yashagan Xalqlarning ogzakijijodida ular yaratgan qaxramonlik rivoyatlari muxim o‘rin egallaydi. Bu rivoyatlar ijtimoiy xayot bilan boglik xolda bo‘lib ularda Xalq kaxramonlarining vatvnga Xalqqa bulgan sadokati ifodalangan. Buni “To‘maris”, “Shirok “, “Zarina va Striangiya”,” Rustam”,”Siyovush” rivoyatlarida tasvirlangan.

“Zarina va Striangiya” kissasining mazmuni. Shaklar shoxi o‘lib uning o‘rniga xotini malika Zarina kabilaga bosh bo‘ladi. Tadbirli va shijoatli bu ayol kabilaning osoishtaligi va mustakilligini saklab kolish uchun jonbozlik ko‘rsatadi. Shaklar bilan Midiya o‘rtasida kattik jang bo‘ladi. Bu jangda maika Zarina katta shijoat ko‘rsatadi. Birok Midiya shaxzodasi Striangiya uni yarodar kiladi. Zarinaning botirligi va xusniga maftun bo‘lgan Striangiya uni asir olmaydi, kechiradi. Oradan bir muncha vakt o‘tadi. Parfiya shoxi Zarinaga uylanib shaklarni uziga to‘be kilmokchi buladi. Zarina uning taklifini rad etadi. Birok shox zo‘rlilik bilan unga uylanib Shaklarni karam kiladi. Zarina xar kanday kilib bo‘lsa xam najot topib kabilasining mustakilligini tiklashga intiladi. Shu orada parfiya bilan midiya urtasida kattik jang bo‘lib Midiyaning ko‘p askarlari asir olinadi. Asirlar orasida Striangiya xam bor edi. Zarina u bilan birga asirlarga bosh bo‘lib Parfiya shoxi yengiladi,asirlar ozod bo‘ladi, Zarina najod topadi,uning kabilasi o‘z mustakilligini tiklaydi. Shu vokealar davomida Striangiya Zarinani sevib koladi. Zarina Striangiyani xurmat kilsa xam, xotini borligi uchun uylanish taklifini rad etadi. Striangiya bunga chiday olmay o‘zini xalok etadi.”

Rustam.”...Rustam devlarni ularning shaxarlari darvozalariga kadar kuvib boradi. Ko‘p devlar xalok bo‘ladi,kolganlari shaxar darvozasini bekitib oladi. Rustam galaba bilan qaytadi. Yolgiz Rustamning o‘zidan maglub bo‘lgan devlar gazablanib unga karshi jangni davom ettirishga karor kilishadi.son sanoksiz devlar ot aravalarga fil cho‘chkch tulki it va ilonlarga minib yo‘lga tushadilar. Ularning bir kachasi piyoda borar edi... Rustamning Raxsh nomli oti yaylovda o‘tlamokda, uning o‘zi esa katta galabadan kein shirin uykuda edi. Uzokdan devlarning paydo bo‘lganini ko‘rgan Raxsh Rustamni uygotadi. Rustam sarosimaga tushmaydi. U devlarni yakin keltirish va kukisdan xujum etish uchun kasdan orkasiga karab ot surib ketadi. Uni kuvib

borayotgan devlar endi galaba kozonishlariga ishonadi, xar kanday kiib bo'lsa xam Rustamni tiriklayin ushlab kattik jabirlashga axt kilishadi. Lekin birdan Rustam otini dushman tomonga burib devlarga xamla kiladi. Devlar tum tarakay kocha boshlaydi, ularning ko'pchiligi yaralanadi ko'plari o'ladi..."

"Siyovush afsonaviy Eron shoxlaridan bo'lgan Kayoniy shoxlaridan Kaykovusning o'gli Siyovush o'z xusni jamoli bilan xammani maftun kiladi. U onasining extirosini rad etib malomat va tuxmatga koladi. U o'z pokligini isbot kilish uchun katta alanga ustidan ot surib o'tadi. U Taronga karshi kurashib qaxramonliklar ko'rsatadi. Tuxmatchi o'gay ona dargoxiga kaytishni istamagan Siyovush kaxramon Afrosiyobning poytaxtiga yo'l oladi. Afrosiyob uni yaxshi kutib oladi. Siyovush Afrosiyobning kiziga uylanadi. Janglarda botirlik ko'rsatadi. Birok fitnachi amaldorlar Siyovush va Afrosiyob o'rtasida adovat tugdiradilar. Afrosiyob Siyovushni o'ldiradi. Siyovushning o'gli Kayxsrav Xorazmiy shoxlar sulolasiga asos soladi.

Jamiyatning tarixiy tarakkiyoti jarayonida vujudga kelgan afsonalar buyuk fors shoiri Firdavsiyning Shark va Garbda shuxrat kozongan "Shoxnoma" asarining asosini tashkil etadi.

Xalq pedagogikasining ogzaki ravishda avloddan o'tib kelayotgan yodgorliklarida (makol, topishmok, ertak, latifa, doston) Xalqning moddiy dunyoning moddiyligi, xayotda xodisalarining sodir bo'lishi sababi va okibatlari tabiat va jamiyat xodisalarining bir biriga bog'likligi shakl va mazmun birligi bola tarbiyasi xaqidagi tasavvuri ifodalangan.

O'tmishda oilada turli mavzudagi ertak, latifa, xikmatlardan keng foydalanilgan. Ota onalarning tunda uyku oldidan aytib bergan ertaklaridan bolalari ruxiy ozuka olgan, xayotdagi va odamlardagi yaxshi fazilat va yomon xislatlarni bilib olishgan, xurmat va muruvvat, adolat kabi tushunchalar xaqida tasavvurga ega bo'lishgan.

Xalq pedagogikasida ogzaki ijod namunasi bo'lgan dostonlar xam tarbiviy axamiyati jixatidan salmokli o'rinni egallaydi. O'zbek Xalqi yaratgan dostonlarda Xalq xayoti, urf-odati milliy mustakillik uchun olib borgan kurashi galabaga ishonchi aks ettirilgan. Masalan. "Alpomish" "Rustam" turkumidagi "Murodxon" dostonlarida o'zbek milliy urf odatlari ananalari fidokorlik do'stlik sadokatlik sevgi va vafo insof va adolat kabi insoniy fazilatlar Alpomish, Korajon, Oybachin, Kaldirgok, Murodxon, Orzigul obrazlari orqali badiy ifodalangan.

Xalq tomonidan yaratilgan dostonlarni Fozil Yo'ldosh o'gli, Ergash Jumanbulbul o'gli, Po'ltan, Islom shoir kabi baxshilar yoddan kuylaydilar, bu janrning rivojiga salmokli xissa ko'shadilar. Xodi Zaripov, Mansur Avzalov kabi folklor shunos olimlar Xalq dostonlarini to'plab tadqiq kilib nashr ettirib keng kitobxonlar ommasini xushnud kildilar, yangi davr xayoti aks ettirilgan dostonlarning yaratishiga zamin yaratdilar.

Nazorat topshiriqari:

1.1. Xalq kashf etgan kaysi uyinlar bolalarda fikrlash chakkolik, dustni ximoya kilish va x k. xislatlarni shakllantirishda muxim axamiyat kasb etadi.

- A) «Bekinmachok», «Kuvlashmachok»
- B) «Zagizgon», «Aylanma darra»
- V) «Urta kulimni top» va «Kim chakon»
- G) Barcha javoblar tugri.

1.2. O`rta Osiyo va Eronda quyosh va yoruglik ma`budasi nima hisoblangan?

- A) Noxit
- B) Mitra
- V) Xumo
- G) Anaxita

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Bolalar bogchalarida Xalq uyinlari. T. 1991 y.
2. Uzbek pedagogikasi antalogiyasi. T. "Ukituvchi", 1-jild 1995 y, 2-jild 1999 y.
3. Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. 1-5 kitoblar. T. 1992y.

4-MAVZU: O`TMISHDA BOLA TARBIYASIDA QO`LLANILGAN USULLAR mavzusidagi ma`ruza mashg`ulotning texnologik xaritasi

T`r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1-bosqich	Dars maqsadi O`tmishda bola tarbiyasida qo`llanilgan usullar, urf-odatlar, an`analar, xaqida talabalarga bilim berish va ta`lim berishda xalq pedagogikasining o`rnini tushuntirish.</p> <p>O`tmishda bola tarbiyasida qo`llanilgan usullar, urf-odatlar, an`analar, xaqida talabalarga bilim berish va ta`lim berishda xalq pedagogikasining o`rnini tushuntirish. Identiv maqsadlar: 1.1. O`tmishda bola tarbiyasida qo`llaniladigan usullar va vositalar haqida bilimga ega bo`ladilar.</p> <p>1.2. O`tmishda bola tarbiyasida qo`llangan usul va vositalarning hozirgi kundagi bolalar tarbiyasida tutgan o`rni haqida bahs yuritadilar.	O`qituvchi
2-bosqich	Asosiy tushunchalar: Axloq, o`tmishda bola tarbiyasi, tarbiya, xulk- atvor, xislat, ota-ona, maktab, fan, dars, urf-odat, xalq og`zaki ijodi, xislatlar, usullar va x.zo. Dars shakli: guruhda ishlash. Vositalar: proektr, kompyutr. Metod va usullar: amaliy mashg`ulot, ko`rsatish, tushuntirish.	O`qituvchi
3-bosqich	Guruhda ishlash. 1. O`tmishda bola tarbiyasida ota-onalarning kullagan usullari.</p> <p>2. Maktabda o`qitiladigan fanlarda urf-odatlar, Xalq og`zaki ijodining ahamiyati.	Talaba
4-bosqich	Mustahkamlash va boholash uchun savollar: Nazorat topshiriklari. 1. O`tmishda ota-bobolarimiz tarbiyada kanday usullardan foydalangan?</p> <p>A) Nasixat, tushuntirish, ragbatlantirish.</p> <p>B) Maktash, na`muna kursatish, tanbex berish. V) Ta`kiklash, majbur kilish, kurkitish.</p> <p>2. Qanday usullar kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega?</p> <p>A) Yo`l- yo`riq ko`rsatish, B) Tushintirish ,	O`qituvchi-talaba

	V) Jazolash, G) A va B javoblar tugri.	
5-bosqich	Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsadga erishildi. Vazifalar bajarildi. Mustaqil ish topshiriqlari qilib ,talabalarga adabiyotlarni taxlil	O‘qituvchi

ASOSIY SAVOLLAR:

1. O‘tmishda bola tarbiyasida ota-onalarning kullagan usullari.
2. Maktabda o‘qitiladigan fanlarda urf-odatlar, Xalq og‘zaki ijodining ahamiyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Axloq, o‘tmishda bola tarbiyasi, tarbiya, xulk- atvor, xislat, ota-ona, maktab, fan, dars, urf-odat, xalq og‘zaki ijodi, xislatlar, usullar va x.zo.

1-asosiy masala buyicha o‘qituvchining maqsadi: O‘tmishda bola tarbiyasida qo‘llanilgan usullar, urf-odatlar, an‘analari, xaqida talabalarga bilim berish va ta‘lim berishda xalq pedagogikasining o‘rni tushuntirish.

Identiv o‘quv maqsadi

- 1.1. O‘tmishda bola tarbiyasida qo‘llaniladigan usullar va vositalar haqida bilimga ega bo‘ladilar.
- 1.2. O‘tmishda bola tarbiyasida qo‘llangan usul va vositalarning hozirgi kundagi bolalar tarbiyasida tutgan o‘rni haqida bahs yuritadilar.

1-asosiy savolning bayoni:

O‘tmishda ota-bobolarimiz tarbiyada nasixat, tushuntirish, maqtash, rag‘batlantirish, na‘muna ko‘rsatish, tanbex berish, taqiqlash, majbur qilish, po‘pisa kilish, qo‘rqitish kabi usullardan foydalanganlar. Jamoa azolari bu usullarni qo‘llashda, ahlok qoidalariga suyangani xolda, qilgan ishi, xatti-xarakatining to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligi xaqida bolada ishonch xosil kilishga xarakat qilganlar, unga ahloklilik va ahloksizlik, odillik va adolatsizlik, yaxshilik va yomonlikning ma‘nosini tushuntirganlar. Bu tartib tarbiyada asosiy qoida hisoblangan. Tushuntirishda bolalarning yoshi hisobga olingan.

Ota-onalar bolalarga ahlok koidalarini tushuntirishda, «Kamtarlik xam bir xislat», «Odob-kishining zebi ziynati», «Eshik ochik bo‘lsa ham so‘rab kir», maqollari, “Yotish qoidasi” hikoyasi, “Xasis va afandi”, “Xovlikma”, “Maqtanchoq” kabi latifalaridan foydalanishgan. Chunki makol va latifalarning obrazlilik bolalar ongiga, hissiyotiga kuchli ta‘sir etgan. Xalq pedagogikasida bolaga fikrni qisqa, anik bayon etish qobiliyatini o‘stirishga e‘tibor berilgan. Yaxshi so‘z, yaxshilik qilish, yomonlik va ko‘p so‘zlashning zarari haqida maqollar ijod qilingan.

Oz so‘z-soz so‘z,
Tilga ixtiyorsiz-
Elga e‘tiborsiz.
Yaxshilik yerda qolmas.
va boshqalar.

Yaxshidan bog‘ qolar,
Yomondan dog‘ g‘olar.
Yaxshi odam oshini yer,
Yomon odam boshini yer.

Axloq qoidalarini bir guruh bolalarga va bir bolaga alohida tushuntirilgan. Ayrim vaqtlarda kattalar birlashib bolasi axloqsizlik qilgan oilada suxbat o'tkazishgan, bolaning xatti-xarakatidagi noo'rin jixatlarni ko'rsatib, ota-onalarga tegishli maslahatlar berganlar. O'tmishda axloq tarbiyasida nasixat qilish, maslahat berish usuli xam keng qullangan. Ota-onalar o'z bolalariga kattalar o'rtasida ular bilan so'zlashganda mexmonga borilganda, o'zini qanday tutish xaqida nasixat qilganlar, axloq qoidalariga rioya etgan bolalar va kattalar nomini o'rnak kilib tilga olganlar. Shuningdek, ular o'z uylarida mexmonni kabul qilish, tartibini buzgan-"assalomu alaykum" deb kutib olmagan, ovkat va choy keltirishda noo'rin xarakat qilgan, mexmon qo'lga suv kuyib, sochik tutmagan, ketishda xayrlashishni unutgan, bolalarga mexmon ketgandan keyin nasixat kilib, yo'l qo'ygan kamchiliklarini ikkinchi marta takrorlamaslikni uqtirganlar.

Ota-onalar o'z farzandlariga bo'lgan muxabbat va xayrixoxliklarini amaliy ravishda ko'rsatishga xarakat qilganlar. Ularning fikricha, bola bir yaramas ishni bilmasdan qilgan bo'lsa, kechirish kerak, bilib qilgan bo'lsa, nasixat kilib, qilgan ishining yomonligini tushuntirish, agar u yana yomon ish kilsa, jazo berish kerak. Ammo uni yaramas so'zlar bilan so'kib, xakorat qilmaslik lozim, bu uni yomon so'zlarga o'rgatadi.

Yaramas ish qilgan bolaning aybini o'zidan eshitmokchi bo'lib: "To'g'risini ayt, ont ich, aytmasang kaltaklayman",-deb qo'rkritmaslik kerak. Agar shunday kilinsa, bola ko'rkanidan yolg'on ont ichshga aybni yashirishga yolgnonchilikka odatlanib koladi. Shu sababli, o'tmishda ota bobolar, onalar ayrim xollarda ertaklardan ifodalangan vokea, kaxramonlar misolida bolalarga nasixat qilganlar: -Baxorning go'zal kuni edi, xavoni bulut o'rab oldi, yomg'ir yogdi. Keyin yana kuyosh chikdi, xamma yok go'zallashdi. Bir kichik sichkon yomgirdan keyin o'ynamok uchun inidan chikmokchi bo'ldi, onasi unga:

-Bolam, hozir inimizdan chiqma, mushuk bizning chiqishimizni poylab turibdi, agar chiqsak darrov tutib yeb qo'yadi,-dedi.

Bolasi onasining so'zini tinglamadi, inidan chiqqan zamoniyok, poylab turgan mushuk uni yeb qo'yadi. Mana, aziz bolalarim bu hikoyamdan ota-onaga itoat qilmaslikning zararini bildingiz. Endi mening ikki og'iz nasixatim esingizdan chiqmasin:

1. Xar ona o'z bolasini sevadi, doimo uning yaxshi bola bo'lishini istaydi, unga xar vakt go'zal nasixat kiladi.

2. Bolalar xam ota-onalarining so'zlarini tinglashlari, nasixatlarini kuloklariga olishlari kerak. Bobolarimiz bola tarbiyasida ota-onalar oldiga shunday talablar ko'yganlar:

Ota-ona bolaga ustozdir. Ular:

-bolani yaramas ishlardan saklab yaxshi ishlarga kiziktirishlari, uning yonida yomon kiliklardan saklanishlari, odob, tarbiyaga, zid so'zlarni gapirmasliklari lozim,

-bolani xech kimga yomonlik kilmaslikka, ko'ldan kelgancha yaxshilik kilishga ko'niktirish, uning ko'ngliga shavkat, marxamat tuyg'ularini solishga gayrat kilishi kerak,

-bolani yaxshi to'g'ri yo'lga yo'naltirib, o'zlari xam shu yo'ldan ketishlari lozim. Ota-onaning odob, tarbiya, ekanligi xar bir xatti-xarakatidan ko'rinib tursin, bolalarga namuna bo'lsin,

-yaxshi deb bilgan ishni ishlab ko'rsatish va u ishning yaxshiligiga bolani ishontirish kerak,

-bola tarbiya qiladigan ota-onaning o'zi to'g'ri so'zli bo'lishi, muxabbat asarini ko'rsatib, xar bir vakt unga xayrixox bulganini bildirishi lozim.

-yaxshi tarbiyalanib turgan bolani o'z darajasiga loyik mukofotlash va uning aksincha, bo'lganlarga islox kilarlik ravishda jazolash tarbiyaninig negizidir. Mukofot uchun shirin so'zlar bilan ularni maktash, sevgan narsalariga erishtirish birga o'tirib suxbatlashish kerak. Bola ota-onasininig yuzida norozilik alomatlarini ko'rib uning jazo ekanini bilsin. Mukofot yoki jazo bolalarning saviyasi darajasida bo'lsin. -bola bolaligini kilmasdan ko'ymaydi, katta-kichik bo'lmagur ishlarni kilib ko'yadi. Uning bu kamchiliklarini bira-to'la bitirish mumkin emas, vakti-vakti bilan sekin asta tuzatish xar bir ishda sabrli bo'lish lozim. Bolalar yonida xar vakt odillik bilan ustozlarcha ish olib borish, tarbiyaning eng muxim negizidir.

Bobolarimiz bola xakki –ulug Xalqlarning ulugi bo'lib, bunga ota—ona va murabbiylar mas'uldir, deydilar: Shuning uchun bu xaklarini bilish va kerakli paytda ado etish, ota-ona va murabbiylar uchun lozimdir. Bola yoshlik vaktida xar xil tarbiyaga kobil bo'lgani uchun bu vakt ulug ganimatdir. Shunga ko'ra, uni yoshlik-bolalik vaktidan boshlab, tarbiya kilish kerakdir. Agar bolaga go'zal tarbiya berilsa, u baxtli saodatli bo'ladi, xar bir yaxshi ishlari bilan ota-ona va murabbiylarini shodlantiradi.

Bolalarni go'zal tarbiyali etish uchun, ota-onaning o'zlari axloqli tarbiyali bo'lishlari shartdir. Bolalarga bergan tarbiyalariga o'zlari amal kilmasalar, xulk – atvorlarini tuzatmasalar, bolalariga umirlari bo'yicha tarbiya bermasalar foydasi bo'lmaydi. Ota-ona bolalarini to'g'ri so'zlash to'g'ri ishlashga o'rgatib tarbiya etsa, bolalari to'g'ri so'zlash va to'g'ri ishlashga odatlanadilar. Yomon tarbiya bolalarni baxtsiz kiladi.

Bolalarning buzik so'zlarni eshitib kulib turishi, yaramas ishlarini olkishlash, ularni orsizlik axloqsizlikka odatlantirishdir. Nazorat ostida bolalarga go'zal o'yinlar o'rgatish ularning zexnlarini ochadi. Bolalarni foydali o'yindan ajratmaslik kerak. Bolalarni ularning tabiatlariga mos bo'lgan ko'ngillari istagan o'yinlardan ayirish istedod –kobilyatlarning rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Zero, o'yinlarni man etish natijasida bolalar asabiy o'zlarini tuta olmaydigan va muxokamasiz bo'lib yetishadilar. Bir donishmand: "Ota-ona va murabbiylarning bolalarini zararsiz o'yinlardan xam maxrum etishlari ularning marxamatsiz ittifoksiz va kishilarga yokimsiz bo'lishlariga sababchi bo'ladi" - deb aytadi. O'tmishda ishonch xosil kilish usuli noo'rin xarakat kilgan, kilgan ishida adolatli bo'lmagan, bolalarga nisbatan ko'llangan. Ishontarish usulida boladan yo'l ko'ygan xatosiga ikror bo'lish talab etilgan, talab "nima uchun kilding?", "nega bu ishni kilding?" "Kim senga bu ishni kilgin dedi?" savollariga javob olish tarzida bo'lgan.

Bola tarbiyasida o'gil bolalarga karaganda kiz bollarga ko'prok e'tibor berish lozim. Chunki qiz bola voyaga yetgach boshqa xonadonga kelin bo'lib tushadi. Agar u uy ishlarini bilmasa oilaga raxbarlik qila olmaydi. Yo'l yo'riq ko'rsatish, tushuntirish usuli kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda muxim axamiyat kasb etadi. Chunki, bu yoshdagi bola ota-onadan kattalardan axloq koidalari xaqida birinchi bor sabok oladi, koidalarni doimo xotirada saklab tura olmaydi, o'z xayotida unga izchillikda amal kilmaydi. Kichik yoshdagi bolalarda bu xususiyatning bo'lishi tabiy xoldir. Shu sababli

xam o'tmishda Xalqi qo'llagan tushuntirish usuli an'ana sifatida xozirgi vaqtda xam ijodiy tarzda davom etilmokda.

O'tmishda xozirgi davrda xam axloq tarbiyasi ota-onaning, katta yoshdagilarning o'z yaxshi fazilatlari, xulk atvorlari bilan bolalarga yoshlarga namuna bo'lishlari shart. Shu sababli xam Xalq ijodining makol va iboralarida namuna bo'lishning axamiyati keng ifodalangan. Ota-ona va kattalarga izzat xurmat ko'rsatish olkishlash taksinga sozovor ishdir. Ota-onaning roziligini olishga diqqat va g'ayrat qilmok lozim. Yoshi anchagina soqol mo'ylablari chiqqan o'g'il ham otasi huzuriga chiqqanda qo'l qovishtirib salom berishi kundalik qarzdır. Farzandlarning go'zal odobli tarbiyasi bo'lishlari uchun eng avval ota-onalarning o'zlari go'zal xislatga, yani yaxshi tarbiyaga odobga ega bo'lishlari shart. Bir olim fozilning: "Go'zal tarbiyasi ota-onadan tarbiyasi odobli farzand yetishadi"- degan so'zi juda to'g'ri.

Bayt. Barcha yerda istasang o'tsin so'zing,

Tabiat birla, kurollangil o'zing.

Ona bo'lish –ulug bir ne'mat va nazrsiz bir sharafdir. Bola tarbiya etish usuli bilan oshno bo'lish, xotinlar uchun lozim bo'lgan ishlarni bilish go'zal va xunuk xulklardan xabardor bo'lish, xotinlarning vazifasidir, yana bola tarbiyasi uchun lozim bo'lgan soglikni saklash bilan tarbiya ilmidan olgan ma'lumotlarini ortirish uchun gayrat kilish lozimdir.

Bolani urib, kattik ko'llik bilan emas, balki muloyimlik bilan tarbiya etish kerak. Zarar bilan foydani xali ajratolmagan yosh o'smirni nazoratsiz koldirish xatodir.

O'zbek Xalqi axloqiy tarbiyada o'z bolasiga namunali va yaxshi xatti- xarakati bilan boshkalarga namuna bo'ladigan urtogini maktash va ibrat ramzi bo'lgan kishilar xayotidan ayrim lavxalarni ogzaki ijod asarlaridagi ijobiy kaxramonlarning axloqiy fazilatlarini xikoya kilib berish usulidan xam foydalanadi. "Xikoyat: Sulton isimli bola o'z o'rtogi Yusufjonga:

- Yusufjon, Ali akaning bogidagi yongoklarni ko'rdingmi? Kanday yaxshi shirin yongoklar. Yur shu yongoklarni chuntagimizni tuldirib olaylik, - dedi. Yusufjon unga:

- Yuk bulmaydi, - deb javob berdi.

-Nega sen yongokni yomon ko'rasanmi? Men bilan, sen yongokni yaxshi ko'rasan, nima uchun bo'lmaydi deysan?

- U yongoklar Ali akaning yongoklari, egasidan so'ramasdan olish yaxshi emas, shuning uchun kabul etmayman.

-O'rtok, yo'k dema, bizni xech kim ko'rmaydi. Men daraxtga chikib yongok kokaman sen terib olasan, kel, yo'k dema.

- Yo'k dedim-ku, bo'lmaydi.

-Bugun senga nima bo'ldi. Fakat "yo'k bo'lmaydi" degan so'zni qaytarib turasan, buning sababini so'zla.

-Sababini so'zladim-ku, yongoklar bizniki emas, o'grilik kilmayman.

-O'grilik deysanmi? Kizik bola ekansan. Xech kim ko'rmagandan keyin o'griligi nimasi?

- Xech kim ko'rmasa ko'rmasin, lekin vijdonimiz ko'rib turadi, u bizni yomon ishlardan qaytaradi, shuning uchun sening taklifingni kabul kilmayman".

"Sevimli o'gillarim, - deydi ota - doimo yomon ishlardan saklaning, birov sizni yomonlik kilishga taklif etsa, Yusufjondek "yo'k bo'lmaydi" deb javob bering".

Bobolarimiz bolalar bilan suxbatlar o'tkazib, ularning xar bir inson sharafiga, obro'si yaxshi xulki bilan ortishining, yomon xulk bilan kamayishini bilib olishlariga aloxida etibor berib, yaxshi va yomon xulkning ma'nosini tushuntirib, nasixat kilib deganlar: "Aziz bolalarim ,bu so'zlar buyuk bir xakikat, doimo yodimizda bo'lsin. Doimo yomon xulklarimizni yo'kotishga, uning o'rniga yaxshi xulkka ega bo'lishga gayrat kilaylik. Kelinig, xammamiz birgalikda yaxshi va yomon xulklarning ba'zilarini bu suxbatimizda tekshirib o'taylik.

Yomon xulklardan biri takabburlik va gururdir. Xar kim o'zini sevadi va o'zining kamsitilishini istamaydi. Takabburlik, magrurlik, manmanlik esa boshkalarni mensimay o'zini xammadan yukori kilib ko'rsatishdir. Magrur va takabbur odamlar tez orada xamma do'stlarini yo'kka chikaradilar. Olimlardan biri shunday degan:

-Magrur, manmanlikka mukkasidan ketgan odam tinchilik bilan ertalab nonushta kiladi, zo'rga- zo'rga tushki ovkatni yeydi, xijolatlar ichida kechki ovkatni yeyishga kirishadi. Buning ma'nosi shudir:

Magrur va takabbur, odam oldin boy bo'lsa xam, keyinchalik juda muxtojlikka tushib koladi. Chunki gurur, takabburlik insonni doimo isrofga chakiradi. Magrur odamlar o'zlarini xammadan yukori ko'rsatish uchun ilm, mexnatdan kochadilar. Shu sababli, zarurat va muxtojlik bosh ko'rsatadi. Muxtojlik va zarurat bilan barobar uyalish va xijolat chekish keladi. Xar narsa yetarli bo'lib, roxatda yashagan birovning ko'nglini magrur va takabbur odam muxtojlikka tushgan vaktida xech kimdan yordam va yaxshi muomula ko'rmaydi. Xatto bir vakt undan ko'ngli kolgan odam tomonidan yaxshi muomila ko'rsa, juda xam xijolat chekadi.

Yomon xulklardan yana bittasi maxtonchoklikdir. Masalan: bir bola xech bir rasm tushurishni bilmasa xam: "Men falon rassom kabi rasm chizaman, men chizgan rasmni uncha muncha rassom chiza olmaydi"- deb o'zini maktasa, u bolaga maxtonchok bola deyiladi. So'zning xulosasini aytganda, bir odam o'zida bo'lmagan sifatlar bilan maktansa, u odamni "maktonchok" deb chakiradilar. Odam o'z obrusini ma'nosiz so'zlar bilan ortira olmaydi. Maktonchoklar o'zlarini kulgiga koldiradilar, Xalq koshida beobro' bo'ladilar, maxtochoklik axmoklikning dalilidir.

Tavoze-o'zini kamtar tutishlikdir. Takabburlik, gurur, maxtonchoklik yomon xulk bo'lgani kabi, tovoze xammaga makbul bir xulk fazilatdir. Tovoze manmanlik va maxtonchoklikning aksidir. Tavoze odam o'zida bo'lgan avzallikni aslo tilga olmaydi, o'zini kamtar tutadi. Donishmandlardan biri tavoze xaqida shu go'zal so'zni aytadi:

-Afzallik, ortiklikni yukorilashtiradigan va uni yana xam porlok ko'rsatadigan tovozedir. Insonda biror afzallik bo'lsa, uni xar kim ko'radi, Afzallik o'z-o'zini ko'rsatuvchi bir nur kabidir. Tavoze uning atrofidagi doglarni ketkazadigan tozalaydigan bir fazilatdir".

Ota onalar o'z bolalari xaqida boshkalardan salbiy fikr eshitmaslik, bolalarida go'zal axloqli odamlarga nisbatan xavas, ularga o'xshashga intilish tuygusini tarbiyalash va o'stirishga, ularning odob- adab so'zlarining ma'nosini anglab olishlariga xarakat kilganlar .

Nazorat topshiriqlari.

1. O'tmishda ota-bobolarimiz tarbiyada kanday usullardan foydalangan?

A) Nasixat, tushuntirish, ragbatlantirish.

B) Maktash, na'muna kursatish, tanbex berish.

V) Ta'kiklash, majbur kilish, kurkitish.

- D) Barcha javoblar tugri.
2. Qanday usullar kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda muxim ahamiyatga ega?
- A) Yul- yurik kursatish,
 B) Tushintirish ,
 V) Jazolash,
 G) A va B javoblar tugri.

2-asosiy savol buyicha o`qituvchining maqsadi: Talabalaraning maktabda ukitiladigan fanlarda urf-odatlar Xalq ogzaki ijodining ahamiyati tugrisidagi bilim, tushuncha, malakalarni shakllantirish.

Identiv o`quv maqsadlari:

1. Maktabda ukitiladigan fanlarda urf-odatlarning ahamiyatini aytadilar.
2. Xalq ogzaki ijodining ahamiyatini tushintiradilar.

2-asosiy savolning bayoni:

Ma'lumki, odob har bir axvol va odatda aql buyurgan ravishda harakat qilish, ya'ni yaramas ishdan, yomon so'zdan nafsini tiyish, o'zining xam boshkalarining xam izzatlarini saqlab, obro'sini to'kmaslikdir. Adab inson kamolotining birlamchi omillaridan sanaladi. Badanimizning kuvvatlanishi uchun yeyish, ichishga muxtoj bo'lganimiz kabi, insonning akli xam odobga muxtojdir. Odobli bo'lmagan akl egasi kurol aslaxasiz baxodirga o'xshaydiki, u xech bir ish kila olmaydi, aksincha dushmanlarga maglub bo'ladi. Odob ziynati bilan ziynatlanmagan odam, dushmanlarini sevintiradi, do'stlarini esa kaygulantiradi. Ota -onalar suzining ma'nosini tushuntirishda bolalarini majlis odobi, til odobi, do'stlik odobi, kiyim kiyish odobi, choy ichish , ovkatlanish odobi, mulokot odobi xaqida, ta'lim berganlar:

“Majlisda biror odam gapirayotgan vaktida uning suzini yaxshilab tinglang, nutkni buzmag, sababsiz kulmag. Majlisda aytish mumkin bo'lmagan so'zlarni so'zlamag, majlisda bo'lganlarning xurmatini bajo keltiring.

O'zingizdan katta yoshli odamlar o'zaro so'zlashib turgan bo'lsalar, ularning so'zlariga aralashmag, sizdan biror narsa so'ragan vaklarida ochik va muloyim tovush bilan javob bering, bir so'zni ko'p marta qaytarmag”.

Ota bobolarimiz “Ogzingdan chikkan so'zni kuloging eshitsin”, - deb juda to'gri so'zlaganlar. Nima to'grisida so'zlashni istasang avval yaxshi tushunib, o'ylab, keyin so'zla. Til - kilichdan o'tkir, kilichdan yegan yara tuzaladi, ammo til yarasi tuzalmaydi. Shuning uchun tilni yaramas so'zlarni so'zlashdan saklash kerak.

Odamning shodlik va kayguli vaktlarida tayanchi shuxbasiz uning do'stlaridir. Shuning uchun yosh va bosh jixatdan o'zingizga mos keladigan kishilarni tanlab do'stlashing. Samimiy do'st bo'lingiz. Aziz bolalarim xar bir bilgan ko'rgan va o'rgangan narsamizni boshka kishiga so'zlashga xakli emasmiz, bir kishining aybini kamchiligini ko'rsak yoki eshitsak uni oshkor kilishga xakkimiz yo'kdir. O'z ayb va kamchiligimizning oshkor bo'lib, odamlar ogzida so'zlanib yurishini albatta istamaymiz. Shunday ekan o'zimiz istamagan narsani boshkalar uchun ravo ko'rsak yaxshimi? Do'stlarimizdan yoki tanish bilishlarimizdan bittasi o'z sirini bizga so'zlagan bo'lsa uni saklab ogzimizdan xech bir chikarmaslik va xech kimga bildirmaslik burchimizdir. Bir inson o'z kaygu alamin, ogir xolda kolganini yoki xato kilganini o'z do'stiga so'zlay oladi. Uning bunday maqsadi kaygusini biroz ketkazish, do'stining

shirin soʻzlari bilan oʻzini ovitish edi. Doʻsti uning soʻzlarini xammaga yoyib yuborsa u vaktda doʻstlikning kanday kimmati koladi?.Chin, samimiy doʻst, doʻstning kaygusiga kaygulanadi, shodligiga shodlanadi, doʻstining koʻnglini koʻtaradi. Doʻstimizning shodligi oʻz- shodligimiz kaygusi boʻlishi kerak, uning sirlarini xammaga yoysak, yonimizda bitta xam doʻstimiz kolmaydi.

Bolalarim, bir biringiz bilan chin samimiy doʻst boʻling, urishmang, talashmang, bir - biringizni siringizni saklang, xar kimga aytib yurmang. Bir donishmandning, “xar kim tilini tiysa”, tinch roxatda yashaydi, valdir-vassar bulsa, sir saklay olmasa, falokatga tushadi”- degan suzni unitmang. unda xam etibor va dikkat bilan kiyim kiyishga urining, kiyinishdan maksad - issik va sovukdan saklanish va odam koʻziga yaxshi koʻrinishdir.

Toza, tinik suv ichishga odatlanig, muz va kor suvlarini ichishdan saklaning. Xar kim bilan goʻzal muomilada boʻlib, tinch va totuvlik bilan yashang. Inson fakat jisimdangina iborat boʻlmasdan balki xayot fikriga xam egadir shuning uchun fikr tarbiyasi xamma uchun xam lozimdir.

Ota-bobolar kilgan bu oʻgitlarga amal kilgan bolalar odobli boʻlib, kamol topganlar. Goʻzal fazilatlariga ega boʻlgan bola ota-onaga, doʻstlariga umuman xammaga muruvatli boʻladi, axloq va poklikka rioya kiladi. Oʻtmish donishmandlari “insonning birinchi fazilati, boshkalarining xukukiga sharaf nomu va orzulariga xurmat va rioya etishdir”, deb oʻkitilganlar. Donishmandlar aytgan xikmatlarga amal kilgan ota-bobolar bolalarga murojat etib deydilarki: “Aziz bolalar, ota-onangizni xurmat kiling. Ota-onangizni xurmat kilishingiz ular sizning koshingizda doim muxtaram ekanliklaridan dalolat beradi. Ota-onangizga fakat yoshlari sizlardan katta boʻlganlari uchungina emas, balki chakoloklik vaktingizdan to yigitlik vaktingizgacha sizlarni tarbiyalab, maktabga yuborganlar va xar narsangizga dikkat fido etganlari uchun xurmat kilishga majbursiz.

Umringizning xar kuni xar soatida sizlarga kilgan xizmatlarini esingizga tushiring. Ota-onaga xurmat butun umringiz boʻyicha eng baxtli, shodlik yoki kaygulik vaktlaringizda xam davom etishi lozim, ularga ochik yuz shirin soʻz muloyimlik bilan soʻzlang, sizlarga kilgan yaxshilik va fidokorliklarini aslo unitmang. Baʼzi vakt karilik ularning kayfiyatlarini buzadi, shunday vaktlarda ularni oviting koʻnglini koʻtaring. Ularning buyurgan xizmatlarini boʻyin tovlamay ado eting”. Islom dini taʼlimoti boʻyicha .”Quron”dan keyin turadigan ikkinchi mukaddas kitobi hisoblangan “Xadis”da va Ismoil Buxoriyning “Al-adab al-mufrat”(Adab durdonalari) xadisida ota onani rozi kilish xakkini ado etish sevgi doʻstlik nasilga meros boʻlib oʻtishi raxm-shavkatli boʻlish, qoʻshnini yakin tutib undan yaxshilikni ayamaslik yetimparvarlik shu bilan bir katorda, razolat kibr-xavo xiyonat kabi illatlar koralanadi.

Oʻtmishda ragbatlantirish usuli bola, yoshlar kilgan ishini xulk atvorini makullash maqtash tabriklash shaklida qoʻllanilgan.

Bolanig yaxshi xatti xarakatini xulkini makullash, unga ijobiy taʼsir etadi, unda kelgusida yana goʻzal ishlar kilishga oʻz qobiliyati va bajargan yaxshi ishlaridan faxirlanish tuygusini oʻstirishga xizmat kiladi.

Taqdirlash usuli bolaning qilgan ishidan mamnunlik foydasi boʻlgan . Barakalla, raxmat bolam omon boʻl deyish, yoqimli kulish, boshini silash, peshonasidan oʻpish shaklida amalga oshiriladi.

Tanbex usuli kichik yoshdagi bolalarga nisbatan o'rtoklari bilan qo'pol muomilada bo'lgan topshiriqlarni bajarmagan yoki yomon bajargan qiz bolani noo'rin ranjitgan o'gil bolaga nisbatan qo'llaniladi.

Bola noo'rin qilgan xatti-xarakatini tezkor takrorlaganda yoki o'ziga topshirilgan ishni bajarmaganda ogoxlantirish usulidan foydalaniladi. Rizosizlik usuli jazolanishning yuqori bosqichi hisoblangan, rizosizlik bola ruxiyatiga kuchli ta'sir etgan unda ruxiy tushkunlik yuz bergan. Shu sababli bu usul Xalq pedpgogikkasida kam qo'llanilgan. Ota va ona ayniqsa ona o'gli yoki qizi tomonidan yomon xati xarakat sodir bo'lganda rizosizlik bildirilgan.

O'zbek Xalq pedagogikasida man etish buyruk berish usullari uyatli iboralar aytgan, so'kingan giyoxvandlik, qimor o'ynash kabi inson sha'niga dog tushuruvchi ishlarga berilgan o'smirlarga nisbatan qo'llanilgan.

Xalq pedagogikasida keng o'rin olgan sinash usuli bolaning odamlar va o'rtoqlari bilan mulokatda, jamoat o'rtasida mexnat munosabatlarida axloq qoidalariga rioya etishni kuzatishda qo'llanilgan, bu xaqida maqollar xam ijod etilgan.

Kechirish va oliy xikmatlilik usuli bolalar faoliyatida kamchilik sodir bo'lganda qo'llangan. Ota-ona va muallim bunday vaqtda ularning kamchiliklarini kechirgani bunday ishlarga yo'l qo'ymaslik uchun yordam berishni o'zlarini vazifalari deb bilganlar. Darxaqiqat kechirish oliyjanoblik yaxshi xulqli ota ona va ustozlarga munosib bir sifatdir. "Kichiklardan adashish, kattalardan kechirish", - deb to'g'ri aytilgan.

Nazorat topshiriqlari.

1. O'tmishda ota-bobolarimiz tarbiyada kandy usullardan foydalangan?
 - A) Nasixat, tushuntirish, ragbatlantirish.
 - B) Maktash, na'muna kursatish, tanbex berish.
 - V) Ta'kiklash, majbur kilish, kurkitish.
 - D) Barcha javoblar tugri.
2. Qanday usullar kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda muxim axamiyatga ega?
 - A) Yul- yurik kursatish,
 - B) Tushintirish ,
 - V) Jazolash,
 - G) A va B javoblar tugri.

5—MAVZU: TA'LIMDA XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH ma`ruza mashg'ulotning texnologik xaritasi

Tvr bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1-bosqich	Dars maqsadi: Uzbek Xalqining asrlar davomida xalq pedagogikasiga bo'lgan munosabatini va yosh avlodni hayotga, mexnatga, kasb-xunar egalashga bulgan munosabatlarini yetkazib, uning mazmuni va moxiyatini talabalarga tushintirish. Identiv maqsadlar: 1.1 Uzbek Xalqining asrlar davomida xalq pedagogikasiga bulgan munosabati xaqida gapiradilar. 1.2 Xalqimiz kullagan usul va vositalarni bir-biriga	O'qituvchi

	solishtiradilar.	
2-bosqich	Asosiy tushunchalar: Xalq pedagogikasi, inson, mexnat tarbiyasi, mexnatsevarlik, ota-ona, axloqiy tarbiya, urf-odat, odob va x.k. Dars shakli: guruxda ishlash. Vositalar: proektr, kompyutr. Metod va usullar: amaliy mashg'ulot, ko'rsatish, tushuntirish.	O'qituvchi
3-bosqich	Guruhda ishlash. 1. Xalq pedagogikasida mexnat tarbiyasining urni va vazifasi. 2. Utmishda Xalqimizning ma'naviy axloqiy madaniyatiga bulgan munosabati.	Talaba
4-bosqich	Mustahkamlash va boholash uchun savollar: Nazorat topshiriqlari. 1.1. Daraxt yaprogi bilan kurkam, odam bilan. A) Axloqi bilan B) Mexnati bilan V) Xurmati bilan G) yaxshiligi bilan 1.1. Bolalarda mexnat kilish zarurligiga ishonch xosil kilishda, ularni mexnatga ruxan tayyorlashda kimlar kuprok uz xissasini kushgan? A) Onalar B) Amakilar V) Ota-onalar G) Ota-bobolar	O'qituvchi-talaba
5-bosqich	Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsadga erishildi. Vazifalar bajarildi. Mustaqil ish topshiriqlari qilib ,talabalarga adabiyotlarni taxlil	O'qituvchi

Asosiy savollar.

1. Ta'limda xalq pedagogikasining o'ni va vazifasi.
2. O'tmishda Xalqimizning ma'naviy axloqiy madaniyatiga bulgan munosabati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Xalq pedagogikasi, inson, mexnatsevarlik, ota-ona, axloqiy tarbiya, urf-odat, odob va x.k.

1-asosiy masala buyicha ukituvchining maqsadi: Uzbek Xalqining asrlar davomida xalq pedagogikasiga bulgan munosabatini va yosh avlodni hayotga, mexnatga, kasb-xunar egalashga bulgan munosabatlarini yetkazib, uning mazmuni va moxiyatini talabalarga tushintirish.

Identiv o'quv maqsadlari

- 1.1 O'zbek xalqining asrlar davomida xalq pedagogikasig bo'lgan munosabati haqida gapiradilar.
- 1.2 Xalqimiz qo'llagan usul va vositalarni bir-biriga solishtiradilar.

1-asosiy savolning bayoni:

Maktab ta'limida o'kuvchilar o'zbek xalq pedagogikasi an'analari xaqida to'lik tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Bunga tabiiyki maktabda barcha fanlarni o'rganishda

xalq pedagogikasi an'analaridan foydalanish orqali erishiladi. Fanlarni o'qitishda ularning mazmuni xususiyati vazifasi xisobga olgan holda axloq, nafosat, baynamillik, insonparvarlik, vatanparvarlikka doir inson va o'simlik va xayvonot olami haqidagi an'analardan foydalaniladi.

Maktabda o'qitiladigan ayrim fanlar mazmunida xalq an'analari urf odatlari mavjud. Masalan ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda o'rganilayotgan mavzu xususiyatlariga qarab, xalq ogzaki ijodidin ertak dostonlarda yozuvchilarning asarlarida aks ettirilgan xalq urf odatlari an'analari ustida so'z boradi. Ularda tasvirlangan lavxalar mazmuni so'zlatiladi. O'quvchilar o'zlari bilgan eshitgan urf odatlarni aytib beradilar. Tibbiyot zoologiya darslarida o'simlik, xayvonot olamiga, inson xayotiga doir urf - odat an'analardan foydalaniladi. Tarix fanini o'qitishda o'qituvchi o'zbek xalqining xar bir ijtimoiy tuzim davridagi madaniyati san'ati haqida ma'lumot berar ekan, ularni o'quvchilarning puxta o'zlashtirib, olishlari uchun maktab muzeida to'plangan adabiyotlar ta'sviriy san'at me'morchilik, kulolchilik, xattotlik kabi san'at namunalari yodgorliklarni namoyish etadi. Ularda o'zbek xalqiga mos sanatkorlikning qadimiyligini xikoya qiladi. Mexnat darsida o'qituvchi mexnat go'zalligi inson yasagan xar bir yaxshi buyum narsada aks etishi haqida so'zlab, tikilgan eng yaxshi ko'ylak, dastro'mol yasalgan kursini ko'rsatib, ularda inson mexnatining go'zalligi namoyon ekanligini aytib o'quvchilarda go'zallik yaratish tuygusini tarbiyalaydi.

Musiq va qo'shiq darslarida magnitafon gramm plastinkalarda yozilgan, qadimgi xalq qo'shiqlari o'quvchilarga eshittiriladi. Qadimiy musiq asboblari, ko'rsatiladi. Jismoniy tarbiya darslarida, o'quvchilar an'ana sifatida davom etayotgan xalq o'yinlarini ijro etadilar.

Nazorat topshiriqlari

1. Islom dini ta'limotida "Kur'on" dan keyin turadigan mukaddas kitob kaysi javobda tugri kursatilgan?

- A) Imom Ismoil al-Buxoriy "Xadislari",
- B) Maxmud Koshgari "Devoni lugati turk",
- V) Yusuf Xos Xojib "Kutadgu bilik",
- G) Alisher Navoiy "Muxokamat ul lugatayin".

2. Maktabda ukitiladigan ayrim fanlar mazmunida Xalq an'analari, urf-odatlari mavjud.

Ular kaysi fanlar xisoblanadi?

- A) Ona tili, adabiyot, jismoniy tarbiya.
- B) Tarix, ona tili, adabiyot, zoologiya.
- V) matematika, mexnat, ona tili
- D) Tugri javob kursatilmagan

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1. "Kobusnoma", T. "Ukituvchi", 1994 y.
- 2. Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. 1-5 kitoblar. T. 1992 y.
- 3. Xadislari. 1-6- kitoblar. T. 1996 y.
- 4. Movlonova. R va boshkalar "Pedagogika" T. 1996 y.

**6—MAVZU: XALQ PEDAGOGIKASIDA MEHNAT VA AXLOQIY TARBIYA
ma`ruza mashg'ulotning texnologik xaritasi**

T'r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1-bosqich	Dars maqsadi: Uzbek Xalqining asrlar davomida mehnatga va mehnat tarbiyasiga bulgan munosabatini va yosh avlodni hayotga, mehnatga, kasb-xunar egalashga bulgan munosabatlarini yetkazib, uning mazmuni va mohiyatini talabalarga tushintirish. Identiv maqsadlar: 1.3 Uzbek Xalqining asrlar davomida mehnatga bulgan munosabati xaqida gapiradilar. 1.4 Xalqimiz kullagan usul va vositalarni bir-biriga solishtiradilar.	<i>O'qituvchi</i>
2-bosqich	Asosiy tushunchalar: Mehnat, Xalq pedagogikasi, inson, mehnat tarbiyasi, mehnatsevarlik, ota-ona, axloqiy tarbiya, urf-odat, odob va x.k. Dars shakli: guruxda ishlash. Vositalar: proektr, kompyutr. Metod va usullar: amaliy mashg'ulot, ko'rsatish, tushuntirish.	<i>O'qituvchi</i>
3-bosqich	Guruhda ishlash. 1. Xalq pedagogikasida mehnat tarbiyasining urni va vazifasi. 2. Utmishda Xalqimizning ma'naviy axloqiy madaniyatiga bulgan munosabati.	Talaba
4-bosqich	Mustahkamlash va boholaash uchun savollar: Nazorat topshiriklari. 1.1. Daraxt yaprogi bilan kurkam, odam bilan. A) Axloqi bilan B) Mehnati bilan V) Xurmati bilan G) yaxshiligi bilan 1.2. Bolalarda mehnat kilish zarurligiga ishonch xosil kilishda, ularni mehnatga ruxan tayyorlashda kimlar kuprok uz xissasini kushgan? A) Onalar B) Amakilar V) Ota-onalar G) Ota-bobolar	<i>O'qituvchi-talaba</i>
5-bosqich	Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsadga erishildi. Vazifalar bajarildi. Mustaqil ish topshiriqlari qilib ,talabalarga adabiyotlarni	<i>O'qituvchi</i>

Asosiy savollar.

1. Xalq pedagogikasida mehnat tarbiyasining o`rni va vazifasi.
2. O`tmishda Xalqimizning ma'naviy axloqiy madaniyatiga bulgan munosabati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Mexnat, Xalq pedagogikasi, inson, mexnat tarbiyasi, mexnatsevarlik, ota-ona, axloqiy tarbiya, urf-odat, odob va x.k.

1-asosiy masala buyicha ukituvchining maqsadi: Uzbek Xalqining asrlar davomida mexnatga va mexnat tarbiyasiga bulgan munosabatini va yosh avlodni hayotga, mexnatga, kasb-xunar egalashga bulgan munosabatlarni yetkazib, uning mazmuni va moxiyatini talabalarga tushintirish.

Identiv o'quv maqsadlari

- 1.3 O'zbek xalqining asrlar davomida mehnatga bo'lgan munosabati haqida gapiradilar.
- 1.4 Xalqimiz qo'llagan usul va vositalarni bir-biriga solishtiradilar.

1-asosiy savolning bayoni:

O'zbek xalqi asrlar davomida yosh avlodni mustaqil hayotga tarbiyalashga aloxida etibor beradi. U o'z xayotida turmush kechirish uchun ishlab chikarish vositalarini yaratish zarurligini turmushda o'z talabini qodirish uchun mexnat kilish kerakligini angladi. Mexnatning moxiyatini shu ma'noda anglash qadimgi jamiyatga xos asosiy xususiyat bo'ladi, Davr o'tishi ijtimoiy siyosiy hayotga o'zgarishlar natijasida aqliy mexnat tarbiyasi jismoniy mexnat tarbiyasidan ajraladi. Natijada mexnat va mexnat tarbiyasiga munosabat xam o'zgaradi, bolalarni turli jismoniy mexnatga tarbiyalash birinchi o'ringa qo'yildi.

Inson va jamiyatning yashashi barqarorligi uchun mexnat qilish mexnatni sevishtirish –kishi kamolotining me'eri bo'ladi, bu goya Xalq yaratgan «Mexnat farogat chirogi», «Ish insonning gavxari», «Daraxt yaprogi bilan ko'rkam, Odam mexnati bilan», «Odamni mexnat bezaydi», «Mehnat xurmatning toji», «Yer xazina, mexnat kaliti», «Yigit xusni mexnatda», kabi maqollarda o'z ifodasini topdi.

Mehnat insonni uch balodan: yurak siqilishi, axloqiy buzulishdan, muxtojlikdan saqlaydi. mexnat qilmaanlarga mexnatni sevmaganlarga boshqalar mexnatini tatimoqchi bo'lganlarga salbiy munosabatlarni: «Bekorchidan xudo bezor», «Tekinxo'rga shavqat yo'q», «Baxt yalqovga begona», kabi maqollaridan,. Yalqov, ishyoqmaslar ikki farzand orttiradilar :zorlik , badbaxtlik,. mexnatni sevmagan yalqov kishi xar turli noqobil ishlardan tortinmaydi, kabi xikmatlarda ifodalaydi.

Xalq mexnat xaqidagi o'y fikirlarni, mexnatsevarlik fazilatlarini ijod etgan qo'shiqlarida xam ifodalyadi. Buni biz Maxmu Koshgariyning «Devoni Lugati turk», asarida keltirilgan qo'shiqlar na'munasida ko'ramiz. Bu asarda mexnat qo'shiqlarida ibtidoiy jamoa a'zolarining ovchilik, chorvachilik, bogdorchilik va dexqonchilik xayoti mexnat jarayoni, jamoadagi an'analar, qabila a'zolarining birgalikdagi mexnati aks ettirilgan, Masalan ov xaqidagi qo'shiqlarda qadimgi kishilarning ovchilik san'ati ov mexnatiga bo'lgan muxabbati shunday tasvirlanadi

Chagri berib qushlatur

Taygon izib tishlatur

Tilki to'ngiz toshlatur

Ardam bila o'kladim.

Mazmuni: (yigitlarga) chargi (ov qushi) berib qush ovlaylik, ov itini (qushlarning izidan solib tishlamaylik, tulki to'ngizni bilan uraylik yutuqlarimiz bilan maqtanaylik.,

Har bir odam fakat o'zi uchun emas, balki kelgusi avlod uchun yashashi kerak xalqning xalol mexnat xaqidagi bu goyalari xarakating «Erta bo'lsa, kuzda erta o'rasan»,

«Mexnatingni xalol qilsang xuzurini ko'rasan», kabi makol va mushkulliklardan xayot emas faqat tadbir va mexnat o'tkazadi. Baxtli bo'lish uchun, mexnatni sevish va roxatni mexnatda ko'rishdir singari xikmatlarda ifodalangan.

Xalqning mexnatsevarligi, yoshlarni tarbiyalash va o'stirishda ularda mexnatga qiziqish, tuygusini tarbiyalashdan otalar izidan borib, turli kasb egalari bo'lib yetushuvlarida, dexqonchilik, cho'ponchilik, duradgorlik, bogdorchilik kabi kasblarning bo'lishlari muxim axamiyat kasb etadi. Kasb egalari bo'lgan otalar, o'z farzandlarini amaliy mexnatga tayyorlashni ularga mexnat malakasini va turli xil ishlarni bajarish qobiliyatini shakillantirish va kamol toptirishda ularni mustaqil hayotga tayyorlashni o'zlarining otalik burchlari deb bilganlar. Ular mexnat tarbiyasi jarayonida xayot kechirish uchun mexnat qilish zarurligini yoshligidan bolalarga uqtirganlar, bolalari bilan o'tkazilgan suxbat va mulokatlarda mexnat mavzui birinchi o'rinda turgan. Bobolarimiz. «Mexnat» gayrat fazilatining qo'riqchisidir, deganlar chindan xam shunday. Nomus fazilat va ulug'lik ko'z qorachigi kabi qimmatli xazinadir. Bu xazina faqat matognat soyasida qo'lga kiritiladi. Xamma odamlar, xayvonlar, parrandalar doimo gayrat va xarakat qiladilar tek turmaydilar.

Dunyoda butun xayot xarakat tufayli barqaror bo'ladi.

Xikoyat: bir badavlat kishini ishyoqmas, yalqov o'gli bor edi. Bu bola shunday deb o'ylar edi. -Menga gayrat qilmoq nimaga kerak. Otam menga meros etib, juda ko'p pul mol mulk qoldiradi, otam tirik vaqtida ishlamasdan o'ynab kulib mazza qilib, yuraversam bo'lmaydimi. Men gayrat qilmasam xam roxatda yashay olaman.

Lekin bu bola aldangandi, chunki ota onasi vafot etganlaridan keyin ulardan meros bo'lib qolgan boylikni saqlashga uquvi yo'q edi. Shu sababli xech ishlamay, kayfi safo kilib, yuraverdi ishdan bo'yin tovladi. Ko'p vaqt utmay ota-onadan qolgan boylikni tamom bitiradi. Necha kunlar och noxor qoldi.

Unitmang, bolalarim yalqovlik , gayratsizlik natijasi shunday bo'ladi. Xalq turli xil ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun fakat mexnat qilish, malakasini egallash kifoya qilmasligini xam bilgan, shuning uchun xam xar bir bolaning mexnatga chin ko'ngil bilan munosabatda bo'lishiga topshiriqlarni sifatli bajarishiga mexnatda qat'iyatli va sabrli bo'lishiga, bu xususiyatlarni egallash bolalar uchun asosiy qonun bo'lib qolishiga, etibor bergan, bu xususiyatlar moxiyatini bolalar ongiga singdirishda otalar o'zlari ijod etgan.

Seni ish yengmasin

Sen ishni yeng

Yoshlikda o'rgan xunar

O'zinga o'ljaga qolar

Qunt bilan o'rgan xunar

Xunardan rizqing unar.

Sendan xarakat mendan barakaat.

Kabi maqollarni ijod etganlar, shu bilan birga ular ...intilish va amal insonga fayz kamol baxsh etadi, ulug darajaga yetazkadi. Xar bir ish gayrat va jasoratsiz bo'lmaydi ammo juda ishlatilmagan gayrat va jasoratdan ma'no yo'q kabi xikmatlardan foydalanilgan.

Mexnat jarayonida bolalarda extiyotkorlik odati xam tarbiyalanadi. Ma'lumki, mexnat axli mexnat bilan topilgan boylikni isrof qilmaydi, tejamkor bo'ladi, xalqimiz ayniqsa nonni e'zozlagan, xatto non ushogini yerda yotishini uvol xisoblab, uni biror pana joyga olib qo'ymaslikni gunox deb bilgan, nonni peshonasiga surtib, kasam ichgan, bu xaqida «Non xam non, uvogi xam non», «Qo'ynida noni borning qorni to'q», «Tejoglik ro'zgor, bejoglik qo'girchoq « ga o'xshash maqollar yaratilgan. O'tmishda tejamkorlik tushunchasi bilan, urf-odatlar uzviy birlikni tashkil etgan. Xalq nonga va uni bunyod etuvchi mexnat axliga nisbatan aloxida axamiyat berilgan. Xalq pedagogikasida mexnat intizomi tarbiyasiga xam axamiyat berilgan. Shaxsiy ayniqsa, jamoat ishini o'z vaqtida sitqi dildan ado etish mexnat intizomining asosi bo'lgan.

Mexnat tarbiyasida mustaqillik va mexnatga ijodiy yondoshish ko'nikmasini rivojlantirish borvasida xunar o'rganishga qiziqish o'stirish xam muxim masala hisoblangan. Mexnatning samarali bo'lishi uchun tashabbuskor bo'lish buyruq va ko'rsatmani kutmay, ishga jiddiy mustaqil yondoshish va bajarish zarurligi bolaga tushuntirilgan. Bola ko'rsatgan tashabbusni kattalar maqullashdi ota bolasidan minnaddor bo'ldi. Xalq pedagogikasida bolada ko'pchilik bilan birgalikda ishlash kasbga xavas xissini tarbiyalashga e'tibor berildi. Turli kasb egasi bo'lgan otalar bilim va tajribalarini bolalariga qunt bilan o'rgatdilar, ularni ma'lum soxada ijodkor kasbkor kishi bo'lib yetishishga buning uchun tortinmay ustozdan o'rganishga davat etadilar. Bu ishda bilim va xunarni egallash tashviq etilgan.

Ota kasbi-davlat kasbi
Qunt bilan o'rgan xunar
Xunardan rizqing unar
Usta ko'rmagan shogird
Xar maqomga yo'rgalar
Bilimli kishi o'zar
Bilimsiz kishi to'zar.

Kabi xalq maqollari ular uchun asosiy vosita bo'lib xizmat kildi. Xalq insonning salomatligi jismoniy baquvvat bo'lishi va chiniqishda mexnat muxim omil ekanligini angladi, buni o'z tajribasida ko'rdi, tarbiyada bu tushunchani bolalar ongiga xam singdirishga xarakat qiladi. Bunda u ...Temirni qizigida ur...afarizmi, ... Temirchining qo'lida temir erib suv bo'lar...maqoliga asoslanadi, dexqonchilik chorvachilik xunarmandchilik bilim va xunarga doir..

Ketmon chopdim non tishladim
Ketmon chopmoq olmoq solmoq
Qo'sh xaydamoq bormoq kelmoq
Uroq o'rmoq-o'ynamoq
Xay xay ishning ogiri
Xamir qilmoq non yopmoq
Oz-ozdan o'rganib dono bo'lur
Qatradan ko'payib daryo bo'lur.

Kabi xalq maqollari xikmatlari tarbiyada qimmatli manba bo'ladi. O'zbek xalqi asirlar davomida dexqonchilik, bogdorchilik ipakchilik tikuvchilik temirchilik

kasbi bilan shuxrat qozonib bormoqda. U shu kasbikori bilan bola tarbiyasida xam aloxida o'rin tutadi. Ma'lumki musulmon olamida yaxshi odamlar xayoti davomida ko'proq savob ishlar qilsam degan o'y orzu bilan yashagan. Bu orzularni birovga yaxshilik qilish, ariq qazish suuv chitqarish yo'l qurish nixol ekish yo'llari bilan oshirgan. Bu ishlarning sababi katta ekrandagi odamlarning qon qoniga singib ketgan odat bo'lgan.

Xalqning mexnat axliga ijobiy munosabatda ertaklarda xam o'z ifodasini topgan, ertaklarda yaratilgan obrozlari aqil jasorat mexnatsevarlik xalqqa ota bobolarga sadoqatlik fazilatlariga ega bo'lgan mexnat axlining timsoli sifatida tasvirlangan. ...Egri va to'g'ri..., ertagida tasvirlanishicha podsho asar qaxramoni To'g'riboydan.....Endi sizni qaysi shaxarga xokim qilay?-deb so'raganda u menga xokimlik kerak emas, o'rmon etagida byuir tog ustida o'y solib bersangiz bas, men o'z mexnatim bilan kun ko'raman- deb javob bergan.

O'tmishda otalar bola yoshlikdan mexnatga o'rgatilmasa unda mexnatga qiziqish o'rgatilmasa katta bo'lganida mustakil xayot kechira olmaydi. Ular bolalarni o'shlikdan turli ishlarga jalb qilishda mexnatning faqat moddiy jixati emas balki tarbiyaviy axamiyati xam xisobga olinganlar. Ota onalar jinsiy xissiyotiga qarab bolalarga topshiriq berishni mexnat tarbiyasida asosiy qoida deb bilganlar. Qizlar uy ishlarini boshqarishga, o'gil bolalar ro'zgorda ogir ishlarni bajarishga ota onalariga ko'maklashgan. Bolani yoshligidan mexnatga ko'niktirish zarurligi xaqida o'tmish zamindosh bobolarimiz qimmatli fikr bildirganlar. Ularning fikricha bola tarbiyasida ota onaning eng katta qiladigan va etiborga oladigan narsasi u bolani yoshligidan boshlab bir ishga o'rgatish kichik vaqtidayoq unga bir yumush berib ishga odatlantirish. Tili ochilib u yura boshlagandan biror ish berish lozim. Unga beriladigan bu ish axamtiyatsiz xatto ish degan nomga noloq bo'lsa xam undan keladigan foyda zo'rdir. Chunki unday ishlar bolada ishini sevis va ishga berilish sevgisini qo'zgatadi. Tabiiyki bu malakalar birdan xosil bo'lmaydi asta sekin yuzaga keladi. Lekin zamini juda yoshlik paytidan qo'yish kerak. Bolada mexnat malakasi vujudga kelsa u ota onasi kattalarning ko'rsatib turishini kutib o'tirmay o'zi eplab ketaveradi, dunyoda yashash xar kimning o'z gayrati av etiqodiga bogliq ekanin anglaydi. Ishga o'rgatish diqqat qiliidigan yana bir narsa xar ishini o'z vaqtida bajarishdir. Ishga odatlanish qancha muxim bo'lsa ishini o'z vaqtida bajarishdir. Ishga odatlanish ancha muxim bo'lsa ishini o'z vaqtida bajarish shu darajada muxim balki undan xam muximroqdir. Xar ishini o'z vaqtida ishlamay kechiktirish ko'p ishlarning yigilib yuzaki sifatsiz ishlanishiga yoki butunlay qolib ketishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun xar bir ishini o'z vaktida gayrat va matonat bilan bajarish lozim.

O'tmishda bolalarni mexnat topshiriqlarini bajarishga uzluksiz jalb etib chiniqtirish mexnat tarbiyasida tan olgan muxim qoida bo'ldi, ko'rsatgan yaxshi tashabbuslari uchun bolalarni ragbatlantirish ularning mexnatda faol ishtirok etishlarida intizomli va ishga to'g'ri va ongli munosabatda bo'lishlarida, mexnat jarayonida yuz bergan qiyinchiliklarni sabr toqat, chidam bilan yengishlarida muxim rol o'ynaydi.

Mexnat tarbiyasida bolalarda mustaqillik qobiliyatini rivojlantirishga kattalarning raxbarlik qilishi zaruriy qoida xisoblanadi. Bunda raxbarlik qiluvchi, kishilarning o'zlari mexnat qoidalariga amal qiladilar va tarbiya usullarini egallab bolalarga vazifalarni to'g'ri taqsimlab, uning bajarilishini nazorat qilib, boradi. Xalq pedagogikasida bolalarni o'z o'ziga xizmat qilishga o'rgatish xam mexnat tarbiyasi xisoblanadi, ular yoshlikdan o'z o'zlariga xizmat qilishga o'rgatiladi. Katta yoshdagi o'gil va qizlar ota-onalari bilmagan vaqtda uyda bajarish lozim bo'lgan barcha ishlarni jumladan ukalarini

tarbiyalash va parvarish qilish bilan boglik bo'lgan ishlarni mukstaqil ado etadilar.

O'tmishda mexnat tarbiyasidan turli usul va vositalarni qo'llash orqali bolalar mexnatga ruxan va amaliy jixatdan tayyorlangan. Xalq bu shlarni amalga oshirishda vosita sifatida o'yin va marosimlardan, ogzaki ijodning mexnat mavzuidagi asarlarida moxirona foydalanadi. Badiy so'z vositasida bolalar ruxiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Ularning bu tadbiri bolalarning axloqiy ruxiy jixatdan mexnatga tayyorlashda muxim axamiyatga ega. Masalan, «Zumrad va Qimmat», ertagini olib ko'raylik. Ertakning asosiy qaxramoni Zumradni odamlar xam barcha mavjudodlar xam sevadi. Xatto sexirgar kampir xam uni sevib qoladi. Chunki, Zumrad kampirning uyini supirib - sidirib oynalarni artib qo'yadi. Zumradning ishlaridan kampir qukvonadi va unga qimmatbaxo boylik xadiya etib uyga ketishiga ruxsat beradi. Zumrad o'zinnig mexnatsevarligi, odobliligi bilan boylikka xam ega bo'ladi otasini xam quvontiradi. O'tmishda otalar «Zumrad va Qimmat», kabi ertaklarni aytib berish orqali bolalarda mexnatga muxabbat tuygusini tarbiyalab, rivojlantirganlar. Bolalarda mexnat qilish zarurligiga ishonch xosil qilishda, ularni mexnatga ruxan tayyorlashda bobolar maqol, topishmoq va ertaklar bilan bir qatorda, da'vat qilish, undash, amalda ko'rsatish usullarini xam qo'llaganlar. Ota bobolar bu usullar bilan bolalarda inson xayotida mexnatning o'rni, axamiyati xaqida tushungcha xosil qilganlar. Quyida bobolar aytgan nasixatlardan misollar keltiramiz .»Juda xam yaxshi ko'ngilli olim odam bor ekan. Doim yana xam yaxshilikka va yuqori malamotga ega bo'lish uchun gayrat qilar ekan bu olim odam xar kuni kechasi uyquda yotishdan oldin, butun qilgan ishlarin ko'z oldidan o'tkazib o'z o'zidan bugun yaxshi ish qildimmi, yangi narsa o'rgandimmi-deb so'rar ekan. Agar foydali, yaxshi bir ish qilgan bo'lsa, bugungi kunim bekor ketmabdi,-deb juda sevinar ekan, agar shu kuni xech bir yaxshilik qilmagani yangi bir narsa o'rganmaganini bilsa, ko'ziga uyqu kelmas ekan. Ertasi kuni qo'lidan kelgancha yaxshilik qilishga, yangi bir narsa o'rganishga gayrat qilar ekan. Bolalarim u xikoyani sira xam unitmaylik. Biz o'sha olim odam kabi xarakat qilaylik. Biz xam xar kuni kechqurun o'tgan kuniimiznig xisobini o'z o'zimizdan so'raylik. Shunday qilsak yaxshilik qilishimiz, olgan ma'lumotimiz yuksak darajaga boradi. Odamlar xar qancha ma'lumotli bo'lsalar, xar qancha yaxshilik qilsalar o'shancha baxtiyor bo'ladilar. Buni unitmang bolalarim.

Endi bu ikki og'iz so'zimni esda tuting:

1. Inson bir ishga kirishidan oldin bu ishning oqibatini yaxshilab o'ylashi kerak. O'ylamasdan ishga kirishgan kishilar ishdan foyda ko'ra olmaydilar.

2. Inson ertaga nima ish qilishini kechqurun o'ylab biror qarorga kelishi, ya'ni men ertaga avval shu ishni qilaman, uni tamom qilganimdan keyin yana bir ishga kirishaman,-deb xar ish uchun bir vaqt tayin qilishi kerak. Yuqorida keltirilgan xikoyadan ko'rinib turibdiki, unda olimning kunda qilgan ishini bajarish tartibi, o'z ishiga nisbatan talabchanligi ifodalangan. Xikoyani xikoya qiluvchi ota bolalarni bajaradigan ishlarinig odamlar uchun keltiradigan foydaliligini o'ylab ko'rishga olim kabi izlanuvchan chidam bilan yaxshi bajaradigan ishining o'zi va boshqalarning quvontiradigan bo'lishiga etibor berishga da'vat etadi. Qadim zamonda bir podsho bor edi. Bir usta zargarga mening barmogimga loyiq qimmatbaxo bir uzuk yasab keltir-deb buyuradi. Usta zargar Lal va yoqutdan bir pokiza, qimmatbaxo uzuk yasab keltiradi. Podshoh uzukning qoshini teskari qilib barmogiga taqadi. Achchchiqlanib ustaga bir necha qamchi urdi.

-Mening nima aybim bor, nega qamchilatdingiz-dedi ustta bechora yiglab,

-sen uzukni yanglish yasabsan. Shuning uchun jazo berdim.

-Bu ishda mening aybim yo'q, ayb o'zingizda uzukni barmogingizga teskari solgansiz.

-Podsho uzukni barmogiga to'g'ri taqtida senga bekorga jazo bergan ekanman, rozi bo'l deb ustaga in'om exson qildi.

Turmushda ana shunday dono kishilar xam uchrab turadi.

Ey farzand aqilli, farosatli va ilm xunarli kishilar bilan do'st bo'l, xunarsiz kishida xosiyat bo'lmaydi. Bu nasixat xikoyatda ota o'z farzandiga ilmu xunarli kishilardan o'rganib xunarda kamol topishini uqtiradi, podshoxning noo'rin xati-xarakati orqali xayotda u kabi xunarsizlar xam borligi va ular tufayli ko'ngilsizlar bo'lishi mumkunligi aytib o'tiladi. Xalq pedagogikasida mexnat qilish inson xayoti uchun zarurligini bolalarning chuqur xis qilishlarida «Navro'z», «Yangi yil» va boshqa bayramlarni kutib olishga tayyorgarlik, katta ishni ko'pchilik bo'lib amalga oshirish xashar muxim vositalardan bo'lib hisoblangan. O'zbek xalqining asrlar osha davom etgan xashar an'anasi bunyod etilgan katta Fargona daryosi kishilar, yoshlarning jismoniy va ma'naviy kamolotida muxim voqea birlikda qilingan mexnatning yorqin samarasi bo'ldi. O'tmishda yaxshi va na'munali ishlar uchun bolalarni ragbatlantirish usuli xam mexnat tarbiyasida yaxshi tarbiya beradi. Bu usul na'munali ishlar qilgan bolalarga nisbatan qo'llaniladi. Mexnat tarbiyasida jazolash usuli mexnat qilishni istamagan, topshiriqni bajarmayotgan bolalarga nisbatan qo'ldaniladi va unga berilgan va'dani bekor qilish topshiriqni bajvarishga, uni qayta ishlashga majbur etish shakillarida bo'ladi. Mexnat tarbiyasida ota bobolar qo'llagan ibratli usullar ularning boy tajribasi xozirgi davrda xam maktablarda qo'llanib, ijodiy rivojlanmoqda. Chunki, mexnat – insongiyat xayotining, uning o'sib, kamol topishi va nafosatli bo'lishi moddiy va ma'naviy boyligining asosiy manbayidir. Inson mexnatining asosiy xususiyatlaridan biri uning fikr yuritish, ijod qilishga moyil va qodirligidir. Inson buyum-narsa yaratar ekan u avvlam bor o'zining moddiy va ma'naviy extiyojini qondirishni o'ylaydi shu bilan birga yaratgan narsasini tashqi ko'rinishi va go'zalligi bilan boshqalar diqqat e'tiborini o'ziga jalb etadigan ularning xam moddiy xam ma'naaviy extiyojini qondiradigan bo'lishi xaqida fikr yuritadi.

Mexnat jarayonida bolalarning nafosat xaqidaga tushunchalarini did va qarashlarini rivojlantirish tarbiyaviy ishning muxim tomoni xisoblanadi. Go'zal didli inson yaxshi fazilatlar egasi-insonparvar, mexnatsevar davrning ilgor goyalarini chuqur o'zlashtiruvchi, shu goyalarning rivojiga o'z xissasini qo'shishga intiluvchi bo'lib, yetishadi. Mexnat faqat insonning kamol topishi uchungina emas balki xatto u erishgan insoniylik xislatlarini mazkur darajada saqlab turish uchun xam zaruriy shartdir. Inson mexnat qilmay turib, ilgari bora olmaydi, mexnat qilmasa erishgan darajasini saqlab qola olmaydi, u orqaga qarab ketishga majbur bo'ladi. Insonning tanasi qalbi va aqli mexnat qilishni talab etadi, agar inson biron bir sababga ko'ra turmushda shaxsan mexnat qilmasa u xolda, inson chinakam turmush yo'lini yo'qotadi va turmushdan cheksiz norzi bo'ladi, xamma narsadan ko'ngli sovib xech narsani yoqtirmaydi xamisha zerikib xunob bo'lib yuradi, ikkinchidan unday odam o'z xoxishi bilan o'zi xam sezmagan xolda o'zini o'zi nobud qilib boradi va tez orada yosh bolalarga xos injiq va qaysar bo'lib, qoladi. Bu ikkala yo'l xam inson tiriklayin murdaga ayldantiradi, nimaga desangiz shaxsiz mexnat, erkin mexnat – ana shuning o'zi xayotdir. Mexnatning go'zallik xususiyati – inson xayotida xissiyoti orqali ongi va xulqiga ta'sir etadi.

Mexnatning go‘zallik xususiyati esa mexnat jarayoni go‘zalligi mexnat sharoiti go‘zalligi mexnat natijalari va ishlab chiqarish bilan band bo‘lgan inson go‘zalligi tashkil etadi.

Aqliy mexnat tafakkur, mushoxada, dunyoni bilish bilimlarni egallash ular asosida o‘z dunyoqarashi va e‘tiqodini shakillantirib boradi. Bu mexnatning xaqiqatdan mexnatga aylanishi uchun u aniq maqsadga go‘zallikni yoritish orqali bolalarda mexnatni sevish xissini tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Yoshlarga mexnat nafosati-go‘zalligini ko‘rsatish, mexnatda insonning o‘sishi aqliy, axloqiy va jismoniy tomondan kamol topishi insondagi go‘zallikni ijod shodligini namyish etishdir. Bu ishni amalga oshirishda o‘tmish mumtoz adabiyot va 20 asr adabiyoti asarlaridagi inson mexnati badiiy chizilgan obrazlarni, asalan Alimsher Navoiyning Farxod va Shirin... dostonidagi Farxod, Oybekning «Qutlug qon», romanidagi Yo‘lchi, Abdulla Qaxorning «Sinchalak», qissasidaga Saidra obrazlaridan foydalanish mumkin.

Ulug‘ Alisher Navoiy o‘zining «Farxod va Shirin», dostoning bosh kaxramoni Farxodning Armaniya o‘lkasida ariq qazish,. «Bahrul najod» ni barpo etishda ko‘rsatgan qahramonligini mexnat zafarini shunday tasvirlagan.

Ariq javafin alar kilguncha xoli,
Bu olib teshasin iligiga xoli.
Arigning qilgoli malsa xoroshin,
Qilibon teshaning paydo garoshin.
Yo‘narga peshani ilgvaga olsa,
Qilib yuz yuz qori xaroni malso.
Musayqal aylabon ko‘zgu masallik,
Ki anda yuz ko‘runub suv masallik.

Mazmuni. Ular ariqning ichini tozalashayotganlarida Farxod teshasini bo‘shgina ushlab, ariqning gadir-budir yerlarni silliqlab, tosh yo‘nish uchun u teshasini qo‘lga olganda, yuz quloq yerlarni silliqlab chikar edi. Uning silliqlagan yerlari ko‘zguday sayqallangan unda odamning yuzi suvda ko‘ringanday ko‘rinadi.

Farxod qazigan ariqdan kelgan suv bilan «Baxrun najot», xovuzi to‘ladi. Xovuz yonida u qurgan qasir odamlarni xayratda qoldiradi. Xaloyiq shod xurram bo‘ladi, Farxodga ofarinlar aytishadi.

Kim ul qozib ariga poxu soda,
Necha ishlar dogu aylab ziyoda.
Yasab ul navi qasri charx monand
Ki topib kunguri gardunga payvand.
Bu yanglig kiila taxriri oing
Bu yangilik naqsh ila tas‘viri oning.
Qilib ishlarki qilgil odamzod
Bo‘lib ko‘rmakdin oni odami shod.

Ya‘ni, Farxod ariqni juda toza va silliq qilib qaziydi. Buning ustiga talay ishlarni xam qiladi. U osmonga o‘xshash shunday bir qasir qurdiki, uning kungurasi ko‘p bilan tutashgan. U o‘z qalami bilan goyat guzal naqshlar soladi, rasimlar xam chizadi.

Demak, Farxod yoshlikda egallagan bilimlarni tosh yo‘nish, naqsh chizish, bino kurish, bo‘yicha egallagan xunarini xalqning baxt saodati uchun, uning orzu istagini

amalga oshirish uchun sarflaydi. Farxod mexnatning go‘zalligi xam shunda ko‘rinadi. Bu go‘zallikdan Farxodning o‘zi xam mam’nun bo‘ladi.

Mexnat tarbiyasida ishning tartibda bo‘lishiga xam axamiyat berladi. Bola ishni bir tartibda bajarish bilan o‘z xarakatini boshqalar xarakati bilan moslashtiradi, natijada jamoa bajarayotgan ishda xam uygunlik vujudga keladi.

Mexnatning ma’lum bir tartibda bo‘lishi bolada axloqiy xis tuyguni xam o‘stiradi. Ular mexnat qilish jarayonida paydo bo‘ladigan go‘zal xissiyotning inson xayotida enig ma’naviy extiyoj ekanligini bolalarning anglab olishlariga aloxida axamiyat beradi.

Xar bir millat jumladan, o‘zbek xalqi xam hayotga qaysi soxada bo‘lmasin, o‘z ezgu niyatlari ijodiy mexnat tufayli erishadi. Toshkent shaxridagi Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatiri binosi xam o‘zbek xalqining ijodiy mexnati bilan barpo bo‘lgan. Muxtasham yodgorlik, me’morchilik xunari san’atning go‘zal na’munasidir.

Bu binoni qurishda 60 yil ganchkorlik kasbiga ega bo‘lgan usta Shirin Murodov teatirining Buxoro zalidagi naqshlarini o‘zi ishlaydi. Usta Shirin bu zalda oynaband fonga o‘yma ganchkorlik gullar va shiftlarga o‘yma naqishlar solgan. Zalga kiraverishdagi portalin albastir panjaralar bilan ximoyalangan. U yaratan bezaklar o‘zining kompozision qurilishi jixatidan tomashabinlarni xayratda qoldiradi.

Ganchkorlik kasbini sevish ziyraklik chidam va ixlos bilan uni egallash usta Shirin Murodovga shuxrat obru e’tibor keltirdi.

Maktabda mehnat tarbiyasining samarali bo‘lishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining mexnatda na’munali bo‘lishiga bog‘liqdir. Yuksak did bilan u ishlagan xar bir buyum va asbob o‘quvchilarda shunday narsalarni ishlashga qiziqish uyg‘otadi

O‘quvchilar mustaqillikni, fikirlashni, ijodkorlikni talab etuvchi mexnatni sevadilar. Bu xususiyat ularga umuman yoshlarga xosdir. O‘z kuchlarini ko‘rgazmali mustaqil tarzda namoyon bo‘lganini xis etgan ko‘rgan taqdirdagina o‘quvchilar qiziqish bilan mexnat qiladi.

Mexnat ijod na’munasi darajasiga ko‘tarilishi bilan jozibadorlik kasb etdi, kishilarni o‘ziga maftun qiladi. O‘quvchilarda ana shunday xususiyatga ega bo‘lgan ijodkorlikni shakillantirish va rivojlantirishda o‘qituvchining na’munali ishlari xamisha birinchi o‘rinda turadi. U ana shu na’munali ishlarga ko‘ra o‘quvchilar ma’naviy dunyosining memori, ularni murabbiysi xisoblanadi.

Nazorat topshiriklari

1.1. Daraxt yaprogi bilan kurkam, odam bilan.

- A) Axloqi bilan
- B) Mexnati bilan
- V) Xurmati bilan
- G) yaxshiligi bilan

1.1. Bolalarda mexnat kilish zarurligiga ishonch xosil kilishda, ularni mexnatga ruxan tayyorlashda kimlar kuprok uz xissasini kushgan?

- A) Onalar
- B) Amakilar
- V) Ota-onalar
- G) Ota-bobolar

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Qobusnoma", T. "O'qituvchi", 1994 y.
2. Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. 1-5 kitoblar. T. 1992 y.
3. Hadislar. 1-6- kitoblar. T. 1996 y.
4. Movlonova. R va boshqalar "Pedagogika" T. 1996 y.

7-MAVZU: O'TMISH MUTAFFAKKIRLARINING TA'LIM -TARBIYA HAQIDA FIKRLARI ma'ruza mashg'ulotning texnologik xaritasi

T'r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1-bosqich	Dars maqsadi: O'quvchilarga utmish mutafakkirlar va ta'lim tarbiyaning falsafiy muammolari xaqida tushintirish. Identiv maqsadlar: 1.1.Utmish mutafakkirlar xaqida ma'lumotlar beradilar, 1.2.Ta'lim tarbiyaning falsafiy muammolarini taxlil kiladilar.	O'qituvchi
2-bosqich	Asosiy tushunchalar: Forobiy, pedagogik karashlar, falsafiy muammolar ta'lim-tarbiya, axloq, ilm va xk. Dars shakli: guruxda ishlash. Vositalar: proektr, kompyutr. Metod va usullar: amaliy mashg'ulot, ko'rsatish, tushuntirish.	O'qituvchi
3-bosqich	Guruhda ishlash. 1.1.O'tmish mutafakkirlari va ta'lim -tarbiyaning falsafiy muammolari. 1.2.Ta'lim-tarbiyaning umumiy va xususiy muammolari.	Talaba
4-bosqich	Mustahkamlash va baholash uchun savollar: Nazorat topshiriqlari. 1. Forobiy o'simlik va insonga oid bulgan xususiyat va kobilyatlarni bir-butin xolda kaday ataydi? A) akl, B) so'zlash, V) quvvat, G) kuch, 2. Forobiyning fikricha, bilishning necha boskichi bor? A) ikkita, B) turtta, V) beshta, G) oltita,	O'qituvchi-talaba
5-bosqich	Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsadga erishildi. Vazifalar bajarildi. Adabiyotlarni tahlil qilib kelish topshirildi.	O'qituvchi

Asosiy savollar

- 1.O'tmish mutafakkirlari va ta'lim -tarbiyaning falsafiy muammolari.
- 2.Ta'lim-tarbiyaning umumiy va xususiy muammolari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Forobiy, pedagogik karashlar, falsafiy muammolar ta'lim-tarbiya, axloq, ilm va xk.

1-asosiy masala buyicha ukituvchining maqsadi: O'quvchilarga utmish mutafakkirlar va ta'lim tarbiyaning falsafiy muammolari haqida tushintirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.3. Utmish mutafakkirlar xaqida ma'lumotlar beradilar,
- 1.4. Ta'lim tarbiyaning falsafiy muammolarini taxlil kiladilar.

1-asosiy masalaning bayoni:

Sharqda ilk o'rta asirda eng muxim tarixiy voqea islom dinning vujudga kelishi tarqalishi va arab xalifaligining tashkil topishi bo'ldi. 9-10 asrlar Arab xalifaligining eng kuchaygan, Yaqin Sharq shaharlari-Bag'dod, Damashq shaxarlarida madaniyatning tez rivojlangan davri bo'ldi.

Xalifalikka qaram bo'lgan o'rta va yaqin sharqning boshqa shqaxarlaridan Bog'dodga ayniqsa, 813-833 yillarda o'qimishli ma'rifatparvarlar oqib keldi. Bu yerda o'z davri akademiyasi hisoblangan, «Donolik uyi», kutubxonasi, opservatoriya vujudga keldi. O'rta Osiyodan borgan M.Xorazmiy, Farg'oniy, Marvoziy, Mavludiy kabi olimlar xam Bog'dodda ilm ma'rifatning rivojiga katta xissa qo'shdilar ayniqsa, O'rta Osiyolik olimlardan Forobiy bu davr ilimi- ma'naviyatiga madaniyatiga katta xissa qo'shdi.

Abu Nasr Forobiy –O'rta Asir Sharqning mashxur-mutaffakkiri qadimgi yunon falsafasining Sharqdagi mashxur mutaffakkiri targ'ibotchisidir .U Sirdaryo bo'idagi o'tror shaxrida 873-yilda tug'ilib, Shosh Buxoro shaxarlarida o'qidi, sungra arab xalifaliginig markazi Bog'dod shaxriga borib u yerda ko'p yil istiqomat qildi. Yunon faylasuflarinig asarlarini mutola qilish ,turli tillarni o'rganish bilan shug'ullandi, umrining so'nggi yillarida Damashqda yashab, 950- yilda vafot etdi. U turli soxalarga oid ilmiy asarlar qoldirdi. U «Aql xaqidagi risola», «Falsafadan oldin nimani o'rganish kerak», «Substansiya xaqida» kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi.

Forobiy qadimgi yunon ilimlarning chuqur bilimdoni bo'lgani, uning sharqda tarqalishi va rivojiga katta xissa qo'shgani tufayli Sharq Aristgotieli Ikkinchi muaallim hisoblangan.

Forobiy birinchi bo'lib o'z davri ilmlari klasifikatsiyasini yaratdi va unga bagishlab, katgor risolalar yozdi. Forobiy o'z davrining buyuk olimi sifatida matetatika, tibbiyot, arab tili gramatikasi, alximiya, mantiq, ilmlariga oid asarlar xam yozdi. Ammo Forobiy avvalambor mashkur faylasuf bo'lib, falsafaning eng muhxim masalalari bo'yicha kator asarlarinig muallifidir.

U Sharqda qadim yunon falsafasi ayniqsa qadimgi dunyoning eng mashxur olimi Aristgotelning asarlarini o'rganish ularga sharhlar yozish, g'oyalarini targ'ib etdi va faylasuf g'oyasini yanada rivojlantirdi, butun sharqda ikkinchi muallim unvoniga sazovor bo'ldi, yunon olimlari Platon, Galiyon,Evkulit, Parafiy, Suqrot kabi olimlar risolalariga sharxlar yozdi.

Farobi o'z davrida ijtimoiy siyosiy xayotning turli masaalalari xaqida fikr bildirib uni boshqarish, kamolotga erishgan ijtimoiy jamoani yaratish kabi ijtimoiy utopik masalalkarni olg'a suradi, yetuk jamoani vujudga keltirish komil insonni yaratish muammosini xal etish bilan bog'liq ekanlagini bayon etadi.

Forobiy olamning turli tumanligini tabiatning nixoyatda boyligini etirof etib, ular asosida 4 element yer, suv, ollov, havo yotishini shu bilan birga olamni ibtidosi boshlanishi boshlang'ich yaratuvchi kuchdan nurlanish yordamida pog'onama -pog'ona bo'lib vujudga kelganligini ta'kidlaydi.

Farnobiyning fikricha, mavjudodning eng buyuk yetuk bu insondir. Inson o'zining ongi ,aqli sezish a'zolari tufayli, olamni xar tomonlama o'rganish qobiliyatiga ega.inson o'z aqli yordamida o'zini o'rab olgan mavjudotning mohiyatini tushinadi.

Forobiyning pedagogik ta'limotlari o'z davri uchun ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'lib insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan.

Forobiyning gumanizm uning ta'lim tarbiya inson shaxsiyatini kamol toptirishning yo'l yo'riqlari ilm-ma'rifatga erishuvning usullari, ijtimoiy muammolarni yechish masalalari, asosida yotadi. Bu muammolarni Forobiy inson insoniylik yetuk insoniy jisimlarni yaratish nuqtayi nazaridan xal etishga intiladi.

Forobiy O'rta asir Yaqin va O'rta Sharqda ilgor pedagogik ta'limotlarning asoschilaridan biri sifatida o'z asarlarida didaktik ta'lim -ta'rbiyaning psixologik asoslarini etika estetikaning muxim nazariy masalalarini o'z falsafasining ajralmas qismi tarzida taxlil etdi.

Forobiy insonning kamolotga yetkazish ta'lim- tarbiya ijtimoiy xayot, muammola-rini xal etish kabi kundalik masalalar bilan mashgul bo'ldi.Uning uqtirishicha, insonni baxt saodatga elitivchi jamoa yetuk jamoa bo'la olishi mumkun. Komil insonni yaratish uni baxt saodatga eltish , xar qanday davlat jamoa boshligining, vazifasi bo'lishi darkor.

Forobiy inson bilimining rivojida ilm fanning rolini xal etuvchi debyut biladi tashqi olamni o'rganish tabiat sirlarini bilishda, tabiiy bilimning rolni aloxida qayd qiladi.

Forobiyning ta'kidlashicha, insonni tarbiyalash 2–xil usul yordamida olib borilishi mumkun. Agar tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy aqliy va axloqiy xislatlarni-bilimli bo'lishga to'g'rilik xaqiqatni sevisga jasurlik do'stlarga sadoqatli bo'lish kabi fazilatlarni egallashga intilmasa tarbiyachi muallim unda fazilatlarni shakillantirmog'i lozim.

Demak, Forobiy pedagogik masalalarni va ularni uzviy bog'liq bo'lgan psixologik fizologik muammolarni falsafaning muxim qismi sifatida talqin etadi xamda insonni xar tomonlama yaxlit va o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan qismlardan iborat ekanligini aytib uni bir butun xolda o'rganishi tavsiya etadi.

Inson baxt saodatli jamoaning a'zosi qilib yetishtirish uchun izchillik bilan ish olib borishi lozim. Koimil inson va baxt saodatga elituvchi jamoaning raxbari Forobiyning fikricha komil inson uchun zarur bo'lgan barcha fazilatlarni xamda yetuk raxbar uchun shart bo'lgan xislatlarni egallagan bo'lishi kerak.

Farobiy o'z falsafiy qarashlarida jumladan pedagogik g'oyalari xususiy ijtimoiy pedagogik g'oyalari bilan Sharq va G'arbning so'ngi mutaffakkir olimlariga – Ibn sino Beruniy Ibn Rushid, Rodjer, Bekon, Didakta, Sipinozaga katta ta'sir ko'rsatdi.

Ta'lim-tarbiyaning falsafiy muammolari

Forobiyning pedagogik qarashlari ta'lim-tarbiya xaqidagi ta'limotni o'rganishda inson xislatlari to'g'risidagi falsafiy qarashlari nixoyatda muxim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini ruxiyatini moddiy va ma'naviy olamni o'rganishga ahamiyat beradi.

Forobiy ta'limoticha inson barcha boshqa jismlardan bo'lmagan qobilyat va kuchga ruxiy quvvatlarga aql va so'zlash qobiliyatiga ega. Bu kuch uning tabiyatdaga boshqa jismlardan ajratib turadi va uning ustidan xokim bo'lish imkonini beradi.

Forobiy o‘simlik va insonga oid bo‘lgan xususiyat va qobiliyatlarni bir butun xolda quvvat atab uni o‘rish quvvati xayvoniy quvvat va insoniy deb 3 ga ajratadi.

Forobiy o‘z dunyokarashida narsa xodisalarni bilish inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilimli ma‘rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruxiy jarayonga aloxida e‘tibor beradi.

Forobiy o‘z asarlarida bilishning 2 bosqichi xissiy bilish va aqliy bilish xaqida fikr bildirib, xissiy bilishning darajalari kelib chiqishi rivojlanishi xaqida fikr bildiradi. U bilish jarayoni va inson bilimining kelib chiqishi xaqida shunday deydi.

«Inson bilimlarini aql va sezish organlari orqali qo‘lga kiritadi. Seziluvchi obrazlar esa xis etish orqali aqliy obraz seziluvchi obrazlar orqali bilinadi.

Forobiy xikmat asoslari risolasida sezish turlariga xarakteristika berib, tashqi ob‘ektning sezgi a‘zolariga ko‘rsatgan ta‘siri natijasida uning o‘zgarishini aloxida kayd etadi.

Forobiy ta‘limoticha insonning besh sezgi a‘zosi besh turli vazifani bajarishga muvofiqlashgan bo‘lib ular tashqi muxitdan olgan xabarlarni bir yagona markazga olib keladi va bu markazda barcha xabarlar obrazlar umumlashadi. Odam a‘zolarining markazi yurak butun tana va uning a‘zolarini qon bilan taminlaydi. Kon yurak orqali butun a‘zolarga tarqaladi. Ikkinchi markaz miyadir, miya xam qon bilan tirik bo‘lganligi sababli, yurakka bo‘ysunadi, ya‘ni yurakdan qon oladi lekin, shu bilan birga u butun a‘zolarga raxbarlik qiladi, o‘z buyrugini bo‘ysundiradi ularni ma‘lum mo‘tadillikda ushlab turadi. Demak, Forobiyning fikricha 1-dan insondagi ruxiy jarayonlar bilan fiziologik-anatomik jarayonlar ruxiyat, a‘zo bilan bog‘liq, 2-dan yurak insonning biologik xayoti miya esa ruxiy ma‘naviy xayotni boshqarib turadi.

Forobiy faylasuv sifatida ruxiy jarayonlarni insoning aqliy axloqiy ma‘naviy rivojiga bog‘liq xolda o‘rganishga va talqin etishga xarakat qiladi. shuning uchun xam u o‘z asarlarida sezgilar va aqliy bilish fikirlash kabi jarayonlarga juda katta e‘tibor beradi va ular xaqida boshqa ruxiy jarayonlar, Masalan xotira, tasavvur, diqqat, xis tuyg‘u, iroda, qobiliyat, malaka kabi shaxsiy xislatlarni bilish jarayoni bilan bog‘liq xolda so‘z yuritadi.

Insonga xos bo‘lgan va uning ma‘naviy yuksalishida muxim ahamiyat kasb etuvchi taffakkur va nutqning rivojlanishi ta‘lim-tarbiyaning asosini tashkil etuvchi muxim jarayondir.

Aql deb yozadi Forobiy jisimlarini bunday xislatlardan xoli xolda tekshirganda bu faqat jisimlarning moxiyati nimadan iborat ekanligini va sezgilardan nimalar mavxumlashtirilganini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. jisimga u bilan bog‘liq bo‘lgan belgilardan ajratib oluvchi aql faoliyati shu jisimning faqat moxiyatini tekshirish uchun xizmat qiladi.

Inson tafakkuri va nutqining fazilatlari grammatika va mantiq fanining rivojiga uning ayrim masalalarini taxlil etishga, juda katta e‘tibor beradi. U Aristotelning mantiqqa oid barcha asarlariga sharxlar yozadi va mantiqning turli bo‘limlari tushuncha xukm «diduksiya», isbotlash kabilarga bag‘ishlangan risolalar yozib, qoldirdi. Uning ruxiyat va mantiqa oid fikirlari ta‘lim-tarbiya soxasidagi ta‘limotning tabiy ilmiy nazariy asoslari bo‘lib xizmat qiladi.

Nazorat savollari.

1. Forobiy usimlik va insonga oid bulgan xususiyat va kobilyatlarni bir-butin xolda kanda y ataydi?

- A) akl,
- B) suzlash,
- V) kuvvat,
- G) kuch,

2. Forobiyning fikricha, bilishning necha boskichi bor?

- A) ikkita,
- B) turtta,
- V) beshta,
- G) oltita,

2-asosiy savol buyicha o`qituvchining maqsadi: Talabalarga ta'lim va tarbiyaning umumiy va xususiy muammolari xaqida tushintirish,

Identiv o`quv maqsadlari.

1.1 Ta'lim va tarbiya xaqida suzlab beradilar,

1.2 Ta'lim va tarbiyaning umumiy va xususiy muammolarini tushintirib beradilar,

2-asosiy savolning bayoni:

Ta'lim –tarbiyaning umumiy va xususiy muammolari.

Inson tarbiyasi masalasi, Qadimgi Sharqda G'arbda xususan Qadimgi Yunonistonda xar doim mutaffakkir olimlarning diqqat markazida bo'lib keldi. Forobiy Qadimgi Yunoniston faylasuf olimlarining merosini o'rganar ekan Aristotel Platon Suqrot Pifaggor kabilar asarlari bilan yaqindan tanishdi. Ularga sharxlar yozdi. Ta'lim tarbiyada insonning ma'naviy yuksalishiga katta e'tibor beradi. Forobiyning fikricha, insonni tarbiyalash va unga ta'lim berish uzviy birlikda olib qaralaydi ammo ular o'z xususiyatlariga ko'ra bir yukoridan farq qiladi.

Forobiy insonning dunyo tara qiyotini eng mukammal va yetuk yakuni deb biladi.

Forobiy asarlarida insonga tarbiya va ta'lim berish zaruriyati va buning uchun nimaga asoslanish lozimligi ta'lim tarbiya usullari undan qutilgan maqsad masalalari asosiy o'rin egallaydi.

Xususan uning «Baxt saodatga erishuvi xaqida»,. «Ideal shaxar axolisining fikirlari, shuningdek «Ixso al ulum», «Aql ma'nolari xaqida», nomli asarlarida bu masala keng yoritilgan.

«Baxt saodatga erishuv xaqida», nomli risolasida bilimlarni o'rganish tarkibi birma bir sanab o'tilgan. Bilish zarur bo'lgan ilm bu olam asoslari xaqidagi ilmdir. Uni o'rgangach tabiiy ilmlarni tabiiy jismlar tuzilishini shaklini osmon xaqidagi ilmlarni o'rganish lozim. Undan so'ng umuman jonli tabiat o'simlik va xayvonlar xaqidagi ilm o'rganiladi.

...Bundan keyin deb davom etadi: Forobiy insonni o'rganishga kirishamiz va insonning bilishidan kutilgan maqsad va mudaoni o'rganamiz va shuning natijasida nima va qanday narsa ekanligini bilib olamiz. Shundan keyin biz insonnig xozirgi kamolotiga erishuvi sabab bo'lgan narsalarni o'rgana boshlaymiz. Bu narsalar esa xayr exsonli ishlar go'zal insoniy fazilatlar bo'lib, bu fazilatlarni insonni shu kamolotga

erishuvdan maxrum qiladigan salbiy xislatlarni ajratib o'tamiz. Bu salbiy xislatlar yomon odatlar xatti-xarakatlarning kelib chiqish sabablarini o'rganishdan avvvval shu xulq-atvor xatti xarakatning o'zi bilan tanishib chiqamiz. Bu ilm shunday narsalarni o'rgatauvchi ilmki uning yordamida shaxar xalqlari va shaxarlik bo'lmagan xalqlarni o'z ichiga olgan ya'ni inson olamiga xos bo'lgan barcha xislatlarni o'zida umumlashtirgan odamzod jisimga xar turli a'zolar kabi kishiga ma'lum bo'ladi.

Forobiy insonning materiya va rivojlanishning oliy yakuni sungi natijasi deb tushungani uchun xam insonning ijtimoiy xayoti to'g'risidagi ilmni tabiat to'g'risidagi barcha ilmlar yakuni sifatida talqin etadi.

Forobiy insonning ijtimoiy xayoti xaqidagi ilmning vazifasini xususiyatini quydagicha belgilaydi.

...Siyosiy ilm ongli faoliyat va xayot yo'l yo'riqlarining ko'nnishlarini shuningdek, urf-odat axloq malakalar va tabiiy boyliklarini. ular orqali qo'lga kiritiluvchi maqsadlar insonda ularning ifodalaniish va vujudga kelish usullarini ularni bajarish usullari ularni boshqarish usullari va saqlab qolish yo'llarini o'rganadi...

Demak, Forobiy bu ilmga asosan ikki muxim soxani axloq ilmni va shaxarni va jamoani boshqarish siyosiy ilmni kiritadi.

Inson axloqi to'g'risidagi ta'limot etika Forobiyning ijtimoiy ta'limotida eng muxim va aosiyo'rinlardan birini egalaydi.

Forobiy axloq to'g'risidagi ilmni an'anaga asoslanibgina belgilamaydi. Subektiv ravishda kelib chiqishni ko'rsatadi va uni keltirib, chiqargan omillar ya'ni insonning ijtimoiy moxiyatini xam asoslashga xarakat qiladi.

«Baxt saodatga erishuv to'g'risida», «Ideal shaxar axolisining fikirlari», asarlarida bu savolga Forobiy shunday javob beradi.

«Aql va nafs-deb yozadi, Forobiy Baxt saodatga erishuv tug'risida degan risolada o'zining cheksiz kamoloti bilan borliqda inson bo'lib, gavdalanadi. Ammo bu boshlangichlar odamzodning shu tabiiy boshlangichlar ta'siri ostida kamol topib insonga aylanishi uchun kifoya qilmaydi, chunki insoniy kamollotga erishuvi uchun kasb xunarga muxtojdir.

Ammo shuni xam aytib o'tish kerakki, nutq insonning kamolotga yetishuvining yagona sababalaridan biri emasligi xam ochiqdan-ochiq ayondir. Kamolga yetish quruq intilishgina bo'lib qolmasdan, balki tabitdagi juda ko'p narsalardan foydalanish yo'li bilan yoki shu tabiatdan tashqarida bo'lgan juda ko'p ishlarni amalga oshirish yo'li bilan qo'lga kiritiladi. Bir kishining o'zi yolgiz kamolga yetisha olmaydi. Xar bir insonning tug'ma tabiatida va unga lozim bo'lgan xar qaanday ish va xarakat jarayonida boshqa bir inson ko'pchilik bilan munosabatda bo'lish o'zaro aloqa qilish xosiyati bor.

Shu mazmundagi fikir, «Ideal shaxar axolisining fikirlari asarida yanada aniq ifodalangan ma'lum bir fikrga maldum xulosaga kelmoq uchun bu fikrni xam quyida keltiramiz.

Xar bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun kup asrlarga muxtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi va ularga ega bo'lish uchun shunday ingsonlar jamoasiga extiyoj tug'iladiki, bunday jamoaning xar bir a'zosi uning extiyoji uchun zarur bo'lgan narsalar birortasini yetishtirib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'payadilar va yerni axoli yashaydigan qismida joylashadilar natijada inson jamoasi vujudga keladi.

Nazorat savollari.

1. Inson axloqi tugrisidagi ta'limot kanday ataladi?
 - A) Etika,
 - B) Poletika,
 - V) estetika,
 - G) Filosofiya,
2. "Ixso al- ulum" asarining ma'nosi nima?
 - A) Illarning tartibi,
 - B) Xikmat asoslari,
 - V) Akl xaqidagi risola,
 - G) Falsafa muammolari.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi . T, "O'qituvchi" . 1-jild 1995 y, 2-jild 1999
2. Urta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. T. "Fan" 1996 y.
3. Xalq pedagogikasi –inson kamolotining asosi . 1-5 kitoblar 1992 y.

8 -MAVZU: FOROBIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotning texnologik xaritasi

T'r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1-bosqich	Dars maqsadi: Forobiyning xayoti va ijodi xaqida talabalarga bilim, kunikma va malakalar berish, Forobiyning ta'lim-tarbiya borsida bildirgan fikrlarini talabalarga suzlab berish. Identiv maqsadlar: 1.1.Forobiyning xayoti va ijodi xaqida suzlab beradilar. 1.2.Forobiy ijodidan na'munalar keltiradilar.	O'qituvchi
2-bosqich	Asosiy tushunchalar: Forobiy, karashlari, Xalq ogzaki ijodi, utmish mutafakkirlari, tarbiya turlari, shark mamlakatlari, ilm, ustoz. Dars shakli: guruxda ishlash. Vositalar: proektr, kompyutr. Metod va usullar: amaliy mashg'ulot, ko'rsatish, tushuntirish.	O'qituvchi
3-bosqich	Guruhda ishlash. - Forobiyning xayoti va ijodi xaqida tushuntiradilar. - Forobiyning xayoti va ijodi xaqida gapiradilar - Forobiyning ta'lim-tarbiya borsida bildirgan fikrlarini misollar keltiriladi	Talaba
4-bosqich	Mustahkamlash va boholash uchun savollar: - Forobiy bolalarning fe'l atvoriga karab tarbiya jarayonida kanday va yullardan foydalanishni aytib utgan? - Forobiyning ta'lim-tarbiya xaqidagi goyalari avvalo nimaga karatilgan? -Farobiyning asarlaridan misollar keltiring.	O'qituvchi-talaba
5-bosqich	Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsadga	O'qituvchi

	erishildi. Vazifalar bajarildi. Forobiyning hayot va ijodidan tushundilar. Farobiyning asrlaridan misollar keltiradilar. Mustaqil ish topshiriqlari qilib talabalarga adabiyotlarni taxlil qilib kelish topshirildi.	
--	--	--

Asosiy savollar

1. Forobiyning hayoti va ijodi.
2. Forobiyning axloqiy va pedagogik qarashlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Forobiy, karashlari, Xalq ogzaki ijodi, utmish mutafakkirlari, tarbiya turlari, shark mamlakatlari, ilm, ustoz va x.o.

1-asosiy savol buyicha ukituvchining maqsadi: Forobiyning xayoti va ijodi xaqida talabalarga bilim, kunikma va malakalar berish, Forobiyning ta'lim-tarbiya borsida bildirgan fikrlarini talabalarga suzlab berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1. Forobiyning xayoti va ijodi xaqida suzlab beradilar.
- 1.2. Forobiy ijodidan na'munalar keltiradilar.

1-asosiy savolning bayoni:

Sharq mamlakatlarida Forobiyni uluglab, «Al Muallim as soniy», ya'ni Aristoteldan keyingi ikkinchi muallim deb ataganlar.

Buyuk olimga bunday baxo berish bejiz emas, albatta u fanning xamma soxalarini urganishga aloxida e'tibor berdi. Tarixshunos olimlarning taxminicha, Forobiy dunyo tillaridan 70 tasini bilgan. Til inson kamolotining akliy yetukligini asosi bulganligi sababli, u fanlarni tartiblashda tilni eng birinchi fanlar katoriga kuydi. U xar bir inson axliga murojat kilib, ayniksa ota-ona va ustoz-murabbiylarga karata shunday degan edi: «Kanday kilib ta'lim berish yoki ta'lim olish, kanday kilib uz fikrini ifodalash, bayon kilish, surash va javob berish masalasiga kelganmizda fanlar ichidagi eng birinchi fan til xaqidagi fandir. Ikkinchi fan grammatika. Uchinchi fan mantik, turtinchi fan poetika deb tasdiklayman». Forobiyning til va uni urganishdagi goyalarni amalga oshirish musstakil Uzbekistonni butun dunyo bilan xamjixat bulgan davrida ayniksa zarurdir. Forobiy ijodiyoti davrida juda kup asarlar yaratdi. Uning ijodini urganish bilan mashgul bulgan tadjikodchilar Forobiyning 130 ta asar yozganligini tasdiklaydilar.

Ularning 17 tasi turli olimlarning falsafiy asarlariga yozilgan sharxi, 60 tasi aloxida kitob, 5 tasi bir qancha makolalar, uz ichiga olgan majmualari xisoblanadi.

Uni «Aflotun qonunlarining moxiyati», «Siyosat va madaniyat», «Fozil shaxar axolisining axloqiy qarashlari», «Ilmlar majmuasi kabi yirik asarlari mavjud.

Forobiyning xar bir asarlaridagi asosiy goyani inson kamoloti, uning yuksak axloqiyigidir. Uning fikricha akliy bilimni peshlash, axloqiy barkamollikni ta'minlaydi: Inson yuksak kamolotga erishuv yulida xarakat kilganidek, akliy bilimga xam xarakat kilsa, xech shubxasiz, uzi intilayotgan sungi darajadagi baxt-saodatga erishadi. Baxt-saodat insonga osonlikcha berilmaydi. Baxt va mazmunli xayot uchun, dastlab yoshligidan boshlab ilm-xikmatni urganmogi lozim. Buning uchun sog-salomat va odob-axloqli bulishi, suzni uddasidan chikishi, yomon ishlardan uzini saklashi, xar kanday xiyonat, makr-xiyladan uzok yurishini ta'kidlaydi.

Forobiyning fikricha, baxt-bu ezgulikdir. Insoniy ezguliklar- xayrli narsalarga, guzallik, bilimdonlik shu bilan birga yaxshilik bilan boglik bulgan xamma fazilatlarni kiritgan edi. Forobiy inson kamoloti uchun xamjixat jamoat axloqiy munosabatlari, soglom bulgan oila zarur deb xisoblaydi. Uning fikricha, “Xar bir inson uz tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashashi, oliy darajadagi yetuklikka erishmogi uchun kup narsalarga muxtoj buladi. U bir uzi bunday narsalarni kulga kirita olmaydi va ularga ega bulishi uchun insonlar jamoasiga extiyoj sezadi”.

Aflotun xar bir jamoada gurux xoini yoki oilada ota-onani mensimaydigan kimsalarni jazolash kerak degan edi. Forobiy bu goyalarni rivojlantirib, bunday nokobil insonlarni jinoyatchi, deb tushundi. Xokimiyat vakillari bunday odamlarni jinoyatiga karab, tayok bilan urib, yoki jarima solishlari kerak degan edi.

Forobiyning ijtimoiy, falsafiy konsepsiyasiga kura, olam yagona mavjudotdan iborat. Ollox xamma narsaning ibtidosi, barcha vujudlar undan emanatsiya asosida kelib chikadi, buning sungi pog`onasi materiyadir.

Forobiy uzining falsafiy karashlarida insonga bilim va tarbiya berishni asoslagan. U inson-aklli mavjudot deyilganda, uning aklli bulishiga layokatligi, lekin yomon xatti-xarakatlarga xam kobilligi tushunilishini xam uktirgan. Insonlarga doimo bilim va tarbiya berishni zarur deb xisoblagan. Forobiy uzining ideal jamoasida odamlarning turli belgilariga karab, guruxga bulgan. Kishilarning diniy maqsadiga emas, balki tabiiy xususiyatlariga, avvalo, akliy iktidorlariga xamda ilmlarni urganish va xayotiy tajriba tuplash jarayonida orttirgan bilim va kunikmalarga katta e`tibor bergan. Ta`lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim bilan amaliy xarakat va odat- malaka, faoliyat birlashib boradi, yetuklik shu birlashuvning darajasiga karab yuzaga keladi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Forobiy kaysi shaxarda tugilgan?
 - A) Forob shaxrida ,
 - B) Utror shaxrida,
 - V) Shosh shaxrida tugilgan,
 - G) A va B javoblar tugri.
2. Forobiyning fikricha baxt bu....
 - A) Ezgulikdir,
 - B) Farogat,
 - V) Mexnat,
 - G) Mangulik.

2-asosiy savol bo`yicha o`qituvchining maqsadi: Forobiyning axloqiy, falsafiy va pedagogik karashlari, insonning tuzilishi ruxiyati xaqidagi fikr va karashlarini talabalarga tushintirish.

Identiv o`quv maqsadlari:

1. Forobiyning axloqiy va pedagogik karashlarini suzlab beradilar.
2. Insonning tuzilishi ruxiyati xaqidagi fikr va karashlarini tushintirib beradilar.

2-asosiy savolning bayoni:

Forobiy ta`lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchi yoki ta`lim oluvchi shaxsga yakka xolda yondashuvni uning tabiiy, ruhiy va jismoniy xislatlarini nazarga olish

zarurligini ta'kidlaydi. U bu haqida shunday yozadi: «Bu barcha tabiiy xislatlarni oliy kamolot sari yoki kamolotga yaqin bo'lgan darajaga ko'tarishga xizmat qiluvchi vosita yordamida tarbiyalashga muhtojdir. Insonlar turli ilm, hunar faoliyatga moyilligi va qobiliyatligi bilan tabiatan farq qiladilar. Teng tabiiy xislatlarga ega bo'lgan odamlar esa, o'z tarbiyasi (malakalari) bilan tafovut qiladi.

Tarbiyasi jihatidan teng bo'lganlar esa, bu tarbiya natijalarining turlichaligi bilan bir-biri bilan farq qiladilar».

Tarbiya jarayoni, Forobiyning fikricha, tajribali pedagog o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi, boshqarilib turilishi va ma'lum maqsadlarga yo'naltirishi lozim, chunki «Har bir odam ham baxtni va narsa hodisalarni o'zicha bila olmaydi. Unga buning uchun o'qituvchi lozim».

Forobiy insonga xos bo'lgan va uning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi, tafakkur va nutqning rivojlanishini ta'lim-tarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim jarayon hisoblaydi.

Forobiy insonni dunyo taraqqiyotining eng mukammal va yetuk yakuni deb biladi. Shunga ko'ra u o'z asarlarida insonga ta'lim va tarbiya berish zarurligini aytadi va bunda ta'lim-tarbiya usullaridan kutilgan maqsad asosiy o'rinda bo'lishini aytadi.

Forobiy zamonasining peshkadam bilimdoni, sifatida tinimsiz ilm urgangan, ijod etgan, ayni paytda muallimlik xam kilgan, Masalan, Abu Sirojiddin astronomiya matematikani urganib, unga mantikdan dars bergan. Forobiy oliy madrasalarda talabalarni ukitib, kamtorona xayot kechirgan. Forobiy ukitishning mazmunini va konun- koidalarini, uzining amaliy faoliyatida sinab kurgan. U insoning baxt-saodatga erishishi uchun zarur bilimlarni urganadigan fanlarni etika va siyosiy guruxlarga ajratgan. Etika- axloqshunoslikdan iboratligini, siyosiy fanlar esa, davlatshunoslik, psixologiya, pedagogika muammolarini uz ichiga olishini, ana shunday bilimlarni urganish insonni xushaxloq, sadokatli, akl-idrokli kilishni takidlaydi. Bilimsiz, uz xolicha yashab yuravergan kishi oldiga kuyilgan maksadlarga erisha olmasligini uktirgan. Forobiyning fikricha, xar bir shaxs munosib odam bulishi uchun ta'lim va tabriya orqali kishilar bilan mulokotni, axloqiy kadr-kimmatni va amaliy faoliyatni urganadi.

Forobiy bolalarning fe'l-atvoriga karab tarbiya jarayonida «kattik» yoki «yumshok» usullaridan foydalanish kerak, deb xisoblagan:

-tarbiyalanuvchilar ukish va urganishga moyil bulsa, ta'lim-tarbiya jarayonida yumshok usul kullaniladi,

-tarbiyalanuvchilar uzboshimcha, itoatsiz bulishsa, kattik kullanishi lozim.

Forobiyning ta'lim-tarbiya xaqidagi goyalari avvalo, Olloxni bilishga, insoniyat yaratgan ilmu bilimlarni uzlashtirishga karatilgan. U ta'lim-tarbiyaning vosita va usullarini asoslab bergan. Olimning ukitishga doir goyalari uzidan keyingi asarlarida ta'lim-tarbiya va inson kamoloti xususida fikr muloxazalarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir kursatadi.

Forobiy ta'lim-tarbiyada tabiat hodisalaridan foydalanish va bu yo'lda boshqa kishilar bilan to'g'ri munosabatda bo'lib, jamiyatning ichki tartib qoidalarini to'g'ri o'rganib, uning talablariga javob bera oladigan insonni yetishtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Forobiy insonning ma'naviy hayotida asosan, uning ikki tomoniga: aqli-ongiga va ahloqiga (Hulq-atvoriga) e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha

insonni aqliy tomondan ham, ahloqiy tomondan ham yetuk mukammal kishi qilib yetishtirishiga qaratilmog'i lozim. Demak, ta'lim-tarbiyaning birdan-bir vazifasi-jamiat talablariga to'la to'kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal inson tayyorlashdir. «Ideal shahar aholi ilmining fikrlari» hamda «Baxt soadatga erishuvi haqida» nomli risolalarida olimning bu fikrlari aniq ifodalangan.

Forobiy ta'lim-tarbiya ishiga kirishish, uni boshlashdan avval odamlarning shahsiy hislatlarini bilish lozimligini aytadi. Uning fikricha, insoning xoxish, ixtiyor, ifoda, yaxshilik va yomonlik kabi hislatlarini, nimaga qobilyati borligini aniqlamay turib ishga kirishish kutilgan natijani bermaydi.

Olimning, uqtirishicha kimki eng go'zal va foydali kashf etish fazilatiga ega bo'lsa va kashf etgan narsasi chindan ham o'zining va boshqalarning istagiga muvofiq bo'lsa, u xayrli va foydali bo'ladi Forobiy bolalarga ta'lim-tarbiya berish usullari haqida shunday yozadi: «Amaliy fazilatlar va amaliy san'atlar, kasb-hunar va ularni bajarishga odatlantirish masalasiga kelganda, bu odat ikki turli yo'l bilan hosil qilinadi: birinchi yo'l-qanoatbaxsh so'zlar chorlovchi, ilhomlashtiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, ma'lakalar vujudga keltiriladi, odamdagi g'ayrat, kasb-intilish, harakatga aylantiriladi.

Ikkinchi yo'l- majbur etish yo'lidir. Bu usul gapga ko'nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroi xalqlarga nisbatan ishlatilar edi, chunki ular o'z istaklaricha, so'z bilan g'ayratga kiradigan emasdir. Ammo ulardan qaysi biriki, nazariy bilimlarni o'rganishga astoyidil kirishsa, hamda fazilati yaxshi kasb xunarlarini va juz'iy san'atlarni egallashga intilishi yuo'lsa, bunday odamlarni majbur etmaslik, maqsad ularni fazilat egasi qilish va kasb xunar ahillariga aylantirishdir».

Tarbiya berish usuli Forobiyning fikricha, ikki turli bo'ladi. «Avvalgi usul-san'atni o'z rag'batlari bilan o'rganuvchilar bilan ishlatadigan usul. Ikkinchi usul esa majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. Bolalar ustida turgan odam esa muallim u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi».

Forobiy bilimdon ma'rifatli bilimdon yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan bunday deydi: «Har kimki ilm-hikmatni o'rganmagan bo'lsa uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin yaxshi odob va ahloqli bo'lsin, so'zini uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo'lsin, barcha qonun qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilimli va dono kishilarni hurmat qilsin. Ilm va ahli ilmdan mol dunyosini ayomasin, barcha real, moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin».

Bu fikrlardan Forobiyning ta'lim-tarbiyada, yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, xususan, aqliy, ahloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi. Uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat albatta yaxshi ahloq bilan bezatilmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erisha olmaydi, bola yetuk bo'lib yetishmaydi. Olim, daraxtning yetukligi uning mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha xislatlari ham ahloq bilan yakunlanadi deydi.

Forobiy o'z davridagi yoshlarni ta'lim., bilim hunar egallashlari faoliyat ko'rsatishlari. Meqnat qilishlari zarurligi xususida fikr bildiradi. Bu fikrlar hozir ham ta'lim-tarbiyada g'oyat muhimdir.

Nazorat topshiriqlari:

1. Forobiy bolalarning fe'l atvoriga karab tarbiya jarayonida kanda y yullardan foydalanishni aytib o'tgan?

- A) ragbatlantirish,
- B) jazolash,
- V) Kattik va yumshok,
- G) Yumshok

2. Forobiyning ta'lim-tarbiya xaqidagi goyalari avvalo nimaga karatilgan?

- A) Adolatga , insonparvarlikka,
- B) Olloxni bilishga,
- V) Ezgulikka va yomonlikka,
- G) Yaxshilikka ,

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shaxri» T. Xalq merosi nashri. 1993 y.
2. Mavlonova R va boshkalar. Pedagogika, T. «Ukituvchi» , 2001 y.
3. Barkamol avlod orzusi. T. «Shark» 1999 y.
4. Uzbek pedagogikasi antalogiyasi. T. «Ukituvchi», 1-jild 1995 y, 2-jild 1999 y.
5. Xalq pedagogikasi inson- kamolotining asosi. 1-5 kitoblar. T. 1992y.
6. O'rta Osiyoda pedagogik fikr tarakkiyotidan lavxalar. T. «Fan» 1996 y.

9. 10. 11 - MAVZU: XALQ PEDAGOGIKASINING OG`ZAKI IJODDA AKS ETTIRILISHI ma`ruza mashg'ulotning texnologik xaritasi

T\r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1-bosqich	Dars maqsadi: Xalq ogzaki ijodi, uning tur va janrlari, uning yosh avlodning estetik ma'rifiy jixatdan rivojlanihidatutgan urnini talabalarga tushintirish. Identiv maqsadlar: -Talabalarga tariximizni, utmishimizni eslatib, uzligimizni anglab olishiga kumaklashish. -Talabalarga Xalq kushiklari orqali estetik zavk bagishlashdan tashkari, axloqiy shuruni xam uygotish.	O'qituvchi
2-bosqich	Asosiy tushunchalar: Doston, kungirot, Xalq dostonlari, mardlik, jasurlik, urf-odat, jasorat, Kalmok, alplar, utov, Xalq pedagogikasi, Barchin, Kukaman, Korajon, kamal, janr va x.zo Dars shakli: guruxda ishlash. Vositalar: proektr, kompyutr, ko'rgazmalilar. Metod va usullar: amaliy mashg'ulot, ko'rsatish,tushuntirish.	O'qituvchi
3-bosqich	Guruhda ishlash. 1. Xalq ogzaki ijodi, uning turlari va janrlari xaqida. 2. «Alpomish» dostoni va uning tarbiyaviy axamiyati.	Talaba
4-bosqich	Mustahkamlash va boholaash uchun savollar: 1.1.Alpomish dostonida uzbekXalqining kanda y kunlari tasvirlangan?.	O'qituvchi-talaba

	A) Qabilachilikdan feodalizmga kuchishi, B) Feodalizmning dastlabki kunlari, V) Utmish Xalqlarning orzu xavaslari, G) A va B javoblar tugri. 1.2.Alpomish kalmok yurtiga nima uchun boradi? A) Boysariga madad berish uchun, B) Boysarini Boysunga olib kelish uchun, V) Kalmok shoxidan kutilish uchun. G) A va B javoblar tugri.	
5-bosqich	Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsadga erishildi. Vazifalar bajarildi. Mustaqil ish topshiriqlari qilib ,talabalarga adabiyotlarni taxlil qilib kelish topshirildi.	O'qituvchi

Asosiy savollar.

1. Xalq ogzaki ijodi, uning turlari va janrlari xaqida.
2. «Alpomish» dostoni va uning tarbiyaviy ahamiyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Doston, kungirot, Xalq dostonlari, mardlik, jasurlik, urf-odat, jasorat, Kalmok, alplar, utov, Xalq pedagogikasi, Barchin, Kukaman, Korajon, kamal, janr va x.zo

1-asosiy masala buyicha ukituvchining maqsadi: Xalq ogzaki ijodi, uning tur va janrlari, uning yosh avlodning estetik ma'rifiy jixatdan rivojlanishidatutgan urnini talabalarga tushintirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

- 1.1 Xalq ogzaki ijodining tur va janrlarini aytib beradilar.
- 1.2 Xalq ogzaki ijodining tur va janrlarni bir-biridan farqlab, asoslab beradilar.

1- asosiy savolning bayoni:

O`rta Osiyoning eng qadimiy Xalqlaridan bulgan uzbek Xalqi ma'naviy madaniyati tarixida suz san'ati va uning eng qadimgi turi hisoblangan Xalq ijodi, ayniksa, uning epik janri dostonlar goyat faxrli urin tutgan, mexnatkash Xalq ommasining goyaviy, axloqiy, ma'rifiy, ma'naviy va estetik takomilida Xalqning asrlar davomidagi xayotiy tajribalari, ozod va farovon hayotga intilishlari, adolatsizlik va xaqsizlikka karshi kurashlari uz ifodasini topgan. Shu ma'nolarida asrlar davomida saykal topib, avloddan-avlodga utib kelayotgan uzbek Xalq dostonlari ijtimoiy tarakkiyot bilan boglik bulib, Xalq turli davrlarda sodir bulgan iktisodiy-ijtimoiy uzgarishlarni, insoniy, ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni, marosim va urf-odatlarni uzida qamrab kelgan boy va mukammal bir manbadir. Binobarin, bu manbani xar jixatdan urganib, ularda ifodalangan an'anaviy qadriyatlarini, muxim goyalarni umumlashtirib va ulardan yosh avlodni tarbiyalashda ular orqali yuqolib borayotgan, insoniy qadriyatlarni tiklashda samarali foydalanish Xalq ta'limi oldida turgan, xozirgi qayta kurishga va jumxiriyatimiz istikloliga xizmat qiladigan dolzarb vazifalardandir.

Buni biz uzbek Xalq eposining faxri, Xalqimizning yagona qaxramonlik eposi «Alpomish» dostoni misolida kurishimiz mumkin. «Alpomish» dostoni juda qadim zamonlardayok uzbek Xalqi urtasida keng tarkalgan bulib, Xalq shoiri va baxshilari tomonidan uni kuylash katta san'at, iste'dod va maxorat hisoblangan, uni kuylaganda esa aloxida xurmat –e'tiborga va nufuzga ega bulganlar. Shu sababli, «Alpomish» dostonining variantlari xam kup.Chunonchi, xozirgi kungacha jumxiriyatimiz xududida bu dostonning uttizga yaqin variantlari yozib olingan bulib, ular ichida eng mukammali, goyaviy-badiiy jixatdan eng yuksagi Fozil Yuldosh uglidan 1928 yilda yozib olingan variantidir. Shuning uchun xam dostonning shu varianti uzbek va rus tillarida kuplab marta nashr etilib, keng kitobxonlar ommasi tomonidan sevib ukilib kelinmoqda. Chunki «Alpomish» dostonida Xalqimizning kaxramonona utmishi, yanada aniqroq aytadigan bulsak, urugchilikning yemirilishi davrida chorvador Xalqimiz xayotida davlatchilikning paydo bulishi davrining munosabatlari, ijtimoiy-siyosiy xayoti, udumlari axloq-odobi, qardoshlik tuygulari, kurashi, uy-fikrlari, orzu xavaslar yorqin ifodalangan.«Alpomish» dostoni ikki qismdan iborat bulib, unda uzbek Xalqimizning qabilachilikdan feodalizmga kuchish, feodalizmning dastlabki kunlari tas'virlangan.

Dostonning mazmunidan ma'lum buladiki, uning birinchi qismida oila uchun kurash g'oyasi, ikkinchi qismida esa urug birligi uchun, uz elining or-nomusi uchun kurash g'oyasi ilgari surilgan. Doston syujeti un olti urug Kung'iro't elida Alpinbiyning ugillari Boyburi va Boysarilarning farzandsizlik dogida iztirob chekib yurishi va dostondagi an'anaviy motivga kura, xudo Boyburiga egiz bilan boshlanadi. Mana shu farzand kurish voqrasidayoq Xalqimizning an'anaviy udumlari suyunchi olish, tuyga tayyorgarlik, maslaxat oshi va tuy utkazish udumlari yorqin ifodalanganini kuramiz. Chunonchi: «Boylar shul vaktida ovdan kaytdi :bu yokdan shul vaktida farzandlar yer yuziga tushdi. Bir nechalar boylarning oldiga chikib, suyunchi oldi: Biylar vakti ziyoda xush bulib, manzilga kelib joy olib, xar tarafga xabar yuborib, tuy- tomosha kilmoqchi bulib, choglanib, sozlanib, un olti urug Kung'iro't elining katta kichik biylarini, oksokol arboblarni yig'dirib, tuy qilamiz deb maslaxat qildi. Xamma mamlakatda ovoza bulib, eling-yurting katta-kichiklari kulluk bulsinga kelib, dustlari shodmon bulib, dushmanlari g'amgin bulib, ilojini topolmay, g'amgin bulsa xam, xech kim (yuragini) yorolmay, bular xam kulluk bulsinga kelaverdi,. Un olti urug Kung'iro't urugining odamlari, eshitgan xaloiqlar gurros-gurros bo'lib kelaberdi. Katta-kichik kelib, tuyni asboblarni tuzatib, kancha sukim mollar suyib, osh-palovni damlab, fukarolar tuyib, shu asnoda kirk kecha-yu,kunduz tuylab yotdi. Shu kichik parchada keltirilgan an'anaviy udumining ne xayotiyligi, Xalqimiz onggi va odati chuqur singib ketganligini ularning xozirgi davrining yashab, davom etib kelayotganligidan xam anglash mumkin.

Xalq dostonlarida milliy an'analar, urf-odatlar, insoniy kadriyatlar doim ijobiy obrazlar xatti-xarakat bilan bog'lab tasvirlanadi, ular timsolida mardlik, tugrilik, adolatparvarlik, vafodorlik, xalollik birinchi uringa kuyiladi. Qaysi davr dostoni, qissasi yoki yozma adabiyoti na'munasi bulmasin, ulardan insoniy qadriyatlar ulug'lanadi. Masalan: »Alpomish» dostonida sevimli yor, oila va urug birligi yuli kursatilgan mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, turli ellar va Xalqlar birdamligi, dustlik va samimiyat uluglangan. Xalqning qaxramonlik va mardlik xaqidagi ideallari sodiq do'st, vafoli yor, oqibatli jon-jigar to'g'risidagi orzu-umidlari dostonining asosiy ijobiy qaxramonlari Alpomish, Barchin, Qorajon, Qultoy, Yodgorlar timsolida tas'virlanadi. Xalq ularni o'z

dushmanlariga qarshi kurashda har ishga qodir, jismoniy baquvvat, ma'naviy yetuk qaxramonlar qilib yaratgan. Masalan: Qo'ng'iro't urug'i boshliqlari Boybo'ri va Boysarining bolalari Xakimibek va Barchin ajoyib, g'aroyib sharoitlarda tugiladi va yoshligidayoq Shoxmardon pirim tomonidan unashtirildi. Xakimbek yoshligidanoq bahodirona ishlarga qodir bo'lib, o'sdi va yetti yoshdayoq bobosi Alpinboydan qolgan o'q kamonli sari yoydan otib, Askar tog'ining chuqqisini uchirib yuborggani uchun Alpomish nomini oladi va tuqson alpning biri bo'lib qoladi.

Alpomishning asosiy jasorati, qaxramonlik zakot talab qilganligi uchun akasi Boyburidan arazlab, o'n besh kunlik masofada Qalmoq yurtiga, Kashal yurtiga kuchib ketgan.

Dostonning xam birinchi va xam ikkinchi qismidagi Qalmoq lashkariga qarshi kurashda Alpomishning adolatparvar, oddiy odamlarga jonkuyar va xayrixox, bechoralarga madadkor ekanini kuramiz. Zero, Alpomish qalmoq yurtiga boskinchilik kilish uchun emas, balki Qalmoq shoxi tomonidan mol-mulkni tortib olinib, uzi xizmatkor kilingan Boysariga madad berish va uni Boysunga olib kelish uchun boradi. Xar ikki xolda xam Qalmoqshox lashkari unga xujum kilgani uchun dushmanga karshi jangga o'tlanadi. Demak, adolatga qarshi kurashadi.

Ikkinchi jixatdan bu kurashda Alpomish shu yerdagi progressiv kuchlarga tayanadi. Bular Qalmoq yurtining malikasi tovka va oddiy chupon Kaykubot. Ular Alpomish zindonda yotganda va undan kutulib chikishida katta yordam beradilar. Bunda odamga odam dust bulib, yaxshilik kilishi, sadokat va muruvvat kur satishi kerakligi targib kilinadi. Bu ulug' insoniy fazilat Alpomish Toychaxonni mag'lubiyatga uchratgach, Kaykubotni uning urniga podshox kilib tayinlaydi va taxtni egallaganini konunlashtirish uchun Toychaxon kizi Tovkani Kaykubotga xotinlikka olib beradi. Demak, Kaykubotning Qalmoq eliga shox kilib tayinlanishida shu ulkaning Alpomish boshliq Qung'iro'tliklarga tobe kilinishi va shu yusinda markazlashgan Qung'iro't davlatining tashkil topayotganini kurish mumkin.

Nazorat topshiriqlari:

1. Alpomish dostonida uzbek Xalqining qanday kunlari tasvirlangan?
 - A) Qabilachilikdan feodalizmga kuchishi,
 - B) Feodalizmning dastlabki kunlari,
 - V) Utmish Xalqlarning orzu xavaslari,
 - G) A va B javoblar tugri.
2. Alpomish qalmoq yurtiga nima uchun boradi?
 - A) Boysariga madad berish uchun,
 - B) Boysarini Boysunga olib kelish uchun,
 - V) Qalmoq shoxidan kutilish uchun.
 - G) A va B javoblar tugri.

2-asosiy masala buyicha ukituvchining maqsadi: «Alpomish» dostoni va uning tarbiyaviy axamiyatini yoritib, uning boshqa dostonlardan axamiyatli tomonini aytib berish, dostonlardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari, usullarixaqida suzlab berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Alpomish dostoni va uning tarbiyaviy axamiyatini yoritadilar.
2. Alpomish dostonini boshka dostonlar bilan takkoslaydilar.

2-asosiy savolning bayoni:

Alpomishdagi chinakam insoniy fazilatlar, uning zulm va razolatga qarshi kurashi, jasur va jismoniy baquvvatligi qalmoq paxlavonlaridan biri Qorajon bilan dustlashishga sabab buldi. Masalan: Qorajon, Alpomish bilan dustlashib, o`z uyida mehmon qilib turganida onasi Surxaylning mehmonni yoqtirmay, aytgan gaplariga javoban shunday deydi: o ulguncha yaratganga rost buldim, Uz fe'limdan chupu xasdan past buldim, udoni urtaga solib dust buldim,

Shu suzlarning uziyoq Korajonning Alpomishga samimiy va sodik dustligidan, unga xech qachon xiyonat qilmasligidan dalolatdir. Xaqiqatdan xam dostonda tasvirlangan voqealar shaxodatiga ko`ra, Alpomish bilan Qorajon dustligi adolat va xaqiqat, ozodlik va tenglik, inson xo`quqi va nomusi uchun kurashda borgan sari mustaxkamlanib, Barchin shartlarini bajarishga, qalmoqlarning tuqson alpini yengishga, Barchin yorini olib, uz yurtiga keltirishga madad beradi.

Masalan: Barchin kuygan shartlarning ikkitasini Alpomish nomidan Qorajon bajaradi: qirq besh kunlik poygada qatnashib qalmoq alplarining jabru-zulmiga karamay birichi bulib yetib keladi, bir kam tuqson alp bilan kurash tushib, barini yengadi.

Dostonda anashu kurash lavxalari goyat jonli va jozibali tas'virlangan. Chunonchi, Qorajon bilan alplar kurash tushib, barini yengadi.

Doston ana shu kurash lavxalari g'oyat jonli va jozibali tasvirlangan. Chunonchi, Qorajon bilan alplar kurashidan bir lavxani kuzdan kechiradi:

...Achchiqlanib tag`i qalmoq keladi ,
 Qorajoning ishin bari kuradi .
 Qaxrlansa toshni yorar qaxri,
 Tuqson norning go`shti bulmas naxori.
 Xar iziga ketar ancha bahori,
 Shunday qalmoq kelib kirdi maydonga,
 Jafolar solgandir, tandagi jonga,
 Xazon bulsa zog`lar qo`nar gulshanga,
 Dusor buldi Qorajonday polvonga,
 Ushlagandan buni otdi osmonga.
 Tag`i ham bir qalmoq keldi maydonga,
 Oltmish qari olachadan bir qari,
 Tuqson kuyning terisidan telpagi.
 Shunday qalmoq kelib kirdi maydonga
 Qorajonbek juda g`ayrat qiladi.
 Qaysarday bub, bul olishib turadi.
 Keyniga qayirib yerga uradi,
 Kelgan qalmoq armon bilan uladi.
 Dusti uchun juda xizmat qiladi.
 Qorajondan bekning kungli tuladi.
 Kelgan qalmoq sira omon qolmadi.
 Qorajonbek uzi tanxo turibdi.
 Qorajonbek yolgiz kiladi ishni,
 Qalmoq tarafidan tagi yetishdi,
 Qalmoqlarning bunda xolin biladi.

Maydonga kelgani Qolmay uladi.

Xullas, dostonda Alpomish bilan Qorajon urtasidagi dustlik xaqqoniy va xayajonli lavxalarda zur mahorat bilan tasvirlangan bulib. Qorajon obrazi orqali turli elatlar urtasidagi insoniy fazilatlar – sadokat, shiori edi, samimiyat, mexr-vafo bilan janbozlik, qat’iylik uluglanadi.

Doston Alpomishning qahramonlik ishlarida. Yori Barchin va singlisi Qaldirgoch kabi yetakchi obrazlar ham madadkorlik qiladi. O`z eliga va yurtiga muxabbat, o`z oilasi, yori va jon – jigarlariga sadoqat, mustaqilliq va jasorat bu obrazlarning ichki mohiyatini tashkil etadi.

Ular yuksak insoniy fazilatlari, akq-farosat, urinli va keskin xatti-xarakati, jasur va qurqmasligi, tadbirkorligi bilan Alpomish va Qorajonni qahramonlikka undaydi. Chunonchi, Barchin g`oyat yoshlik chog`dayok, erkin fikr yuritadigan, ota-onasining xatti-xarakatiga, norozilik bildirishga uzida jur`at topadigan obraz sifatida nomoyon buladi. Un ming uyli Qngirot urugining Kashal yurtiga kuchishini kupchilik ma`qllab turgan bir paytda, Barchin bunga karshi chiqdi . Bu xarakati bilan u Alpomish g`oyasini qllab-qvatlaydi. Chunki, Boysari boshliqun mingli Qngirot urugi Boyburiga zakot tulashdan bosh tovlab, Kashal yurtiga ketayotgan edi, ular zakotga karshi edi. Barchin esa, elni kuchmaslikka targib kilar ekan, u Boysariga zakot tulatib, shu yerda tarafdori. U qlmoq yurtiga kuchish yomon oqibatlariga olib kelishini oldindan sezib, bu ishda onasini ayblaydi va undan madad suraydi:

Uyilmay kuymasin kulbayi xonam,
Ox urib, yig`laydi mendayin sanam,
Qalmoqqa qolarda, guldayin tanam
Xuja kelsa chiqar murid nazari,
Xotin bulmasmikan erning vaziri.
Er deganning aqli o`lmas bulurmi.
Aldab-suldab yulga solmas bulurmi.
Boy otamman biy boboma ne buldi.
Ena, eshit meni aytgan suzimni .
Zafaronday suldirmagil yuzimni,
Qalmoq bulib, quldan berma kizingni.

Bu epizotdan shu xaqiqat aniq kurinib turibdiki, qadim-qadimdan uzbek oilasida ayol ering ung kuli, maslaxatguyi, yarim pir, jufti xalol degan milliy an`ana xotinga ishonch va sadokat udumiga ishora kilinayapdi.

Barchin marlik va dovyuraklikda, uz kuch-kudratini nomoyon kila bilishda, Toychaxon alplariga, teng keladigan botir, jismoniy jixatdan yetuk alp va guzal kiz sifatida tas`virlanadi. Chunonchi, tukson kalmok alpidan biri Kukaman Barchin utoviga kelib, ota-onangni uldirib, men seni zurlikdan olarim bordir deb, duk pupisa kilganida, Barchin unga shunday dadil javob beradi:

Har so`zimni olaverding qiyoma,
Qulingdan kelganin qilaver ayama.
Meni olmoqqa xadding bormi qalmoqlar,
O`z yuliga boravergin badbaxtlar.
Oti Alpomish yorim bordir.
Maqasda shunqorim bordir,

Elda zuraborim bordir,
 Qatordagi norim bordir,
 Chilla kirganda mast bulgan,
 Xatapaga boshin urgan,
 Ne zurlarni dodin bergan,
 Kungirotda qaysarim bordir,
 Xabar bersa, bek Alpomish kelmasmi,
 Xonim kelsa senday qilmoq ulmasmi,
 Xoling bilib tugri yursang bulmasmi,
 Kelsa-kelar ko`ng`irot elidan Alpomish,
 Kelmasa men taqdirimdan kurarman,
 Erkak libosini uzim kiyarman.
 Bor kuchimni bilagimga jiyarman.
 Qirk mingingni bir deb sanab, kirarman,
 Meni olmoqqa xadding bormi badbaxtlar.

Doston syujetidagi bundan keyingi voqealar tasviri Barchin aytgan so'zlar quruq duk bulmay, xakikat ekanini tasdiklaydi. Zotan dostonda tasvirlangan Barchin Kaldirgoch va boshka obrazlar afsonaviy bulmasdan, utmish xayotning tarixiy negizi asosida, yaratilgan ideal obrazlardir. Shu ma'noda Barchinning uz takdirini uzi xal kilishi uchun bulgan intilishlari kabilachilik davridagi matriarxat xayotning davomidir. Barchinning voeyaga yetishi bilan oilada berilganxukuk, turmush yuldosh tanlash erki, jamoat, Xalq xayotida faol katnashish , ota-onasiga uz fikr muloxazasini aytish voqealari uning kuchmanchi Xalq kizi ekanidan dalolat beradi. Masalan, Boysari kalmoklar yurtiga kuchib kelganidan keyin, kalmok shoxining tukson alpi, Barchinga sovchi bulib kelganida , avval karindoshlaridan maslaxat suraydi. Ular, bu yerga uzing boshlab kelding, endi «tortinmay beraber kizingni» deb maslaxat berishadi. Boysari nima kilarini bilmay turganda, kizi Barchinoy unga murojat etadi.

Juda xam gangidi, boy ota boshing,
 Maslaxat berdiku kavmu karindoshing,
 Kup yiglama, jonim otam, darveshim,
 Eshitmagin karindoshlar suzini,
 Kuyov kilsin tukson alpning uzini,
 Karindoshlar bera bersin kizini,
 Sen yiglading ota kunglim buzildi,
 Diyda giryon bulib bagrim ezildi ,
 Xafa kilma ota menday kizingdi,
 Kuya ber alplrga mening uzimni,
 Kalmoklarga javob bermogim darkor,
 Xafa bulsang , mening kunglim buzilar,
 Ul alplarga men bularman barobar,
 Xafa bulma, ota, uzimga boshkar,
 Jazosini kurib ketsin kalmoklar,
 Yarashikka men zulfimni tararman,
 Kalmoklarga gapirmoka yararman,
 Nima desa, ota javob berarman,

Xafa bulma, ota, kungling surarman.

Bu gap Boysariga makul kelib, un ming uyli Kungirotdan chikarib, Barchinning utovini kutarib, ovlok tepaning boshiga kutarib kuydi. Bul utovda Kirkin kanizagi Bilan Barchin utirdi. Shunda Sovchi bulib kelgan 90 alpni ixtiyoriga yullab, Boysari shunday dedi: « Biz maslaxat kilib, yil agdarib kurdik, kizimizning yili sichkrn ekan, yoshi 14 ga chikkan ekan, bizning uzbekning rasmi shunday buladi. Kiz 14 ga chikkan sung uz ixtiyori uzida koladi, Bizning aytganimizga kunmay, tepaning boshiga utovni tikib utiribdi. Uzga boringizlar, uzdan surangizlar, biringizgi tegarmi, baringizga tngarmi, uzidan surangizlar...

Shubxasiz, feodalizm jamiyatida ota xukmi, xudo xukmi, «Kiz ota-onaning, urning kuli» degan konun – koida xukm surgan bir davrda Barchin otasi tomonidan aytilgan bu gaplar erish tuyuladi. Lekin doston kuylovchi Fozil Yuldosh tinglovchilar diqqatini jalb etish uchun odatdan tashkari vokelarni tasvirlaydi, Qadimgi utmish materxiar zamonlarga murojat kiladi. Shoir Barchin jamiyatning reng xukukli azosi sifatida kuylab uning jismoniy bakuvvat uzun buyli, barvasta kiz kabi tasvirlaydi. Shuning uchun xam Barchin uz xukukini yaxshi biladi, uz Elida kolgan suyuqli yori Alpomishga e'tikod Bilan umid boglaydi va sovchi bulib kelgan alplarga dadil javob qaytaradi.

Xullas Alpomish dostoni turkiy Xalqlar urtasida keng tarkalgan bulib, unda ilgari surilgan muxim goyalar, ijobiy kaxramonlar timsolida mujassamlashgan insoniy fazilatlar, milliy kadriyatlar xozirgi yosh avlodni tarbiyalashda, ular orqali borayotgan kadriyatlarimizni, udumlar va urf-odatlarimizni tiklashda muxim axamiyat kasb etadi.

Nazorat topshiriqlari

1.1. Barchin kuygan shartlarni ikkitasini Alpomish nomidan kim bajardi?

- A) Kukaman
- B) Kukaldosh
- V) Boyburi
- G) Korajon

1.2. Barchinga sovchi kuygan yetti alpning onasining ismi kim edi?

- A) Toychaxon kizi
- B) Tovkaxon
- V) Surxayl kampir
- G) Toychaxon kizi Tavkaxon

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Uzbek pedagogikasi antalogiyasi. T. "Ukituvchi", 1-jild 1995 y, 2-jild 1999 y.
2. Xalq pedagogikasi-inson kamolotining asosi. 1-5 kitoblar. T. 1992y.
3. Uzbek Xalq ertaklari. T. "Uktuvchi" 1988 y va xk.

**12-MAVZU: XALQ QO`SHIQLARI TARBIYA VOSITASI
ma`ruza mashg`ulotning texnologik xaritasi**

T'r bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi ma'sul
1-bosqich	Dars maqsadi Qadimgi urf-odat, udumlar moxiyatini kelajak avlodga yetkazishda Xalq kushiklarining urni. Identiv maqsadlar: -Talabalarga tariximizni, utmishimizni eslatib, uzligimizni anglab olishiga kumaklashish. -Talabalarga Xalq kushiklari orqali estetik zavk bagishlashdan tashkari, axloqiy shuruni xam uygotish.	O'qituvchi
2-bosqich	Asosiy tushunchalar: Xalq, kushik, insonparvarlik, mexr-muxabbat, rostguylik, ezgulik, turmush, salbiy xislatlar. Dars shakli: guruxda ishlash. Vositalar: proektr, kompyutr, ko'rgazmalilar. Metod va usullar: amaliy mashg'ulot, ko'rsatish, tushuntirish.	O'qituvchi
3-bosqich	Guruhda ishlash. - Qo'shiqlarning tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirdi. - Milliy qo'shiqlarga misollar keltiradi. - Shu asosda ijtimoiy-ruxiy konuniyatlarning yuz berish negizini bilishga intilganlar.	Talaba
4-bosqich	Mustahkamlash va boholash uchun savollar: - Qadimgi kushiklardan bizga kuprok kimning asarlari orqali yetib kelgan? -Qadimgi urf-odat, udumlar moxiyatining kelajak avlodga yetkazishning eng samarali yuli?	O'qituvchi-talaba
5-bosqich	Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish: Maqsadga erishildi. Vazifalar bajarildi. Mustaqil ish topshiriqlari qilib ,talabalarga adabiyotlarni taxlil qilib kelish topshirildi.	O'qituvchi

Asosiy savollar.

1. Qadimgi urf-odat, udumlar moxiyatini kelajak avlodga yetkazishda Xalq kushiklarining urni.
2. Xalq qo`shiqdarida axloqiy-falsafiy goyalarning yetakchililigi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Xalq, kushik, insonparvarlik, mexr-muxabbat, rostguylik, ezgulik, turmush, salbiy xislatlar.

Identiv o'quv maksadlari.

1. Talabalarga tariximizni, utmishimizni eslatib, uzligimizni anglab olishiga kumaklashish.
2. Talabalarga Xalq kushiklari orqali estetik zavk bagishlashdan tashkari, axloqiy shuuruni xam uygotish.

1-asosiy savolning bayoni:

O'zbek Xalqimizning uzok asrlar davomida kuylab kelayotgan ko'shiklari aloxida e'tiborga loyik. Zotan, Xalq ifodasi sifatida bitilgan ko'shiklarning deyarli xammasida insonparvarlik kadrlanadi, kasb-xunar,xalol mexnat uluglanib, targib kilinadi.Rostgo'ylik insonga mexr-muxabbat bilan karash,do'stlik,vafodorlik kabi oliyjanob fazilatlar birinchi o'rinda turadi. Xatto Maxmud Koshkariyning "Devoni lug'oti turk"asari orqali bizgacha yetib kelgan qadimgi Xalq ko'shiklarida xam axloq odob mavzui yetakchi o'rinni egallaydi

Qadimgi odamlar o'z xayotiga xos turli ijtimoiy-ruxiy konuniyatlarni,ijtimoiy xodisalar bilan chogishtirib, ular o'zaro bir-biriga boglik tarzda yuzaga chikib,amal kiladi deb tushunganlar. Shu asosda ijtimoiy-ruxiy konuniyatlarning yuz berish negizini bilishga intilganlar. Shu boisdan ular o'z xayotlari davomiga tabiatga xos turli-tuman xodisalariga,predmetlarga siginganlar, ularga e'tikod bilan yondoshganlar. Xatto ular o'z kelib chikishlarini tabiatdagi ayrim narsalarga boglaganlar. Jumladan, qadimgi odam o'z ajdodlarini ayrim o'simlik va daraxtlardan, keyinchalik esa ayrim xayvonlardan tarkalgan deb tasavvur kilgan va ularni mukaddas bilishgan.Buning sababi shundaki, ibtidoiy odam o'z turmush tarzida turli xil daraxt va o'simliklardan yashashning zaruriy vositalari:ozik-ovkat,kiyim-kechakdan isitish manbai sifatida unumli foydalangan. O'z kundalik turmushi uchun zarur bo'lgan ro'zgor buyumlarini yasagan, uy-joy kurishda ishlatgan.Shunday xayotiy extiyojlar qadimgi odamlar kalbida o'simliklar va daraxtlarga nisbatan chukur xurmat tuygusini uygotgan. Ularda muxabbat bilan adolatli munosabatda bo'lish tuygusi ravnak topgan. Bu munosabatning ilk kurtaga esa daraxt va o'simliklarni "tangri yoxud tangridan ajralib chikkan bir parcha " deb karab dastlabki odamning kelib chikishi bilan darvaxt topinchi boglash xaqidagi tasavvurlarga xam borib takaladi. Shu tarika zaruriy turmush extiyojlari uchun o'simlik va daraxtlardan foydalanish daraxt va o'simliklar tangrisining o'z avlodiga ko'rsatgan "marxamati" deb tushunilgan.

Ibtidoiy inson odamning ruxi tug'ilganga kadar xam, o'lgandan keyin xam daraxda saklanadi. Daraxtlarga insonlardek, doimo jonli va xarakatda deya siginganlar. Bu fikrlarning tasdigi va ishonchini esa, o'simlik va daraxtlarning fasllarda o'zgarib turishida kurganlar. Shuning uchun ibtidoiy inson, ioji boricha ularni bemaksad chopib, kesib, sindirib o'zlarini "azob"dan saklab kolishga intilganlar. Ularni xafa kilib ko'yishdan cho'chiganlar.Birok inson tafakkurining rivojlanishi natijasida bu fikrlari o'z kuchini yo'kotib,shu tushunchalarining izlari Xalq ijodida ramziy obrazlilik kasb etib, saklanib koladi. Shuning uchun Xalq ogzaki ijodi asarlarida odatda, insin va o'simlik, daraxt obrazlari teng keltiriladi. Go'zal kizlar kizil gulga, botir bakuvvat yigitlar –chinorga, oshiklar xolati-majnuntolga ruxiy nisbat berib kiyoslanadi.Demak, ota-bobolarning e'tikodlarini, turmush tajribalarini ko'z korachigidek asrab kolish,eng muximi, ularning tajribilari axloqiy-ma'naviy zamin bo'lganligi uchun unga amal kilish,kolaversa, keyingi avlodga xam yetkazish kerak.

Qadimgi ishonch-e'tikodlar, urf-odat, udumlar moxiyatini kelajak avlodga yetkazishning eng samarali yo'li Xalq og'zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanishdir. Chunki Xalq og'zai ijodida saklanib kelayotgan turli ramziy obrazlar insoniyatning tabiyat va jamiyat xodisalariga bo'lgan ilk, oddiy

tasavvurlarini zuxur etadi. O'tmishimiz bilan hozirimizni bir-biriga chambarchas boglab turadi. Tariximizni, o'tmishimizni eslatib, o'zligimizni anglab olishimizga ko'maklashadi. Ular o'kuvchilarga jstetik zavk bagishlashdan tashkari axloqiy shuurini xam uygotadi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Qadimgi qo'shiqlardan bizga ko'proq kimning asarlari orqali yetib kelgan?
 - A) Yusuf Xos Xojib,
 - B) Maxmud Koshgariy,
 - V) Axmad Yugnakiy,
 - G) Komil Xorazmiy.
2. Qadimgi urf-odat, udumlar moxiyatining kelajak avlodga yetkazishning eng samarali yuli?
 - A) Mutaqakkirlar fikrlari,
 - B) Turli xil asarlar,
 - V) Xalq ogzaki ijodi na'munalaridan unumli foydalanish.
 - G) Baryaa javoblar tugri.

2-asosiy masala bo'yicha o'qituvchining maqsadi: Talabalarga xalq qo'shiqlarida axloqiy, falsafiy, goylarning axamiyatini tushintirib, ularni asoslab berishga urgatish.

Identiv o'quv maqsadlari

1. Xalq qo'shiqlari haqidagi uz tushunchalarini aytadilar.
3. Xalq kushiklarining falsafiy – axloqiy goylarini bir-biriga takkoslaydilar.

2-asosiy savolning bayoni

Xalq qo'shiqlarida oila va oilaviy munosabatlar mavzui bexad ko'p ko'llanadi. Shu maksadda Xalq o'z ko'shiklarida ro'mol, ko'ylak, belbog', do'ppi, telpak, singari erkaklar va ayollar buyumlarini ramziylashtirib, "oilal, turmush" poetik ma'nolarini ifodalab kelgan. Buning sababi oilani erkak va ayol tashkil etganligidir. Shunga ko'ra, Xalq ko'shiklarida oila ramzini ifodalash va shu orqali kiska satrlarda katta, umumlashma ma'noni berish niyatida ko'pincha erkak yoki ayolning biror buyumi poetik obraz vositasida ko'llangan:

Atlas ko'ylak kiymayman,
Chok-chokidan ketadi.
Kundoshlikka tegmayman,
Kunda tashlab ketadi.

Ma'lumki, atlas ko'ylak – ipak tolasidan tayyorlangan muloyim va nozik gazlamadan tikiladagan o'zbek ayollarining milliy kiyimi. O'zbek kizlari kelin bo'lganlarida, albatta, bu matodan ko'ylak kiydiriladi. To'ylarda kuyovning kelinga kilgan sarpolari ichida, so'zsiz, atlas (shoyi) bo'lad. Xalq ning urf- odatlari, ular kalbining ko'zgusi bo'lgan ommaviy ko'shiklariga xam kirib kelgan. Demak, atlas ko'ylak kshprok kelinlar, o'rta yoshli ayollar kiyib yurgani uchun oila, sevgi ramzi sifatida poetik ma'no kasb etgan.

Yukoridagi ko'shikda "atlas ko'ylak" ramziy birikmasining "oila, sevgi" timsolida kelayotganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Unga atlas ko'ylak ipakdek muloyim va nozik gazlamadan tikilgani tufayli, undan foydalanishda extiyotkorlikka jiddiy e'tibor berish zarurligi ta'kidlanmokda. Chunki agar atlas ko'ylak betartib tikilsa, darzi chok-chokidan ketib kolishidan ogoxlantirilmokda. Ko'shikda shu real xodisaga timsoliy tus berilib, atlas ko'ylak-oila ramzida ko'llangan va unga bog'lik ravishda lirik kaxramonning ruxiy xolati ochib berilgan. Lirik kaxramon xotie ustiga kundosh kilib xotitn oladigan kishiga turmushga chikishni xoxlamaydi. Chunki u oila masalasining nozikligini yaxshi tushunadi. Kolaversa, uningsh ko'ngli xam atlas ko'ylak ipagi kabi nozik. Kundoshlik xayotining joriy sitamlari bu nozik ko'ngilga ozor yetkazishi mumkinligini kundoshli xayot bamisoli "sherikli osh" ekanligini u yaxshi angelaydi. Ko'shikda kundoshli oila o'z-o'zidan darz ketishga maxkumligiga ishora kilinadi.

Ma'lumki, sog'lom oila muxiti mamlakatimizning, xayotimizning kelajagi bo'lgan yosh avlodni tarbiyalab yetishtirishning zaruriy shartidir. Shunday ekan, bu masalaga o'z kelajagimizga befark karash juadayam katta gunoxdir.

Kuy kelganda ko'zini ko'ring,
 Bir-birining izini ko'ring.
 Xamsoyaning kizini ko'ring,
 Bizga kilgan nozini ko'ring.

Ushbu ko'shikda farzand timsolida tug'ilib, voyaga yetgan, tarbiyalangan muxit muxim rol o'ynaydi va Xalq orasida uchraydigan "Ot o'rnini toy bosar", "onasini ko'rib kizini ol" Kabilidagi makollarga ishora kiluvchi fikr "ko'y va ko'zi" xamda "xamsoya va kizi" obrazlarini o'zaro kiyoslash asosida bayon kilinadi.

Sog'lom oilaning asosida xamisha pok va samimiy muxabbat, ishonch, vafodorlik kabi ajoyib, oliy insoniy tuygular yotadi. Shularning ichida eng muximi pok vasamimiy muxabbat bo'lib, uinson kalbining noyob-ardokli tuyg'usidir.

Kizil gul bargi bo'zlay,
 Doim oldingda turay.
 Agar bevafo bo'lsang,
 Ishkingda kuyub o'lay.

Ko'shikdagi "kizil gul" xam senvgi, muxabbatning ramziy ifodasi, xam "yor ma'shuka" ning ramziy obrazi sifatida ifodalanib kelayapti. Lirik kaxramon u orqali yoriga murojaat kilib, o'z dil izxorini, kalb tugyonini izxor etayapti. Yorini vafodorlikka, sadokatlikka undab birgalikda turmush kurish taklifini bayon etayapti.

Xalqimiz xamisha o'z kizlaridan iffatlilikni, or-nomuslilikni, sevgida vafodorlikni, hayotga akl ko'zi bilan karashni, yigitlardan esa magrurlikni, mardoikni, to'griso'zlikni va labzi xalollikni talib kiladi. Ularni noyob-ardokli tuygu-muxabbatni asrab -avaylashga da'vat etadi:

Asra kizil gulingni,
 Sakla kizil gulingn,
 Baxosiga yetmasa,
 Uzma kizil gulingni.

Albatta, asrab-avaylagan, kadrlangan muxabbat kishini baxtga yetaklaydi. Ko'shikda yoshlarga nisbatan: "Muxabbatingni asra, extiyot bo'l, uto pishib

yetulganga kadar oila kurishga shoshilma. Umr savdosi shoshma-shosharlikni xazm kilib bo'lmayd, degan fikr ilgari suriladi.

Xususan, Xalqimiz bu masalada kizlarga juda ko'p yuksak ma'suliyatni yuklaydi. Ulardan sha'n, sharmu xayo talab kiladi. Xalqimiz ularning gulday nafis va chiroyli, oyday to'lin, sutday pok bo'lishi xaqidagi orzularini kuylaydi va akliyl xushyorlikka undaydi.

Nojo'ya yo'lga kirgan ayollarning borib-borib bir kuni, albatta pushaymon yeb:

Bilmiay bosdim tikonni,
Tortadirman jabrini.
Bilsam edim, bosmas edim,
Tortmas edim jabrini.

-deya alam bilan o'kinishlari tabiiydir.

Umuman ayollarning nojo'ya xatti-xarakatlarini Xalq keskin koralagan, xatto o'limga maxkum kilgan.

Ko'shiklarda tumushda ,turli toifadagi kishilar o'rtasida uchraydigan munosabatlar, karama-karshiliklar, ziddiyatlar o'zining yorqin ifodasini topadi:

Sa'va degan kushchaga
Maxsar bersang sayraydir.
Savdogarning kizlari
Akcha bersang karaydi.

Bu ko'shikda tarbiyasiz, odobsiz, ochikuz kizlar tankid kilinadi. Ularni iffatsiz va tekin tomokligi kinoya yuli bilan keskin fosh etiladi. Kushikda bunday kizlarning obrazi sa'va obrazi bilan kiyoslanadi. Chunki sa'va chumchuksimonlar turkumiga mansub, rang- barang patli sayroki kush bulib, u kupincha maxsar degan urugidan moy, gulidan buyok olinadigan tup gulli bir yillik usimlikni xush kuradi. Kushikda shu real xolatga ramziy tus berilgan va unga yana boshka real xolat chogishtirilgan. Shu asoda kushikning asosiy mazmuni ochilib utkinchi boylikka, mol-dunyoga xirs kuyish xolati keskin tankid kilinadi. Bu kushik garchi utmish davrida yaratilgan va usha davrda yashagan, mol dunyoga uch bulgan kishilarning kizlariga karatilgan bulsa-da, uning tarbiyaviy axamiyati xozirgacha uz kadrini yukotmagan.

Xalqimiz kishilarning uzaro salomlashish madaniyatiga xam jiddiy e'tibor berdi. Shuning uchun "Inson odobining boshi-salomdan" deb aytiladi. Salomlashish, xam ota-bobolarimizdan kolgan udum bulib, u insonga xurmatini, e'tiborini bildiradi. Salomlashish kishilarni uzaro bir-biriga yakinlashtiradi, ular kalbida mexr-okibat tuygularini ustiradi. Salomlashishning kishilar urtasid auziga xos tartib va talablari mavjud. Ularga rioya kilish - kishining madaniyatlilik darajasini nomoyon kiladi. Salom-aliksiz yuradigan kishi odamlarning kuziga juda yomon kurinadi. Bunday odamlarning xurmati xam uziga yarasha buladi:

Aka, yoringni kurdim,
Kuchada turgan ekan.
Egilib salom bersam,
Tili yuk xayvon ekan.

Ota-onaga muxabbat tuygusi Vatan tuygusi bilan chambarchas boglikdir. "Ota-onaga intilish - Vatanga intilish", "Vatanga intilish-ota-onaga intilish"

demakdir. Ota-ona uyning “boshi” , oilaning kurkidir. Xalq kuydagi kushikni bekorga aytmagan:

Kizil gul taram-taram,
Davlatim ota-onam.
Yor degan kungil xushi,
Topilmas ota-onam.

“Xotin yulda, farzand belda, ota-ona, ogayni kayda?” deganlaridek, ota va ona kishi uchun birmarta beriladigan, qayta topilmas “davlatdir”. Ularni e’zozlash , asrab-avaylash xar bir farzandning burchidir. Xalqimiz “Ota-onaga kilganingni tortasan” deb bejiz aytmagan. Chunki, “Toshu-tarozili” bu dunyoda odam ota-onasiga nisbatan nojuya xarakat kilsa, uni albatta, farzandlardan tortishi Xalq amaliyotida isbotlangan.

Xalqimiz azaliy shakllangan an’ana-farzandning ota-ona maslaxati bilan ish yuritishdagi ma’kulligidir. Chunki tajribali ota-ona uzokni kura biladi. Ba’zan biz Xalq ijodida shunday kushiklarni xam uchratamiz:

Arik buyini uydim,
Kulimga xino kuydim.
Ota-onamdan kechib,
Yor, senga bino kuydim.

Bu kushikda lirik kaxramon xayotda uzicha mustakil yul tutib, ota-onasidan kechib, sevishgan yoriga ularning roziligisiz turmushga chikkanligi kuylangan.

Xalqimiz xamisha tekinoxurlikni, ochkuzlikni, molparastlikni uz manfaatini boshkalar manfaatidan ustun kuyishni koralab, mexnatsevarlikni. Xalollikni uluglab, ardoklab keldi.

Inson baxtni mexnatdan topadi. Mexnatsevar kishi doimo el e’zozida buladi, obruga erishadi. Buni yurak-yurakdan xis kilgan Xalqimiz shunday kuylaydi:

Suv okaru, suv okar,
Suv tagida kum okar.
Vatan xizmatin kilgan,
Insonga omad bokar.

Yoki:

Baxor chogi korlar erib, soy bulgay,
Mexnat bilan xar bir inson boy bulgay.

“Mexnat kilgan-elda aziz”, “Mexnatning tagi roxat” degan Xalq iboralari xam bekorga aytilmagan. Xalqimiz axloqiy talablarga buyin egmaydigan, mexnatsiz turmushni xush kuradigan dangasalarni tankid kiluvchi kushiklar yaratgan”

Ishlagan roxat kilib, osh yeydi,
Dangasalar ta’na bilan tosh yeydi.

Xususan, yigitlar dangasa bulsa, peshonasining shuri. Chunki bunday yigitlarni kizlar kunglini zabt etishlari nixotda mushkul. Akl-farosatli kizlar xech kachon uz takdirlarini dangasalarga ishonib topshirishni xoxlamaydilar. Buni tasdigini Xalq yaratgan kuydagi kushikda kurishi kurish mumkin:

Atlas kuylak kiymayman ,
Etagini loy kilib.
Dangasaga tegmayman,
Yurak – bagrim dog kilib.

Ushbu kushikda atlas kuylak etagiga yopishgan loy kishi dilini xufton kilib, unga ortikcha ish-tashvish va ogirlik tugdirgan kabi, ishyokmas, dangasa kishilar xam oilasiga ortikcha yuk buladi, degan goya ifodalangan. Shuning uchun kushikdagi lirik kaxramon uziga ortikcha dardisar va ogirlik orttirib, dangasa bilan oila kurishni xoxlamasligini oshkor e'lon kiladi.

Xalqda azaldan spirtli ichimlikka berilishni, nasha chekishni, kora dori is'temol kilishni odamgarchilikdan chikaruvchi, barbod etuvchi barcha insoniy kadriyatlardan, imon, e'tikoddan maxrum etuvchi illat deb xisoblagan, Shuning uchun bu yaramas illatlar xozir xam Xalq tomondan keskin tankid kilinib, koraslanadi.

Mening yorim mast buldi,
Tokchadan tushdi kutim.
Ichkilikning dastidan.
Kuridi kuri-kutim.

Bu kushikda lirik kaxramon-ayol, ona, xotin ichkilik dastidan uz turmushining barakasi kochganini alam bilan izxor etyapdi. U aroxxur erining xatto tokchada turadigan kulf-kalitini kichkina sandikchasida yigib, asrab yurgan narsalarigacha barini tortib olib, ichkilikka sarflaganini nolib bayon etayotir. Erkaklar aklining egovi-arokni la'natlab, kargayotir. Onalarning bu faryodini xis kilgan kizlarimiz aroxxur, kuknorixur bilan aslo oila kurishni xoxlamaydi. Bu xol xam Xalq kushiklarida uzining yorqin badiiy ifodasini topgan.

Atlas kuylak kiymayman,
Bijir-bijir guli bor.
Aroxxurga tegmayman,
Kuylagida xidi bor.

Kushikda lirik kaxramon aroxxurga turmushga chikishni, u bilan oila kurishni xoxlamasligini izxor etgan.

Xalqimiz xamisha kabixlik, ugrilik, poraxurlik, kimorbozlik yuli bilan yashab kelayotgan kishilarga kaxr-gazab, nafrat bildiradi. Aldov yullari bilan mol-dunyo yigishni koralaydi. Chunki bu yulning oxiri odamni albatta xarob kilishini ming yillar davomida Xalq tajribasida sinovdan utib kelmokda. Xaromxurning topgan "Xaromini" yeb-ichgan oilasidagi bolalar xam xaromxurlikka urganishlari mumkin.

Utmishdan to xozirgi davrgacha odamlar orasida yashab kelayotgan bu illatlar kuyidagi satrlarda tankid kilinadi:

Ey, bangi, bangi, bangi,
Ulmasdan murda rangi.
Bangi sira boyimas,
Korni xech nonga tuymas.

Odamlar xakkiga xiyonat kilish, ugrilik, or-nomusga tajavvuz kilish kabi illatlar kishilar urtasida mexr-shavkatni okibatni yukotadi. Kishilar ruxiga salbiy ta'sir kiladi. Mamlakat turmushiga raxna soladi.

Nazorat topshiriqlari.

1. Kaysi udum insonga xurmat va e'tiborni bildiradi?
 - A) Shirinsuzlik,
 - B) Birga ovkatlanish,
 - V) Yaxshi kiyinish,
 - G) Salomlashish

13-MAVZU: QUR'ONI KARIM SURALARI VA HADISLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Asosiy savollar.

1. Islom dini g'oyalarining ta'lim-tarbiyaga ta'siri
2. Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiyaning mazmuni
3. Xadis ilmining paydo bo'lishi. Imom Ismoil al-Buxoriy va Imom at-Termiziylarning hadis ilmi rivojidagi tutgan o'rni.

Tayanch iboralar: «Qur'on» tenglik totuvlik sura insonparvarlik targ'iboti ruhiy ma'naviy poklik etuklik, islom aqidalari, ahloqiy-huquqiy tamoyillar, e'tiqod, ehtirom, etika, namoz, zaqiyot, ramozon, haj qilish. Ma'naviy ehtiyoj, borliqni mafkuraviy idrok etish, hadis, sunna, rivoyat ijodiy meros.

1-asosiy savolning bayoni:

Maqsad: Islom dini g'oyalarining ta'lim-tarbiyaga ta'sirining mohiyatini talabalarga tushuntiriladi, islom dini g'oyalarini to'g'ri talqin etish va uni mukammal o'rganishga qiziqish uyg'otiladi.

Indentiv o'quv maqsadlar:

1. Islom dini g'oyalarining mohiyatini tushuntirib berishadi;
2. Islom dini g'oyalarining ta'lim-tarbiya ta'sirini belgilab berishadi;
3. Islom dini g'oyalarining ta'lim-tarbiya ta'sirini asoslab berishadi;
4. Islom dini g'oyalarining ta'lim-tarbiya ta'sirini tahlil qiladi;

VII asr boshlarida islom g'oyasiga asoslangan arab xalifaligi tashkil topildi. Bu davlat o'z mavqeini mustahkamlash uchun. U III Asr o'rtalariga kelib mavoraunnaxrni zabt etishga to'la erishdilar. Islom Arabiston yarim orolida uning ko'p asrlik tarixida o'sib chiqqan yaxlit diniy siyosiy oqim sifatida vujudga keldi. Islom dinining asoschisi va targ'ibotchisi Muhammad ibn Abdulloh 570 yilda Makkada Qurayish qabilasiga mansub Hoshimiylar xonadonida tug'iladi.

«Qur'on» - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib arab tilida «qiroat» ma'nosini anglatadi. U 114 suradan iborat. «Qur'on» -kishilarni tenglikka, birodarlikka, tinch totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shunga ko'ra, u katta axloqiy ahamiyatga ega. «Qur'onning» axloqiy qimmatini xaqida fikr yuritilar ekan, insonning ma'naviy kamolotga etishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz. Shuning uchun u mana necha asrlardan berishi insoniyatning eng ulug' qadriyati sifatida e'zozlanib

kelmoqda. Islom odamlarni yaxshilika da'vat etadi, yomonlikdan qaytaradi.. Insonparvarlikni targ'ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq -ma'naviy poklik va etuklikka va mehnat qilishga hamda er yuzini obod etishga undaydi. U adolat, tenglik, tinchlik, erkni tarannum etadi. Buni biz «Qur'on» ning insonni kamolotga erishishda qay darajada o'rin egallashlarini, uning insonga butun borliqqa munosabati, turmush tarzi va xulq odobi me'yorlarini tarkib toptirishda ulkan ahamiyatdan ham bilsak bo'ladi.

Ma'lumki, etuk inson, avvalo o'zining ilmliligi bilan namoyon bo'ladi. Islom musulmonlarni taraqqiyot sari undagan. Chunki inson shaxsi, jamiyat, ilm bilan kamolotga etadi, taraqqiy etadi. Kishilarni ilmga qiziqtirish uchun «Ku'on» ning «Zumar» surasi 9- oyatida shunday deyiladi.

Ayting: biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmiq» Darxaqiqat, faqat aql egalarigina pand- nasixat olurlar. Islomda insoning aqliy kamoloti va tafakkuriga katta e'tibor beriladi. Bular ilm va xaqiqatni dallilar bilan isbotlashda: islomning aniqlik dini, uning taqlid dushmani ekanligida namoyon bo'ladi. Har bir narsani Har tomonlama o'rganib chiqib to'g'risini tanlab olishga: « Mening badanlarimga- so'z quloq tutib uning eng go'zaliga ergashadigan zotlarga xushxabar bering! Ana shular Allox xidoyat qilgan zotlar va ana shulargina aql egalaridir («Zumar» surasi 18 oyat). Har bir fikrni o'ylab tushunib, keyin unga rioya etganlar Allox xidoyat etgan kishilar haqiqiy aql egalari deb ataladi. Albatta ilm aql yordamida amalga oshadi. Shunga ko'ra, «Qur'on»da insonni aql ishlatishga chaqiriladi. Unda aql insonga berilgan buyuk ne'mat deb ta'riflanadi. Aqlni ishlatmaslikning yomon oqibatlari xususida so'z yuritiladi. Islomda bilim, aql inson kamolotining me'zoni hisoblanib, inson ko'rish, eshitish, aqlni ishlatish vositasida bilish qobiliyatiga ega bo'ladi degan.

Ilm fan taraqqiyoti insonning axloqiy kamolga etishida katta ahamiyatga ega shunga ko'ra, xulq odob qoidalarini tarkib toptirishga «Qur'on»da e'tibor beriladi. Har bir shaxsning jamiyatning ravnaq topishida axloqning asosiy roli tasvirlanadi. «Qur'on»da har bir mo'min musulmon bajarishi zarur bo'lgan yaxshi xulqlar insonni haqiqiy kamolotga undovchi insoniy fazilatlaridir deb tushintiriladi. Chunki islom dinining asosiy maqsadi ham yomonlikning oldini olish kishilarga yomonlikning hunik oqibatlarini tushuntirish hamda ularni doimo to'g'ri yo'lga chaqirishdan iboratdir. «Qur'on»da insonni imonning o'ziga xos me'zoni sanalgan saxovat mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor berilgan. Insondagi axloqiy sifatlardan eng muhimi hayr-ehsonlarda haqida alohida fikryuritiladi.

Qur'oni karim»da ehsonga loyiq kishilarga birinchi navbatda ota-onalar kiritilgan va ota-ona haqqi belgilab beriladi. «Al-Isro» surasining 23-24 oyadlarida ota-onaga yaxshilik Allox taologa ibodat qilishdan keyin 2 vazifa sifatida ta'kidlanadi. Mazkur oyadlarida eng oliy insoniy muammoli qoidalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- ota-ona xatti-harakatining farzandga malol kelmasligi;
- ota-ona bilan gaplashganda ularga og'ir botadigan so'z aytmaslik;
- ota-onaga ehtirom bajo keltirish;
- ota-onaga rahim shavqat qilish;
- ularning haqiga duo qilish;

«Qur'on»da kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash to'g'risida ham gap boradi va bu oliy darajadagi insoniy xislat bo'lib, pok qalbli kishilargina bunga erisha oladi.

«Xujurot» surasining 10-oyatida: «Mo'minlar hech shak- shubhasiz og'ainilardir. Bas, sizlar ikki og'a-iningiz o'rtasini o'nqlab qo'yinglar», - deyiladi. «Qur'on»da insondagi zarur xislatlardan sanalgan oliy- janoblik haqida ham fikr yuritiladi. «Xashr» surasining 9-oyatida « garchi o'zlarida ehtiyoj bo'lsada o'zlarini kuyib oysor –ixtiyor qilurlar . Kimki o'z nafsining baxilligidan saqlana olsa bas, ana o'shalar najot topguvchi zotlardir». «Qur'on» ning ma'lum oyatlari shirinsuxanlika bag'ishlanadi. To'g'ri so'z va muomala madaniyatiga rioya qilish qonun- qoidalari Islomgacha ham bo'lgan. «Qur'on» da insonni ahloqiy kamolga etkazishda yaxshi kishilar bilan hamsuhbat bo'lish ham katta ahamiyatga ega, deb ko'rsatiladi. Islomda salomga alik olish xususida «Niso» surasining 86 oyatida «qachon sizlarga biron ibora bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olinglar yoki o'sha iborani qaytaringlar» , - deyiladi. «Qur'on» da insonni ma'naviy pok bo'lish, havoyi nafsdan saqlanish masalalariga ham e'tibor beriladi. Havoyi nafsga berilishning asosiy sababi sifatida kishi irodasining zaifligi va ilmsizligi yoki ilmning kamligi ko'rsatiladi. Chunki inson bilimsizligi tufayli xavoyi nafsga mahkum etiladi, shunga ko'ra aqlni ishlatib hayotda to'g'ri yo'l tutishga da'vat etiladi. Masalan, «an'om» surasining 119 oyatida «Shubhasiz , ko'p kishilar o'z xoyu-xavaslarini bilan bilmagan hollarida o'zlarini yo'ldan ozdururlar». «Rum» surasining 29- oyatida «Zolim kimsalar biron bilim- hujjatsiz xavoyi nafslariga ergashib Allohga shirk keltiradilar » kabi fikrlar buning dalilidir. «Qur'on» da insonni axloqiy kamolga etkazishda zid xususiyatlar: man- manlik, va aroqho'rlik va qimorbozlik , talonchilik, boshqalarni kamsitish, badgumonlik, chaqimchilik, g'iybatchilik, maishiy buzuqlik, xasadgo'ylik, ochko'zlik kabilar xususida ham ibratli fikrlar bildirilgan. «Qur'on » da xaqiqiy inson bir-birini kamsitmasligi, boshqalarni hurmat qilishi, shu bilan kishilar o'rtasida totuvlikni mustahkamlashi mumkin ekanligi kabi g'oyalar ham mavjud. Islomda xasad ham eng qabix xislat sifatida qoralanadi.

«Qur'on» da insonning axloqan kamol topishida bekorchi gap so'zlardan yiroq yurish, mayda va behuda gaplarga vaqt ketgazmasliklardan o'zini chetga olish kabilarga ham e'tibor berilgan. Insonning ma'naviy kamol topishida me'yorni saqlash katta ahamiyat kasb etadi.

«Qur'on» da ta'lim berilishicha mol-dunyo insonni sinash uchun beriladi. Mol dunyoga erishgan har bir inson uni to'g'ri yo'lda sarflash kerak, deyiladi. («Anfol» surasi, 28-oyat).

«Qur'on» da ta'lim berilishicha boylik abadiy emas, xaqiqat va yaxshilik abadiydir. Islom ta'limotida ilgari surilgan muhim g'oyalardan yana biri va uning eng muhim tarkibiy qismi poklik va tozalikka rioya qilishdir.

Islom uzoq vaqt sho'ro mafkurasida uning halqlar o'rtasida dushmanlik ruxini singdiruvchi, insonning qadr-qimmatini kamsituvchi, bilish va qobiliyatlarini, aqlning, inson ijodiy qobiliyatlarining kuchini , inson irodasini inkor etuvchi din sifatida tanqid qilib kelindi. Lekin biz yuqorida ko'rib o'tgan masalalar bunday fikrlar asosi ekanligini ko'rsatdi. Islom va uning asosiy ta'limoti

mujassamlangan «Qur'oni karim» da insonni ham aqliy ham axloqiy, ham jismoniy, bir so'z bilan aytganda komil insonni tarbiyalashda muhim manba ekanligi namoyon bo'ladi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Test. Islom dinida qanday asosiy g'oyalar ilgari surilgan?

A) «Qur'on» da insonni axloqiy kamolga etkazishda yaxshi kishilar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning oldini olish, ularning totuv yashashiga erishishdir.

B) Islomdagi asosiy g'oya insonning aqliy kamolotiga etishiga qaratilgan.

V) Islom dinida insonning axloqiy, aqliy, ruhiy va ma'naviy etuklikka chorlaydi. Odamlarni yaxshilika da'vat etadi, yomonlikdan qaytaradi. Tenglik, tinchlik, erkni tarannum etadi.

2. Test: Kishilarni ilim olishga oid «Qur'on» ning «Zumar» surasining 9-oyatida nima deyilgan?

A) Endi erga noxaq kibru xavo qilib yuradigan, agar barcha oyat-mo'jizalarni ko'rsa ham ularga iymon keltirmaydigan oyat- mo'jizalardan burib yuboraman.

B) Ayting. «Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi?» Darxaqiqat faqat aql egalarigina pand nasixat olurlar.

V) Sabrli, sabotli bo'lish bu qiyinchiliklarga bardosh berishdir.

«Qur'on» dagi ilmga axloq-odobga oid suralarni o'rganib mohiyatini izohlang.

Islom dinining asosiy maqsadlari va undan kelib chiqqan holda vazifalarini tahlil qiling.

Islomda umuminsoniy tarbiyaning o'ziga xos tomonlarini milliy tarbiyaga uzviy bog'liqligini taqqoslab ko'ring. (baholash)

2-asosiy savolning bayoni:

Musulmon maktablarida ta'lim - tarbiyaning mazmuni.

Maqsad: Musulmon maktablarida ta'lim - tarbiyaning mazmunini talabalarga tushuntiriladi, ularni o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Identiv o'quv maqsadlar:

1. Musulmon maktablarida ta'lim – tarbiyaning mazmuni tushuntirib beradi.
2. Musulmon maktablarida ta'lim –tarbiyaning mazmunini izohlab beradi.
3. Musulmon maktablarida ta'lim –tarbiyaning mazmunini tahlil qiladi.
4. Musulmon maktablarida ta'lim – tarbiyaning mohiyatini dalillab beradi.

XII – asr boshlarida islom g'oyasiga asoslangan Arab xalifaligi tashkil topib, bu davlat o'z mavqeini mustahkamlash uchun boshqa mamlakatlarni zabt etishni boshladi. Butun arabiston yarim oroli shuningdek, Eron, Kavkaz orti yurti, Suriya Shimoli Afrika, Janubiy Ispaniya xalifalik tarkibiga kiritildi. XII–asr o'rtalaridan boshlab arablar Movoraunnaxrga ham yurish qildi va qiyinchilik bilan zabt etdi.

Arab istilochilari bosib olingan erlarga halqni islom diniga kiritish boshladilar. Tarixchi At – Tabasarining «At –Tabariy tarixi», Narshaxiyning «Buxoro tarixi» va boshqa tarixiy asarlarida keltirilishicha, arab istilochilarining Movoraunnaxr halqini islom diniga kiritish jarayoni qiyin kechgan va bir necha yillarga cho'zilgan. Chunki Movoraunnaxr arab istilosigacha ham ma'naviy ham iqtisodiy taraqqiy

etgan mamlakat bo'lib, uning aholisi arab bosqinchilariga tezda bo'ysina qolmadi. Aholining istilochilarga bo'ysinishini istamaganligining asosiy sabablaridan biri istibdod va qatog'onlar bilan bir qatorda, bosqinchilarning maxaliy halqining yillar davomida tarkib topgan boy ma'naviy me'rosi-san'ati, adabiyoti, yozuvini, asari-atiqalarini poymol etishga harakatta qilganligi ham bo'ldi. Shuning uchun ham arab istilochilari halqni bo'ysundirish uchun harbiylar bilan bir qatorda, islom dini targ'ibotchilaridan ham foydalandilar va asta sekin ma'lum natijalarga erisha boshladilar. Arablar islom dinini tarqatishda turli usullardan foydalandilar. Jumladan islom dinini qabul qilganlar soliqdan ozod etildi.

Halifalar istilochilik siyosatini o'tkazar ekanlar barcha halqlar ustidan madaniy ustunlikni o'rnatishga harakat qildilar chunki arab halqi XII asr boshlarida o'ziga xos madaniyat adabiy til yaratgan bo'lib, unda notiqlik va she'riyat yuqori darajada qadrlangan. Ayniqsa Qur'onning o'zi ajoyib fazilatlarga ega bo'lib, u o'rta asr adabiyotining eng nodir adabiy yodgorligi orasida o'rin olgan. IX asrda tarkib topgan «Ming bir kecha» ertaklari esa jaxon madaniyatining durdonalaridan hisoblanadi. Arab tili ham o'z navbatida yangi madaniyat tili bo'lib maydonga chiqdi bu madaniyat ham qadimgi arab madaniyati, shuningdek arab davlati xududida yashagan boshqa halqlar madaniyatining majmuasi edi. Arablar yunon fanining yutuqlaridan amaliy foydalandilar, ularning faylasuf olim, yozuvchilarning asarlarini tarjima qildilar. Astronomiya tibbiyot, kimyoga oid barcha yirik asarlar arab tiliga tarjima qilindi. Xatto arab olimlari sun'iy oltin tayyorlash vositasi «falsafa toshi» ni izlaganlar yunonlardan tasnif etilib fanlar ikki qismga nazariy va amaliy qismlarga ajratildi. Birinchi qism uch bo'lim – tabiat to'g'risidagi fan, ilohiyot to'g'risidagi va matematika fanlari bo'lib ularga arifmetika xandasa, astronomiya va musiqa kiritilgan.

Ikkinchi qism esa, etika, iqtisod va siyosatga bo'lingan. Hind fani arab madaniyatiga asosan arifmetika, algebra, tibbiyot ta'sir etgan. Evropaliklar ham sonlarning Hind nazariyasi bilan arablar orqali tanishganlar, aljabr algebra degan arabcha nomni qabul qilingan. Arablar ulkan davlat barpo etib, geografiya rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatdilar. Masalan, arab mulklarining dastlabki Haritalari 9-asrda tuzilgan bo'lib ularda daryolar oqimi to'g'risida mufassal ma'lumot bo'lgan. Ispaniyadan Markaziy Osiyo va Hind daryosigacha cho'zilgan musulmon dunyosi bu Haritada batafsil ko'rsatiladi. Ko'p xududlarga Arabcha nomlar beriladi. Xususan, Mavoraunnaxr ham arabcha bo'lib «Daryo orti» ma'nosini bildiradi.

Islom arabiston yarim orolida uning ko'p asrlik tarixidan o'sib chiqqan diniy-siyosiy oqim sifatida vujudga kelgan bo'lsa, ayni paytda u qadimgi dunyoni idrok etishning va o'rta asr jamiyatining tiklanish davrida butun yaqin sharq ma'naviy ehtiyojiga aks sado ham bo'ldi. Siyosiy g'alaba hamda o'ziga yangi va o'zga qarashlarni singdira bilish tufayli u o'rta asr davri borliqni mafkuraviy idrok etishning asosiy shakllaridan bo'lib qoldi. Islomning g'alaba qilishida uning asoschisi Allohning vakili bo'lgan payg'ambarimiz Muhammad Alayxisalomning shaxsi katta rol o'ynaydi. Qur'on oyatlarini o'rganish o'zgalik bilan o'zlikning islomga uyg'unlashuvini aniq belgilash uning asoschisi shaxsini ko'ra olish, xis etish imkonini beradi. Mavoraunnaxr boshqa istilo etilgan davlatlar qatorida islom dini bilan birga mazkur dinning muqaddas kitobi «Qur'on» ning tili, arab tilini o'rganish joriy etildi. Bu kitobni boshqa tillarga tarjima qilish taqiqlandi.

Musulmon maktablarida arab tili muhim fan sifatida o'qitilardi, bilim shu tilda o'rganilar edi. Arabistondagi kabi Mavoraunnaxrda ham barcha masjidlar xuzurida maktablar ochiladi va o'g'il bollarga shu maktablarda Qur'on o'qishni o'rgatishga farmon beriladi. Bolalarni masjid imomi o'qitar edi. Musulmon ta'limotiga ko'ra har bir musulmon beshta asosiy ruknni bajarishi zarur. Birinchisi, «La ilaxo illallox va muhammadu-r-rasulullox» deb shahodatlik berish, ikkinchisi, nomoz o'qish uchunchisi, zakot berish to'rtinchisi, ramozon oyida ro'za tutish, imkoniga ko'ra xaj qilish.

Nazorat topshiriqlari:

1. Test: Musulmon maktablarda qaysi til asosiy fan sifatida o'qitilar ediq
A) o'zberishk va arab tillari;
V) foris tili;
B) arab tili; (bilish)
2. Test: Musulmon maktablarida fanlar necha qismga ajratilgan va qaysilariq
A) nazariy qism (tibiyot, iloxiyot va matimatika);
V) nazariy va amaliy qism: birinchi qism tibiyot, iloxiyot va matematika, ikkinchi qism etika iqtisodiyot va siyosat;
B) amaliy qism (Tibiyot, iloxiti va matematika);
3. Musulmon maktablarida ta'lim tarbiyaning mohiyatini izohlang (tushuntirish)
4. Musulmon maktablarida ta'lim-tarbiyaning maqsadi undan kelib chiqadigan vazifaifalarni tahlil qiling. (analiz)
5. Musulmon maktablarida borliqni mafkuraviy idrok etishning asosiy shakllari bo'lgan islom ta'limotining ta'sirini taqqoslab bering. (baholash)

3-Asosiy savolning bayoni:

Xadis ilmining paydo bo'lishi. Imom Ismoil Al Buxoriy va Imom At Termiziynig xadis ilmi rivojidagi tutgan o'rni.

Maqsad: Xadis ilmining paydo bo'lish tarixi o'rgatiladi. Uni va uning namoyondalarini o'rganishga qiziqish o'yg'otiladi.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Xadis ilmining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirib beradi.
2. Xadis ilmi aomoyondalarining ta'lim-tarbiya rivojiga qo'shgan xissalarini izohlab beradi.
3. Xadis ilmi va uning namoyondalarini ta'lim-tarbiya rivojiga qo'shgan xissalarini tahlil qilib beradi.

Islom dini ta'limotida «Qur'oni karim» dan keyin asosiy manba xadislardir. Xadis ilmi bilan shug'ullanish asosan 8-asrning 2-yarmidan boshlanib, unga eng bilimdon, mo''tabar shaxslargina tartib berishgan. Ma'lumotga ko'ra, 8-11 asrlarda 400 dan ortiq muxaddis xadis ilmi bilan shug'ullangan.

«Xadis» yoki «sunna» so'zlari bir ma'noni anglatib Rasullullohning hayoti va faoliyati hamda dini va axloqiy ko'rsatmalari xaqidagi rivoyatlardan iborat. Muhammad alayxisalomning ibratli ishlari e'tiqod, poklik va insonga xos ma'naviy

- axloqiy xislatlarni ifodalovchi so'zlari, pand-nasihatlari uning nomi bilan bog'liq xadislarda mujassamlangan.

Xadislar dastlab yozib borilmagan. Chunki payg'ambarimiz Qur'oni karim nozil bo'lgan vaqtlarda arab bo'lmagan kishilarning xadislari Qur'on oyatlaridan deb o'ylashlaridan cho'chib uni yozib borishlariga ruxsat etmaganlar. Lekin, xadislarni yod olgan kishilar tobora kamayib borgani hamda asta-sekin ular unitilib ketishining oldi olinib xalifalar ishonarli xadislarni to'plashga farmon berdilar. Islomshunos olimlar bu ishni boshida turgan dastlabki xalifa Umar Ibn Abdulaziz ekanligini ta'kidlaydilar. 8-9 asrlar xadis ilmi uchun oltin davr hisoblanadi. Bu davr islom dunyosida eng nufo'zli manbalar deb sanalgan 6 ta ishonchli to'plam (as-saxix as-sitta) yaratildi. Bunda bizning vatandoshlarimiz muxaddislarning ham xissalari bor.

Olimlar (olti kitob) ni quyidagalardan iborat deb ko'rsatadilar:

1. Ismoil al Buxoriy tomonidan yozilgan «as-saxix»
2. Imom Muslim an-Nishopuriy tomonidan yozilgan «as-saxix»
3. Imom Ibn Mojja tomonidan yozilgan «Sunnan».
4. Imom Abu Dovuds Sulaymon Sijistoni tomonidan yozilgan «Sunnan».
5. Imom Ibn Iso at-Termizi tomonidan yozilgan «Aj-jamii al-kibr»
6. Axmad an - Nasoiy tomonidan yozilgan «Sunnan» kabi to'plamlardir.

Xadis taklif etishda asosan uch yo'nalish paydo bo'lgan.

Musnad yo'nalishi. Bunda turli mavzudagi yo'nalishlar bir joyga keltirib alifbo tartibida joylashtirilgan.

Saxix (ishonch) yo'nalishi. Bunga Imom Buxoriy asos solgan. Bularga to'g'ri ishonarli xadislar keltirilgan.

Sunan yo'nalishidagi xadislar. Bu yo'nalishdagi xadislarga, ishonarli xadislar bilan bir qatorda, zaif xadislar ham kiritilgan.

«Saxix» yo'nalishining asoschisi, eng etuk va mashhur muxaddis Abu Abdullox Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriydir. Imom Buxoriy xadis ilimida «Amir ul-Mo'minin», «Imom al-Muxaddisiyn» («Barcha muxaddislarning pesh vosi») degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan. U 810 yil 13 mayda Buxoroda tug'ilgan. Go'dakligida otadan etim qolgan. Maktabda savod chiqargan. 10 yoshidanoq arab tili va kitoblaridan ularni yodlay boshlaydi. Al-Buxoriy xadis ilmini katta qiziqish bilan o'rgana boshlaydi. Yoshlik chog'idan boshlab turli muxaddislardan eshitgan xadislarni yodlab borar edi. Abdulloh Ibn al-Muborak, Vaki Ibn Jarroh kabi olimlar to'plagan xadislarni yod olgan, xadis rivoyatchilari haqidagi baxslarda qatnashgan. Imom Buxoriy iste'dodli o'tkir muhofazali, ziyrak olim bo'lgan.

U Damashq, Qoxira, Basra, Bag'dod shaharlarida mashhur olimlardan fikir ilmidan dars oladi, o'zi ham baxs va munozaralarida qatnashadi, tolibu ilmlarga dars ham beradi.

Imom Buxoriyning o'tkir zexn egasi ekanligini quyidagi misoldan ham bilish mumkin. Rivoyatlarga ko'ra «U qaysi bir kitobni qo'lga olib, bir maratoba mutoala qilsa, hammasi yod qolaveradi».

Imom Buxoriy o'ta kamtar, insonparvar, xulq-odobda tengsiz, saxovatli inson bo'lgan. U xadis ilmining etuk olimi bo'lsa ham, vaqti kelganda zamondoshlari,

shogirdlaridan ham o'rganadi. Ma'lumotlarga ko'ra, al-Buxoriy 600 mingga yaqin xadisni to'plagan, 100 ming saxix 200 ming g'ayri saxixlarni yod olgan.

Imom al-Buxoriy uzoq safardan ona yurti Buxoroga qaytgach, talabalar va ulomolarga xadis ilmidan saboq beradi va uning targ'ibotchisiga aylanadi.

Olimlarning ta'kidlashlaricha, Imom al-Buxoriy juda boy meros qoldirgan. Uning «Al-Jome As-Saxix» («Ishonchli to'plam») asari 4 jildidan iborat bo'lib, eng etuk shox asari sifatida dunyoga mashhurdir. Bu asarda Payg'ambarimiz Sallaxu Alayxi Vassallam xadislardan tashqari, Islom huquqshunosligi, islom marosimlari, axloq-odob, ta'lim-tarbiya, tarix va etnografiyaga oid ma'lumotlar ham berishgan. Unga 600 ming xadisdan 7275 ta eng saxix xadislardan kiritilgan bo'lib, takrorlanmaydigan 4000 xadisdan iboratdir. Bu kitob Islom ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi manba hisoblanadi.

Islom dini insoni ma'naviy kamolot sari etaklovchi ta'limot. Shu sababli Qur'oni Karimdan ham xadislarda ham yaxshi xulq va odob keng targ'ibot etilgan. Shariat talablari bilan bir qatorda, xadislarda axloqqa doirlari, ayniqsa muhim. Imom Buxoriy ham 4 jildli ushbu asarining 1 jildida odob haqidagi xadislarni jam etgan. Keyinchalik alloma butun Islom olami odob-axloqi va tarbiyasi masalalariga bag'ishlangan «Al-Adab Al-Mufrad» nomli maxsus xadislar to'plamini yaratdi. Bu asar 644 ta bobda bayon etilgan 1322 xadisdan iborat. Mashhur muxaddislardan yana biri vatandoshimiz Abu Iso at-Termiziy bo'lib, u 824 yilda Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida hozirgi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida tug'ilgan. Uning oilasi va ota-onasi haqida ma'lumot yo'q.

At-Termiziyning o'tkir zehni, xotirasi, yodlash qobiliyatining kuchliligi tufayli Al-Buxoriy ham uni faqat shogird sifatida emas, o'ziga hamkor emas, o'ziga hamkor do'st sifatida ham hurmat qilgan.

At-Termiziy uzoq safarida xadislarni to'plada. U 863 yilda o'z vataniga qaytdi va o'zi ham shogirdlarga ta'lim berib, ham kitoblar yozdi.

At-Termiziyning o'ndan ortiq asarlari yaratilganligi ma'lum bular «Al-Jome As-Saxix» («Ishonchli to'plam»), «Ash-Shamoil An-Nabaviya» («Payg'ambarning alohida fazilatlarini»), «Al-Ilal Fi-L-Xadiys» («Xadislardagi ilatlar va og'ishlar haqida») asarlari mashhurdir.

At-Termiziyning yozib qoldirgan asarlaridagi xadislar ham Al-Buxoriy xadislari kabi insonni halollik, adolat, e'tiqod, diyonat, poklik, mehnatsevarlik, muruvvatlilik, mehr-shavqat, kattalarga, ota-ona va qarindoshlariga hurmat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

At-Termiziy 892 yilda o'z vatanida vafot etadi.

Xadislarda insonning kamolga etishi uchun talab etiladigan insoniy fazilatlar aks ettirilgan bo'lib, bular mehr -oqibat ko'rsatish, saxiylik ochiq ko'ngillilik, ota - ona va kattalarga qarindoshlarga g'amxo'rlik, hurmat faqir bechoralarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnat va kasb hunarni ulug'lash, xalollik, poklik, o'zaro do'st, tinch totuv bo'lish va boshqalardan iboratdir.

Bundan tashqari insonning o'zini yomon illatlardan tiyish, yaxshilik sari intilish kerakligi borasidagi pand nasihatlar ham o'z ifodasini topganki, bularning barchasi Qur'oni Karim ko'rsatmalaridan kelib chiqadi va komil insonni mezoni sanaladi. Xadislarda insonning ma'naviy kamoloti mezoni uning tafakkur doirasi dunyoqarashining kengligi ilmiy bilimlarni qay darajada egallagani o'z bilimi bilan

atrofdagilarga jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs bo'lib etishishida muhim omil bilim deb ko'rsatiladi. «Tolibi ilm qilish farzdir. Tolibi ilmga har bir narsa istixfor aytadi xatto dengizdagi baliqlar ham». «Ilm o'rganmoq va o'rgatmoqning fazilati xadisida» (21-bob 35-berish) ilmni ko'p yoqqan yomg'irga o'xshatiladi va ilm ahlini uch turga bo'ladi. Bir kishi olloh ilmini teran o'rganadir va o'zgalarga o'rgatadir. Ikkinchi bir kishi ilm o'rganib odamlarga o'rgatadi. Ammo o'zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mo'takkabirlik qilib o'zi ham o'rganmaydi, o'zgalarni ham o'rgatmaydi. Islomda ikki xil ilm xaqida fikr yuritiladi biri huquqiy diniy yo'l-yo'riqlar ilmi bo'lsa ikkinchisi dunyoviy ilmlarni egallash nazarda tutiladi. Har ikkalasidan ham bilimga ega bo'lish har bir kishi uchun farz hisoblanadi. Xadislarda ota-onaning dilini og'ritib ozor berish buyruqlarni bajarmaslik ham qoralanadi. Ota-ona xaqqini ado etish har bir farzand uchun farz hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda ota-ona ham o'z navbatlarida farzandlarini tarbiya qilmog'i, odob o'rgatishi, ilmga yo'llashi, yaxshilik qilish lozimligini takidlashi zarurligi xadislarda qayd etilgan.

Xadislarda kishilarning bir-biri bilan do'st, tinch-totuv yashashi, muruvvatli, mehr-shavqatli bo'lishi kerakligi haqidagi g'oya ham ilgari so'riladi. Xadislarda insoniy xislatlardan ezgulik, iffat, sabr-qanoat, shukronalik kabi axloqiy xislatlar ulug'lansa, isrofgarchilik, tamagirlik, ochko'zlik, nafsu xavoga berilish, baxillik, johillik kabi illatlar qoralanadi. Inson kamoloti berish vosita uning sog'ligiga ham bog'liqdir, chunki sog'lom insongina ham oila, ham jamiyatning ravnaq topishi uchun faoliyat ko'rsatadigan kishi bo'lib etishadi. Xadislarda umuman islomda tozalikka, poklika umuman ruxiy va jismoniy poklikka katta etibor berishadi. «xaq taolo o'zi pok, poklikni yaxshi ko'radi. O'zi toza, tozalikni yaxshi ko'radi O'zi oliyhimmatdir, olihimmatlikni yaxshi ko'radi. O'zi ochiq qo'l ochiqqo'llikni yaxshi ko'radi: Eshiklarning oldini pokiza tutinglar» (190-xadis)

Xadislarda Muhammad payg'ambarning sunnatlari bo'lib mazmunan har bir mo'minning ishonchini, e'tiqodini mustahkamlaydi va shu bilan insonni ma'naviy kamolotga da'vat etadi. Islom dini ma'rifatga asoslangani uchun ham bir shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy jihatlardan kamolga etkazishga oid e'tiqod va imondan iborat bo'lib faqat ezgulikka xizmat qilish, olijanob bo'lish, pokiza yurish holol bo'lish jaholat va jaholatparaslikka yo'l qo'ymaslik, o'z birodarining, qarindosh urug'larining, millatining va vatanning qadriyatlarini asrashdan iboratdir. Shunday ekan xadislarda komil insonni shakllantirishda muhim manba bo'lib hisoblanadi va undan yoshlar tarbiyasida foydalanish shu kunning dolzarb vazifaifasi hisoblanadi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Test: «Xadis» yoki «Sunna» so'zlari qanday ma'noga egaq
 - A) Al-Buxoriy va at-Termiziy bitiklaridan iborat va rivoyatlar ma'nosiga ega;
 - V) Al-Buxoriyning «Al-Jome as-Saxix» asaridan iborat va rivoyatlar to'plamiga ega;
 - B) Bu so'zlar bir ma'noni anglatib rasulilloxuning hayoti va faoliyati hamda diniy va axloqiy ko'rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat; (baholash)
2. Test: quyidagi asarlar al-Buxoriy va at-Termiziylarga to'liqlidirq
 - A) «As-Saxix», «Sunann»;
 - B) «Al-Jome» «Aj-Jamo al-Kabir»
 - V) «Sunann», «al-jame as-Saxix»; (tushuntirish)

3. Xadislarning komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini izohlang; (tushuntirish)
4. Xadis ilmining mohiyatini va xadis ilmi muxaddislarining asarlarini mazmunini tahlil qiling;
5. Xadis ilmi va «Qur'oni karim»dagi ta'lim-tarbiya, inson kamoloti to'g'risidagi ta'limotini taqqoslab ko'ring; (baholash)

AMALIY MASHG'ULOTLAR

1-Mavzu: Forobiyning pedagogik qarashlari

Asosiy savollar

1. Forobiyning xayoti va ijodi.
2. Forobiyning axloqiy va pedagogik qarashlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Forobiy, qarashlari, Xalq ogzaki ijodi, utmish mutafakkirlari, tarbiya turlari, shark mamlakatlari, ilm, ustoz va x.o.

1-asosiy savol bo'yicha o'qituvchining maqsadi: Forobiyning xayoti va ijodi xaqida talabalarga bilim, kunikma va malakalar berish, Forobiyning ta'lim-tarbiya borsida bildirgan fikrlarini talabalarga suzlab berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Forobiyning xayoti va ijodi xaqida suzlab beradilar.
2. Forobiy ijodidan na'munalar keltiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shaxri» T. Xalq merosi nashri. 1993 y.
2. Mavlonova R va boshkalar. Pedagogika, T. «Ukituvchi», 2001 y.
3. Barkamol avlod orzusi. T. «Shark» 1999 y.
4. Uzbek pedagogikasi antalogiyasi. T. «Ukituvchi», 1-jild 1995 y, 2-jild 1999 y.
5. Xalq pedagogikasi inson- kamolotining asosi. 1-5 kitoblar. T. 1992y.
6. O'rta Osiyoda pedagogik fikr tarakkiyotidan lavxalar. T. «Fan» 1996 y.

2-mavzu: Xalq pedagogikasida mehnat tarbiyasi.

Asosiy savollar.

1. Xalq pedagogikasida mehnat tarbiyasining urni va vazifasi.
2. O'tmishda Xalqimizning ma'naviy axloqiy madaniyatiga bulgan munosabati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Mexnat, Xalq pedagogikasi, inson, mehnat tarbiyasi, mehnatsevarlik, ota-ona, axloqiy tarbiya, urf-odat, odob va x.k.

1-asosiy masala buyicha ukituvchining maqsadi: Uzbek Xalqining asrlar davomida mehnatga va mehnat tarbiyasiga bulgan munosabatini va yosh avlodni

hayotga, mehnatga, kasb-xunar egalashga bulgan munosabatlarini yetkazib, uning mazmuni va mohiyatini talabalarga tushintirish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. O'zbek Xalqining asrlar davomida mehnatga bulgan munosabati xaqida gapiradilar.
2. Xalqimiz qo'llagan usul va vositalarni bir-biriga solishtiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shaxri» T. Xalq merosi nashri. 1993 y.
2. Mavlonova R va boshkalar. Pedagogika, T. « Ukituvchi» , 2001 y.
3. Barkamol avlod orzusi. T. «Shark» 1999 y.
4. Uzbek pedagogikasi antalogiyasi. T. «Ukituvchi», 1-jild 1995 y, 2-jild 1999 y.
5. Xalq pedagogikasi inson- kamolotining asosi. 1-5 kitoblar. T. 1992y.
6. O'rta Osiyoda pedagogik fikr tarakkiyotidan lavxalar. T. «Fan» 1996 y.

3-Mavzu: Xalq qo'shiqlari tarbiya vositasida

Asosiy savollar.

1. Qadimgi urf-odat, udumlar mohiyatini kelajak avlodga yetkazishda Xalq kushiki urni.
2. Xalq kushiklarida axloqiy-falsafiy goyalarning yetakchililigi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Xalq, kushik, insonparvarlik, mexr-muxabbat, rostguylik, ezgulik, turmush, salbiy xislatlar.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Talabalarga tariximizni, utmishimizni eslatib, uzligimizni anglab olishiga kumaklashish.
2. Talabalarga Xalq kushiklari orqali estetik zavk bagishlashdan tashkari, axloqiy shuuruni xam uygotish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shaxri» T. Xalq merosi nashri. 1993 y.
2. Mavlonova R va boshkalar. Pedagogika, T. « Ukituvchi» , 2001 y.
3. Barkamol avlod orzusi. T. «Shark» 1999 y.
4. Uzbek pedagogikasi antalogiyasi. T. «Ukituvchi», 1-jild 1995 y, 2-jild 1999 y.
5. Xalq pedagogikasi inson- kamolotining asosi. 1-5 kitoblar. T. 1992y.

4-Mavzu: O'zbek xalq ertaklari va maqollari

Asosiy savollar.

1. Xalq ertaklari va maqollari.
2. «Alpomish» dostoni va uning tarbiyaviy axamiyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Doston, kungirot, Xalq dostonlari, mardlik, jasurlik, urf-odat, jasorat, Kalmok, alplar, utov, Xalq pedagogikasi, Barchin, Kukaman, Korajon, kamal, janr va x.zo

1-asosiy masala buyicha o`qituvchining maqsadi: Xalq ogzaki ijodi, uning tur va janrlari, uning yosh avlodning estetik ma'rifiy jixatdan rivojlanishidatutgan urnini talabalarga tushintirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Xalq ogzaki ijodining tur va janrlarini aytib beradilar.
2. Xalq ogzaki ijodining tur va janrlarni bir-biridan farklab, asoslab beradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shaxri» T. Xalq merosi nashri. 1993 y.
2. Mavlonova R va boshkalar. Pedagogika, T. «Ukituvchi», 2001 y.
3. Barkamol avlod orzusi. T. «Shark» 1999 y.
4. Uzbek pedagogikasi antalogiyasi. T. «Ukituvchi», 1-jild 1995 y, 2-jild 1999 y.
5. Xalq pedagogikasi inson- kamolotining asosi. 1-5 kitoblar. T. 1992y.

5 -Mavzu: Dostonlardan namunalar va ularning taxlili

Asosiy savollar.

1. Dostonlardan namunalar va ularning taxlili..
2. «Alpomish» dostoni va uning tarbiyaviy axamiyati.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Doston, kungirot, Xalq dostonlari, mardlik, jasurlik, urf-odat, jasorat, Kalmok, alplar, utov, Xalq pedagogikasi, Barchin, Kukaman, Korajon, kamal, janr va x.zo

1-asosiy masala buyicha o`qituvchining maqsadi: Xalq ogzaki ijodi, uning tur va janrlari, uning yosh avlodning estetik ma'rifiy jixatdan rivojlanishidatutgan urnini talabalarga tushintirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Dostonlardan namunalar va ularning taxlili.
2. Xalq ogzaki ijodining tur va janrlarni bir-biridan farklab, asoslab beradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shaxri» T. Xalq merosi nashri. 1993 y.
2. Mavlonova R va boshkalar. Pedagogika, T. «Ukituvchi», 2001 y.
3. Barkamol avlod orzusi. T. «Shark» 1999 y.
4. Uzbek pedagogikasi antalogiyasi. T. «Ukituvchi», 1-jild 1995 y, 2-jild 1999 y.
5. Xalq pedagogikasi inson- kamolotining asosi. 1-5 kitoblar. T. 1992y.

TEST VARIANTLARI

1. Farobiy nechanchi yilda tugʻilgan.
 A. 873 yilda V. 875 yilda
 S. 874 yilda D. 810 yilda
2. Muallimi soniy qanday maʼnoni anglatadi.
 A. Ikkinchi muallim V. Birinchi muallim
 S. Muallim D. Ustoz
3. Fozil odamlar shaxri asarining muallifi kim.
 A. Farobiy V. Beruniy
 S. Avloniy D. Fitrat
4. Abu nasr Farobiy taʼlim-tarbiyaning asosiy vazifasi nimadan iborat deb oʻylaydi.
 A. Taʼlim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan
 va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat.
 V. Taʼlim-tarbiyaning asosiy vazifasi insonni kamolotga yetaklovchi yagona
 vosita deb biladi.
 S. ikkala javob ham toʻgʻri.
 D. Toʻgʻri javob berilmagan.
5. Ahloq nima.
 A. Ijtimoiy ong formasi boʻlib, ijtimoiy xayotning barcha sohalarida
 xulq-atvorni yoʻlga solib turgan prinsplar, normalar, qoidalar majmuasidir.
 V. Iqtisodiy hayotning barcha sohalarida insonning hulq-atvorini yoʻlga
 solib turadigan prinsplar.
 S. Odob vijdon or-nomus yigʻindisi.
 D. Toʻgʻri javob berilmagan.
6. Maktabda ahloqiy tarbiya qaysi darslarda berilib boriladi.
 A. Odobnoma
 V. Maʼrifatnoma
 S. Ahloq va shahs erkinligi
 D. Ahloq va qonun
7. Oʻzbek halq pedagogikasi kimlar tomonidan yaratilgan.
 A. .Asrlar davomida xalqlar tomonidan.
 V. Pedogolar tomonidan
 S. .Bir-ikki jamoa bilan
 D. Tarixchilar tomonidan
8. Xalq pedagogikasining ajralmas qismi nima.
 A. Xalq ogʻzaki ijodi
 V. Sheʼriyat
 S. Musiqa
 D. Raqs
9. Maqollarning oʻziga hos hususiyati nimada.
 A. Shakl va mazmun jixatdan barqarorligida
 V. Falsafiy-ahloqiyligida
 S. Taʼlimiyligida
 D. Mazmundorligida
10. Oltin oʻtda, odam . . .
 A. mehnatda bilinar

- V. Ishda bilinar
S. elda bilinar
D . jamoa oldida
11. Mehnatga oid maqollarda qanday g'oya bor.
A. Ishchanlik, mehnatsevarlik
V. vatanparvarlik
S. Xaqgo'ylik
D .mehr-oqibat g'oyalari
12. Halol mehnat . . .
A. Yaxshi odat
V. Yaxshi baxt
S. Yaxshi fikr
D. Yaxshi boylik
13. Mehnat haqida keltirilgan maqolni toping.
A. Ko'pchilik qo'lida unum ko'p
V. Ona yurtning oltin beshiging
S. Oz so'zla-soz so'zla
D .Eshik ochiq bo'lsa ham so'rab kir.
14. Abdurauf Fitrat o'smirlik yillari qanday tahallus bilan ijod etgan.
A. Mijmar
V. Fitrat
S. Muallim
D .Furqat
15. Fitrat ota-onani bola tarbiyalashda tarbiyaning nechta va qaysi tamoyillariga e'tibor beradi.
A. 3ta jismoniy aqliy ahloqiy
V. 2 ta jismoniy, aqliy
S. 1ta ahloqiy
D .a va b javoblar to'g'ri.
16. Fitrat qaysi asarida maktabda beriladigan ahloqiy tarbiya darajasi qandayligini o'z hayotidagi voqea misolida qisqartib berdi.
A. Munozara
V. Hind sayohati
S. Rahbari najot
D .Oq mozar
17. 1925 yilda Fitrat qanday pessa yozgan.
A. Arslon
V. Begimjon
S. O'huzxon
D .Chin sevish
18. Avloniy qanday darslik va o'qish kitoblari yaratdi.
A. Adabiyot yohud milliy she'rlar, "birinchi muallim" , "ikkinchi muallim" ,
"maktab gulistoni" va boshqalar
V. "Turkiy Guliston yohud ahloq", "birinchi muallim" , "ikkinchi muallim"
S. "Turkiy Guliston yohud ahloq"
D .A va B javoblar to'g'ri.

19. Xalq og‘zaki ijodining qaysi janrlari nutq madaniyatini o‘stirishda yordam beradi.
- A. Tez aytish
 - V. Ertak
 - S. Maqol
 - D. Masal
20. Tez aytishlarning afzallik tomonini toping
- A. So‘zlarni to‘g‘ri aytishga o‘rgatadi
 - V. Nutq boyligini oshiradi
 - S. Eslab qolish darajasini oshiradi
 - D. Xotirani mustaxkamlaydi
21. Tez aytishlarning o‘ziga hos hususiyati shundaki . . .
- A. So‘zlarning aksariyati bir hil yoki yondosh tovushlardan tashkil topgan
 - V. Fikrlash qobiliyatini o‘stirishda muxim rol o‘ynaydi.
 - S. o‘git nasixat yo‘lida badiy o‘xshatishga aytiladi.
 - D. Javoblar noto‘g‘ri
22. Xalq bisotidagi eng yaxshi tabarruk so‘zlar qanday tarbiyaga qaratilgan
- A. Ahloqiy tarbiyaga
 - V. Mehnat tarbiyasiga
 - S. Jismoniy tarbiyaga
 - D. Estetik tarbiyaga
23. A. Avloniy tashkil etgan teatr to‘garagining nomini aniqlang
- A. Turon
 - V. Turkiston
 - S. Guliston
 - D. Sado
24. A. Avloniyga birinchilardan bo‘lib “Mehnat qaxramoni” unvoni nechanchi yilda berilgan.
- A. 1925 yilda
 - V. 1923 yil
 - S. 1924 yilda
 - D. 1926 yilda
25. Mehnat tarbiyasining asosiy vazifasi nimadan iborat.
- A. Yosh avlodni mehnat qilishga, amaliy tayyorlab. Uning ongli munosabatini shakllantiradi.
 - V. Kishilarni iqtisodiy taraqqiyotga erishishda yordam beradi.
 - S. Yoshlarning moddiy ma’naviy va siyosiy taraqqiyotga erishishiga yordam beradi.
 - D. Yoshlarning moddiy taraqqiyotga erishishiga yordam beradi.
26. Mehnat madaniyati bu-
- A. Bajarilayotgan ishning samarali sifatli va puxtaligiga erishish
- Bajarilayotgan ishnig sifati va samaradorligi
- V. Bajarilayotgan ishning hamma uchun foydali bo‘lishiga erishish
 - S. Mehnatga ongli ravishda yondashuv
 - D. To‘g‘ri javob berilmagan.
27. Mehnat tarbiyasi turlari nechta.

- A.2 ta V. 4 ta S. 3 ta D . 1 ta
28. Nutqning patologik sekinlashgan surati nima deyiladi.
 A. Taxiloliya V. Bradilaliya
 S.Dislalia D .To‘g‘ri javob yo‘q
29. Jismoniy va ruxiy rivojlanishda nuqsonli bolalar nima deb ataladi.
 A. Anamal V. Loganevroz
 S. Sigmatizm D. Xamma javoblar to‘g‘ri
30. Qur‘on so‘zining ma‘nosi.
 A.Qiroat qilish V. Ezgulik qilish
 S.Itoat etish D .Tinch-totuv yashash
31. Alisher N. qanday madras tashkil qildi va unga qanday nom berdi?
 A. Donishmandlar uyi. V. “Ihlosiya” deb normlangan madrasa.
 S. “Ihlosiya” deb normlangan maktab. D . A va B javoblar tqg‘ri.
32. Jaditchilarning mahsamlari nimalardan iborat edi?
 A.Musulmon maktablarning takomillashtirishdan iborat.
 V. Yangicha usuldagi ta‘lim tarbiya berishni maktablarda qo‘llash.
 S. Ruxoniylar bilan birgalikda yangicha qhitish usulidagi maktablarni tashkil etish.
 D. Eski maktablarni yo‘qotish.
33. Imom Ismoil Buxoriy yodgorlik majmuyi qaysi yerda qurilgan?
 A. Poyariq tumani Xartang qishlog‘ida
 V. Buxoroda.
 S.Samarqandda
 D . Turkistonda.
34. Nafosat tarbiyasining asosiy vositalari?
 A. Tabiat manzaralari, inson shaxsiyati go‘zalligi, badiiy tarbiya na‘munalari
 V. Teatr, muzey, ko‘rgazma zallari
 S. Tog‘, daryo, ko‘llar D . To‘g‘ri javob yo‘q.
35. Musulmon maktablarida ta‘lim tizimi necha toifaga bo‘lingan edi?
 A. Ikki toifaga-o‘rta ta‘lim qori xona.
 V. uch toifaga-boshlang‘ich ta‘lim o‘rta ta‘lim xalilxona.
 S. besh toifaga –quyi maktab xalilxona, yuqorixona maktab internat, oliy diniy maktab
 D . To‘g‘ri javob yo‘q.
36. Bexbudiy qaysi sohalarini mukammal egallagan?
 A. Fan arbobi islomshnos
 V. Jaditchi fan arbobi jurnalist
 S. Jamoat arbobi islomshnos pedagog ahloqshunos jurnalist jo‘g‘rafiyashunos
 D . Ahloqshunos pedagog.

MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI

1. Xalq pedagogikasi inson kamolotining asosi
2. O‘zbek halq pedagogikasini qayta tiklangan yo‘riqnomasi
3. Farobiyning pedagogik qarashlari
4. Xalq pedagogikasi va unga xos bulgan xususiyatlar.
5. O‘tmishda bola tarbiyasida qo‘llangan usullar
6. Xalq pedagogikasida mexnat tarbiyasi.
7. Xalq qo‘shiqlari tarbiya vositasida
8. O‘tmish mutaffakkirlari ta’lim -tarbiya xaqida
9. O‘zbek xalq ertaklari va maqollari
10. Ta’limda xalq pedagogikasidan foydalanish
11. Xalq pedagogikasining ogzaki ijodda aks ettirilishi.
12. Xalq pedagogikasida axloqiy qarashlarning qo‘shiqlarda aks ettirilishi
13. Xalq pedagogikasida axloqiy qadiriylar
14. Xalq pedagogikasida axloqiy tarbiya
15. O‘zbek xalq dostonlari va ularning tarbiyaviy ahamiyati

MUSTAQIL ISHNI BAJARISHDA FOYDALANISHGA TAVSIYA QILINGAN ADABIYOTLAR

1. Abu Rayxon Beruniy. Tanlangan asarlar. T. 1-kitob, konun Ma’sudiy. 1-5–makolalar. Tarjimon Rasulov. T. 1973 y.
2. Abu Mansur as-Saolibiy. Yajimat ad-daxr. Fan. T. 1976 y.
3. Abu Mansur Abdumalik ibn Muxammad as-Saolibiy «Tijimat al - Yatim». T. 1990 y.
4. Bolalar bogchalarida Xalq uyinlari T. 1991 y.
5. Imom Ismoil al – Buxoriy. Al-adab al-mufrat. (Adab durdonalari) T. Uzbekiston 1990 y.
6. Kalila va Dimna. T.: G. Gulom 1977 y.
7. Muxammad Ibn Muso al – Xorazimiy. Tanlangan asaralar. T. Fan . 1983 y.
8. Mulo Saloxidin ibn mullo Aloiddin xoji (Saloxiddin Toshkandiy). Temurnoma. T. : Chulpon. 1990 y.
9. Uzbek Xalq ertaklari. T.: U. 1988 y.
10. Uzbekiston Xalqlari tarixi. 1-jild. Fan 1992 y.
11. Umar Xayyom. Navruznoma. T.: Mexnat. 1990y.
12. Xaydarov K. Musulmonlarning milliy urf-odatlar. S.: G.Gulom. 1991 y.
13. «Xikmatlar» (Devoni xikmat) T. 1990 y.
14. Hadislar. 1-6 – kitoblar. T. 1996 y.

15.Qobusnoma. T.: Ukituvchi. 1994 y.

16.Qur'oni karim. Uzbekcha izoxli tarjima. T.: Cho'lpon. 1992 y.

GLOSSARIY

- Anomaliya (yunoncha – anomal)** - me'yordan, umumiy qonuniyatlardan chetlanish, noto'ri rivojlanish.
- Anomal bolalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish-** korrektsion pedagogikaning asosiy tushunchasi bo'lib, nuhsanning darajasi va tuzilishiga mos keladigan metod hamda vositalar yordamida anomal bolalarni faol ijtimoiy hayot va meqnatga tayyorlash, ularda fuqarolik sifatlarini shakllantirish.
- Axloq (lotincha «moralis» - xulq-atvor ma'nosini bildiradi)** - ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi.
- Axloqiy ong** – shaxsga axloqiy me'yorlar va xulq-atvor qoidalari to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish asosida hosil qilinuvchi ong shakli.
- Axloqiy tarbiya** – muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan tartib, odob, o'zaro munosabat, muloqot va xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish asosida ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy hismi.
- Aqliy tarbiya** - shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.
- Baynalminallik** («inter» – orasida, o'rtasida, aro, «natio» – xalq)– o'zga millat va elatlarning haq-ququqlari, erki, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon etkazmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilat.
- Bakalavriat** - mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.
- Bashoratlash** - bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'g'ulini tanlab olish.
- Baho** – ta'lim oluvchilarga ularning ta'lim olishi, bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ijodiy yondoshishini rag'batlantirish maqsadida ta'sir ko'rsatish vositasi.

- Bilim** – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.
- Bilim olish** – borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustaqamlanib, mavjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni.
- Bilish** - ob'ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni.
- Vatanparvarlik** (lotincha «patriotes» – vatandosh, «patris» – vatan, yurt) - shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniy fazilat.
- Verbal** – bilim (ma'lumot, axborot)larni so'z yordamida (og'zaki) etkazib berish, ifoda etish.
- Gnoseologiya (yunon tilidan gnosis – bilim, ong, o'rganish)** – bilish, ilmiy bilimlarning shakllanishi, xususiyatlari, qonuniyatlari, uslublari, ilmiy tafakkur shakllari, shuningdek, insonga xos bo'lgan borlig'ni anglash qobiliyati haqidagi nazariya, ta'limot.
- Davlat ramzlari** - muayyan millat, elatning etnopsixologik xususiyatlari, qarashlari, orzu-umidlari, intilishlari va maqsadi, hududiy, ijtimoiy-g'ayaviy birlik mohiyatini anglatishga xizmat qiluvchi tasviriy belgilar majmui.
- Davlat ta'lim standarti** – 1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari zarur bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o'quv fani bo'yicha ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablar.
- Dars** - bevosita o'qituvchi rahbarligida muayyan o'quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta'lim jarayonining asosiy shakli.
- Darslik** – muayyan fan bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba.
- Didaktika (ta'lim nazariyasi)** – (yunoncha «didaktikos» “o'rgatuvchi”, «didasko» – “o'rganuvchi”) - ta'limning nazariy jihatlari (ta'lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati mazmuni, ta'lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari va hokazo muammolari)ni o'rganuvchi fan.
- Didaktika tamoyillari** (lotin tilidan «principium» - har qanday nazariyaning asosiy, boshlang'ich, dastlabki holati) –ta'limni tashkil etishga qo'yilgan me'yoriy talablarni ifodalovchi, shuningdek, ta'lim jarayonining

asosiy maqsadi va qonuniyatlariga muvofiq uning dastlabki holatini belgilovchi qarashlari.

Didaktik tashqis maqsadi – o'quv jarayonining samaradorligini aniqlash, baholash va tahlil qilish.

Didaktik tizim (yunoncha «systema» – yaxlit, qismlarda tashkil topgan, birlashtirish) – ma'lum mezonlari asosida ta'lim jarayoning yaxlit holatini belgilash, ajratib ko'rsatish.

Didaktik o'yin – o'rganilayotgan ob'ekt, qodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o'quvchining bilishga bo'lgan qiziqishi va faollik darajasini rag'batlantiruvchi o'quv faoliyati turi.

Dunyo qarash - tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi.

Jazolash - tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga salbiy baho berish usuli.

Jamoa (lotincha «kollektivus» so'zining tarjimasi bo'lib, yig'ilma, oмма, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh kabi ma'nolarni anglatadi) - bir necha a'zo (kishi)lardan iborat bo'lib, ijtimoiy ahamiyatga ega umumiy maqsad asosida tashkil topgan guruh.

Jinsiy tarbiya - o'zida shaxsni jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun hamko'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan pedagogik faoliyat mazmuni.

Jismoniy tarbiya - o'quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qisimi.

FOYDALANILADIGAN ASOSIY DARSLIK VA O'QUV QO'LLANMA LAR RO'YXATI

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.
2. Volkov G.N., Baubekova G.D. Etnopedagogika. – T., 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Hoshimov K., S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – T.: O'qituvchi, 1995.
2. Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. – T.: Fan, 1995.
3. O.Musurmonova., A.Telegenov. Dostonlar – tarbiya maktabi. – T.: Ma'naviyat, 1999.
4. Sattorov M. O'zbek udumlari. – T.: Fan, 1993.
5. Bobomirzaev X. Xalq og'zaki ijodi va uning ta'lim tarbiyadagi samarasi. – T.: O'qituvchi, 1996.

